



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 9-son.

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ  
LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

### Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV  
Dilshod KENJAYEV  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Nargiza RAHMONQULOVA  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANİYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
Ravshan JOMONOV  
Zulxumor MIRZAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinbosari)

### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Emma TOROSYAN

### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi  
32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10,  
(71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2021.25.09 da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasida. 10, 11 kegl. «PRESS-PRINT» bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent vil., Yuqori Chirchiq tum., Yik-ota, Oqibat ko'chasi 50-uy. Buyurtma \_\_\_ Adadi 3420 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

### MUNDARIJA

#### DARS - MUQADDAS

Dilbar NORMURODOVA. O'zbekiston - vatanim mening!	3
Umid HAMROYEV. Fonetik hodisalar. So'zlarda tovush ortishi	5
Feruzaxon YO'LDOSHEVA. Turab To'laning "Do'nan" asarini o'rganish	9

#### METODIK TAVSIYA

Nilufar ZARIPOVA. Ona tili darslarida yozma savodxonlikni oshirish usullari	11
Jumagul ISAQOVA. Badiiy asarni psixologik tahlil qilishning o'quvchilar ruhiyatiga ta'siri	12
E'tibor YAXSHIYEVA. Ona tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	14

#### TILSHUNOSLIK

G'anisher JO'RAYEV. Tilshunoslikda til va madaniyat munosabati	17
--	----

#### TAHLIL

Safo MATCHONOV. Alisher Navoiyning komil inson tarbiyasiga oid qarashlariga bir nazar	18
Xurshida NORXO'JAYEVA. Rasmiy muloqot kommunikativ aloqa vositasi sifatida	19
Qandilal YUSUPOVA. Ernest Xemingueyning "Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasida ayol psixologiyasi	21
Dilfro'z JABBOROVA. "Go'zal" olimlar nigohida	23
Nigora XOLMATOVA. Erkin A'zam badiiy publitsistikasida bir-biriga zid faktlar talqini	25

#### MULOHAZA

Gulnora MUHAMEDJANOVA. Tarixiy haqiqat va badiiy to'qima	27
--	----

#### TADQIQOTLAR

Asqar ESHMUMINOV. Korpusda razmetka va uning xususiyatlari	28
Nosir RAJABOV. O'zbek tilida unli fonemalarning pozitsion ko'rinishlari	30
Ozod SADRIYEV. Yog'och o'yamakligi terminologiyasi	31
Qahramon RAYIMOV. Til va nutq paradigmalarning sistem tahlili	33
Lola NISHANOVA. Urdu tilining lug'at tarkibida ingliz o'zlashmalarining o'rni	35
Shahnoza XO'JANIYAZOVA. Alisher Navoiyning manoqib asarlarida qo'llangan zoonimlarning leksek-semantik xususiyatlari	37
Mastura TOJIYEVA. Ingliz va o'zbek tili maqollarida metafora tatbiqi	39

#### KICHIK TADQIQOTLAR

Latifa XUDAYQULOVA. O'zbek to'y-marosimlarida an'anaviy uzvlarning o'rni	40
Azimjon DAVRONOV. Hamzaning "O'ch" pyesasida ijtimoiy-siyosiy muammolar talqini	42
Ruxiya SHAYMANOVA. Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasining tili va uslubi	43
Oysha RAJABOVA. Xorijiy tili o'qitishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish	44
Gulhavo SAMANDAROVA. Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda talaffuz mashqi va uning turlari	45
Manija VAHRIYEVA. Notiqlik san'atining tadrjiiy rivojlanishi	47

#### AKTUALNOE SLOVO DNYA

Робия ШАРИПОВА. «Узбекистан, моя земля, ты Родина моя»	49
--	----

#### МЕТОДИКА. ОПЫТ

Гульшод ХАМРАЕВА. Выражение образа действия в простом предложении	51
---	----

#### ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Феруза ХУДАЙКУЛОВА. Наречия образа действия, меры и степени	53
---	----

#### ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Лола АКРАМОВА. Создание искусственной языковой среды при изучении русского языка	56
Шоира МАШАРИПОВА. Как обучить учащихся критическому осмыслению иноязычного текста?	57
Малика АРИПОВА. Психологические особенности коллаборативных проектов при усвоении литературоведческих знаний студентами педагогического вуза	59

#### ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Рубен НАЗАРЬЯН. Мир бестиарий в романе М.Булгакова «Мастер и Маргарита»	62
---	----

#### НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Лайлохон АХМЕДОВА, Валентина НОРМУРАТОВА. Специфика кредитно-модульной системы обучения	64
Аль-Мария БАБАРАХИМОВА. «Вести-курранты» как лингвистический источник изучения старославянской лексики	67
Дилфуза САДИНОВА. Текст в мировой лингвистике и его лингвистическая природа	70

#### ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Насиба НИЯЗОВА. Современные методы обучения в преподавании дисциплин в юридическом вузе	72
Виктория СВОБОДИНА. Лэпбук как вид проектной деятельности в начальной школе	74

#### К ЮБИЛЕЮ ПИСАТЕЛЯ

Маргарита БУЛЫЧЁВА. Народный писатель Узбекистана Уткир Хашимов	75
Андрей КУЧИНСКИЙ. «Человек, чье слово внесло свет во многие тёмные закоулки жизни»	76

#### ВНЕКЛАССНАЯ РАБОТА

Замира НУРМАНОВА. Интеллектуально-познавательная игра «Поле чудес» по творчеству А.П.Чехова	79
---	----

# IBRATLI UMR



O'tgan asrning 70-yillari oxirida Til va adabiyot institutidagi bir voqeani marhum ustozimiz Ernest Begmatov (u kishini Ollah rahmatiga olgan bo'lsin) shunday xotirlagan edi: "Bir kuni bo'limda o'tirsam, To'ra (To'ra Mirzayev va Ernest Begmatovlar qalin o'rtoq bo'lganliklari uchun o'zaro suhbatda bir-birlariga o'ta tabiiy bir tarzda To'ra,

Ernest deb murojaat qilar edilar) oldimga barvasta bir yigitni boshlab kirdi va "Shu yigitni yoningga ol, ilm qilaman deb Buxorodan kelibdi", – dedi. Shundan keyin u yigit – Mamatqul tilshunoslik bo'limida ishlay boshladi. Kunlar o'tar, har gal Mamatqul ishlaydigan xonaga kirganimda oldida, albatta, folklorshunoslikka oid kitob bo'lar edi. Keyinroq "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida folklorshunoslikka oid maqolalari chiqa boshladi. Shunda To'raga bu yigit tilchi emas, o'zingga o'xshagan folklorshunos bo'ladi, dedim. Shundan keyin Mamatqul ukamiz folklor bo'limiga ishga o'tdi, joyini topdi. Xayriyat, adashmagan ekanman. Mamatqul bugun folklorshunoslikda o'zining so'zini ayta oldi".

O'shanda azbaroyi xalq so'ziga shaydolik Mamatqul Jo'rayevni 1978-yilda ToshDU (hozirgi O'zMU)ga, keyinroq ro'yi rost shakllangan ilmga intilish O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutiga boshlagan edi. Institutimizdagi salkam 45 yillik ilmiy faoliyati davomida u respublika va turkiy folklorshunoslikda folklor ilmining zabardast vakili sifatida tanildi. O'zFA Til va adabiyot institutida avval laborant, stajyor-tadqiqotchi, katta laborant, kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, doktorant, yetakchi ilmiy xodim, Folklor arxivining mudiri lavozimlarida sidqidildan mehnat qildi. Ilmiy-tashkiliy faoliyatidagi ilg'orligi sababli Folklor bo'limi mudiri, institut direktorining o'rinbosari bo'lib ishladi.

Mamatqul aka folklor ilmining ko'plab sohalari – o'zbek mifologiyasi, marosim folklori, xalq nasrining janrlar tarkibi, epik sujetlarning genezisi va motivlar tarkibi, o'zbek folklorining tipologiyasi, marosim qo'shiqlari badiiyati va hozirgi tarixiy-folkloriy jarayon masalalari, folklorshunoslik tarixi va "postfolklor" kabi sohalari bilan shug'ullangani, shug'ullanganda ham astoydil ilm qilgani ma'lum.

M.Jo'rayev "sehrli"-magik raqamlarning tarixiy asoslari va o'zbek xalq ertaklaridagi badiiy vazifalari, epik obrazlar tizimining genezisi va shakllanish tarixi, mif va xalq og'zaki badiiy ijodi munosabati, mif va yozma adabiyot, mifologiyaning epik diffuziyasi, mifologik personajlar, marosim folklorining janrlar tarkibi va poetikasi, o'zbek xalq ertaklari badiiyatini tadqiq etib, yangi nazariy qarashlarni ilgari surdi.

O'zbek xalq nasri janrlar tarkibining ilmiy tasnifini yaratdi, xalqimizning o'ta qadimiy kosmogonik tasavvur-

larini turkiy va jahon xalqlari mifologiyasi kontekstida qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etdi.

Olim so'nggi yillarda juda barakali ijod qilgan edi. Uning ilmiy-tashkiliy rahbarligi ostida o'zbek xalq ijodi yodgorliklarining 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o'rganish masalalari fundamental tadqiq qilinayotgan edi. O'tgan yillar davomida mazkur 100 jildlikning 62 jildi nashrga tayyorlandi, "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari"ning dastlabki 18 jildi chop etildi. Shaxsan o'zim Mamatqul akaning 2017-yili Germaniyada G'abrielle Keller va X.Rahimov bilan hamkorlikda o'zbek xalq sehrli ertaklarining 2 jildlik katalogi ("Typenkatalog Usbekischer Zaubermaerchen (Klassifizierung mit Kommentaren). Band I-II. – Vorabdruck, 2017. – 800 p) chop etilgandagi kayfiyatidan u kishining ilm uchun, fan uchun tug'ilganini anglagan edim.

Bugun M.Jo'rayev nomi O'zbekistonda fan tashkilotchisi, o'zbek folklorining tolmas targ'ibotchisi sifatida tarixda qoldi. 1996-yildan hozirga qadar Madaniyat va sport ishlari vazirligi, San'atshunoslik ilmiy-tekshirish instituti, O'zbekiston teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Ostonasi tillodan" folklor ekspeditsiyasi hamda 2001–2004-yillarda YuNESKO tashabbusi bilan o'tkazilgan "Boysun" xalqaro folklor ekspeditsiyasining a'zosi sifatida o'zbek folklorini to'plash va sistemalashtirishga katta hissa qo'shib o'tdi.

U 1999–2004-yillarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi qoshidagi "O'zbekiston xalqlari urfodat, marosim va an'analari" ilmiy-metodik kengashining a'zosi, 1995-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi huzuridagi Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar Respublika markazi Folklor ilmiy kengashining a'zosi, 2007–2009-yillarda mazkur kengash raisi sifatida faoliyat ko'rsatgan edi.

Chindan ham Mamatqul Jo'rayev o'zbek folklorshunosligining katta vakili sifatida, xalq donoligining sir-u asrorlarini o'rganishga butun umrini tikkan sinchi olim sifatida yodimizda qoldi. Bundan keyin ham M.Jo'rayev tadqiqotlarida ilgari surilgan nazariy qarashlar va ilmiy konseptsiyalari filologiya, madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun daralik hamda o'quv qo'llanmalari yaratish, nomoddiy madaniy merosni asrash, muhofaza qilish va targ'ib etish, umuman, folklor san'atini yanada rivojlantirishda samarali tatbiq etiladi.

Ustozimizning "Ipak yo'li afsonalari" (1993), "O'zbek xalq samoviy afsonalari" (1995), "O'zbek mifologiyasi" (2001), "Mif, folklor va adabiyot" (2006), "O'zbek mavsumiy marosim folklori" (2008), "Mif, marosim va ertak" (2014), "Ipak yo'li xalqlari astromifologiyasi" (2018) kabi asarlari hali ko'p o'qiladi, ko'p o'rganiladi, odamparvarligi-yu ilmparvarligi yana va yana eslanadi, xotirlanadi.

*Joyingiz jannatda bo'lsin, Mamatqul aka...*

**Yorqin Odilov,**

O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo'lim mudiri, f.f.d., prof.



**Dilbar NORMURODOVA,**  
Termiz shahridagi 11-maktabning  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## O'ZBEKISTON – VATANIM MENING!

### Darsning maqsadi:

**a) ta'limiy maqsad:** o'quvchilarning Vatanimiz o'tmishi, buguni va kelajagi haqidagi bilimlarini rivojlantirish;

**b) tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarning kecha va bugun hamda kelajak o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglashlari, bu haqida mushohada yuritishlariga turtki berish;

**d) rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning tasavvur qilish qobiliyatini shakllantirish, mustaqil, erkin fikrlashlariga erishish, guruhlarda hamkorlikni tashkil etish.

**Darsda foydalaniladigan usullar:** "Mozaika", "Sirli sandiq", "Rasmi topshiriq", "Aql charxi", "Kim birinchi?".

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** Vatanimizning diqqatga sazovor joylari aks etgan rasmlar, davlatimiz ramzlari aks etgan rasmlar, turli xil shiorlar, kompyuter, slaydlar, proyektor, marker, elektron ko'rgazmalar, shaxmat doskasi, mozaika.

**Darsning turi:** bahs-munozaralarga asoslangan interfaol dars.

**Darsning shiori:** "5x5".

**Darsning borishi:**

**O'qituvchi:** Assalomu alaykum, aziz bolajonlarim, Bilim olishga chanqoq, har bir ishda chaqqonlarim!

**O'quvchilar:** Assalom, aziz ustoz,

Ta'til o'tdi quvnoq, soz!

Bir-birimiz-la ahil-inoq

Ilm olishga shaymiz bu choq!

**O'qituvchi:** Shunday bo'ling do'st, o'rtoq,

Ahillikda gap ko'proq.

Qani, boshlaylik darsni

Bunga takliflar bormi?

**O'quvchi:** Ustoz, biz bu darsimizni intiq bo'lib kutganmiz.

**O'quvchi:** Axir yurtimizda 30 yillik tantana, katta shodiyona.

**O'quvchi:** Bu darsimizda shonli yillar tarixi, kelajakka aniq yo'llar bilan belgilangan bunyodkorlik samalari haqida so'z yuritimiz, deb ishonamiz.

**O'qituvchi:** Unda ishni guruhlar bilan boshlaymiz (sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi). Qani, kim aytdi, Vatan nima?

**O'quvchi:** Vatan bu – mangu maskan.

**O'quvchi:** Vatan – ota-bobolarimiz xoki qo'nim topgan joy.

**O'quvchi:** Vatan – onam allasida yashaydigan ohanrabo kuy.

**O'quvchi:** Vatan – bizni hur va baxtiyor o'stirayotgan issiq quchoq.

**O'quvchi:** Vatan – onam, boshdagi parvonam, nurga to'liq xonam.

**O'qituvchi:** Ha, Vatan bu – qadri baland, hissi ulug', bir qadam chiqsang, sog'inib qoladigan, ko'rmasang tura olmaydigan nurli bo'ston. Har biringiz Vatan so'ziga juda chiroyli ta'rif berdingiz, ofarin. Men ham uni shunday ta'riflamoqchiman (ekranda O'zbekistonning shonli tarixi va bugungi kunda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari to'g'risida videorolik namoyish etiladi va o'qituvchi tomonidan she'r yangraydi):

*Bu dunyoda jannatmonand yerlar bisyor,*

*Bu dunyoda oq-u qaro ellar bisyor,*

*Ammo yo'qdir bu dunyoda sendek diyor,*

*Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.*

*Tuprog'ingda ajdodlarim izi qolgan,*

*Bobolarim terlarining tuzi qolgan,*

*Har gardida momolarim ko'zi qolgan,*

*Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.*

*O'zbek elim, nuridiyam, qarog'imsan,*

*O'zbek elim, osmonim-u tuprog'imsan,*

*Ham quvonchim, ham baxtim-u firog'imsan,*

*Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston...*

Keling, endi navbatni yana sizning bilimlaringizni sinash uchun topshiriqlarga bersak. Marhamat, har bir guruh O'zbekistonimiz haqida beshtadan qiziqarli ma'lumotlar bersin.

### 1-guruh:

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda joylashgan;

– O'zbekiston Respublikasining umumiy aholisi 34,01 mln nafardan ortiq;

– Respublikamizning umumiy yer maydoni 448,9 km<sup>2</sup> ni tashkil etadi;

– O'zbekiston Respublikasida joylashgan Termiz shahrimiz yaqinda 2520 yoshga kiradi;

– o'zbekistonlik gimnastikachi Oksana Chusovitina "Ginnesning rekordlar kitobi"ga kiritilgan birinchi sportchi ayol hisoblanadi.

**2-guruh:**

– O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishgan;

– Toshkent shahri Respublikamizning poytaxti hisoblanadi;

– O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir;

– O‘zbekiston oltin zaxirasi bo‘yicha dunyo mam-lakatlar orasida to‘rtinchi o‘rinni egallaydi;

– 2020-yil Tokioda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpia o‘yin-larida sportchilarimiz umumjamoa hisobida 32-o‘rinni egalladi.

**3-guruh:**

– O‘zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan barcha davlatlar bilan chegaradosh;

– O‘zbekiston 14 ta ma‘muriy-hududiy birlikdan, ya‘ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahridan iborat;

– Respublikamiz hududida 130 dan ortiq millat vakil-lari ahil va inoq yashab kelmoqda;

– “Tokio – 2020” yozgi Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida umumja-moa hisobda 1-o‘rinni egalladi;

– O‘zbekiston Osiyo qit‘asida Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va Erondan keyin beshinchi eng yaxshi natijani qayd etdi.

**4-guruh:**

– yurtdoshimiz Akbar Jo‘rayev og‘ir atletika sport turi yo‘nalishida dunyo rekordini yangiladi va yurtimiz hiso-biga yana bir oltin medalni qo‘shib qo‘ydi;

– “Tokio – 2020” olimpiadasida yurtdoshimiz Bahodir Jalolov oltin medal sohibiga aylandi;

– bu yilgi olimpiadada O‘zbekiston jamoaviy hisobda musulmon davlatlar orasida 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi;

– Osiyo davlatlari orasida esa 5-o‘rinni egalladi;

– umumjamoa hisobida yurtimiz beshta medal so-hibiga aylandi.

**O‘qituvchi:** Barakalla! Ha, yurtimiz ana shunday shonli tarixga ega. Bu tarixni o‘rganish va uni yana-da sharafiga burkash har birimizning oliy maqsadimiz bo‘lmog‘i lozim. Navbatdagi topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin diqqatlaringizni ekranga qaratishla-ringizni so‘rayman. Ekranda har bir guruh uchun sirli sandiq ochiladi va sizlar unda keltirilgan maqollarda-gi tushirib qoldirilgan so‘zlarni topib aytishingiz kerak bo‘ladi.

**1-guruh:**

1. Ona yurtning – oltin ...iging.

2. ... suv bilan tirik, odam – el bilan.

**2-guruh:**

1. ... gadosi bo‘lsang ham, yurt gadosi bo‘lma.

2. ... chamanni sevar, odam – Vatanni.

**3-guruh:**

1. Odam qo‘ngan yerda, ... to‘ygan yerda.

2. El egasiz bo‘lmas, ... yoqasiz.

**4-guruh:**

1. Yurt egasi ...dir,  
Oldirgani qo‘ymasdir.

2. ... bilan yer ko‘karar, odam bilan el.

**O‘qituvchi:** Ofarin! Qani, navbatdagi topshiriqni qabul qiling va to‘g‘ri javoblarni ayting. (*Guruhlarga shaxmat doskasi beriladi va oq va qora ranglar tagida aralash holda berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish hamda ushbu gap muallifini topish topshirig‘i beriladi.*)

**1-guruh:** Oila kichik Vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, Vatan tinch bo‘ladi. (Sh.Mirziyoyev)

**2-guruh:** Xush durur bog‘i koinot guli,  
Barchadin yaxshiroq hayot guli. (Alisher Navoiy)

**3-guruh:** O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan... (Ozod Sharafiddinov)

**4-guruh:** Yaxshi odam yurt tuzar,  
Yomon odam yurt buzar. (Amir Temur)

**O‘qituvchi:** Sizlar har berilgan topshiriqni juda aniq va tez bajarib meni lol qoldiryapsizlar. Shu bilan birga o‘z bilimingizni ham mustahkamlab olyapsizlar. Bu in-sonlarning Vatan haqida bildirgan gaplari shunchalar teran ma‘no kasb etadiki, buni dildan his etib yashamoq barchamizning burchimiz. Keling, “**Aql charxi**” mashqi-ni ko‘rib chiqamiz. Buning uchun ekranda shoirlarning surat-lari namoyish etiladi, siz esa shu shoir ijodidan na-muna aytib berasiz.

**1-guruh:**

*Vatan – mening yarqiragan qo‘rg‘on yerim,  
Oy-u oftob mangu qo‘rg‘on qurgan yerim,  
Esdan chiqar boshqa hamma ko‘rgan yerim,  
Vatan – mening tuqqan yerim, turg‘on yerim,  
Unib-o‘sib, o‘ynab-kulib yurg‘on yerim!*

(Sirojiddin Sayyid)

**2-guruh:**

*Olam keng,  
Ellar ko‘p,  
Yurtlar beshumor.  
Har yurt o‘z ahliga go‘zal va ajib.  
Ne baxt,  
Quyoshiston ta‘rifli diyor  
Nurli peshonamga bo‘libdi nasib...  
Men yurtimni yozsam, bo‘lmog‘i kerak.  
Osmon oq qog‘oz-u,  
Dengiz siyohdon.  
U quyoshday munis, hayotbaxsh siyna,  
Zamin-u zamiri tuganmas kondir;  
Yeri nasya emas, balki naqdina  
Jannat deb atalgan O‘zbekistondir.*

(E.Vohidov)

**3-guruh:**

*Shu Vatanni sevaman jondan,  
Sevdim – yana go‘zal bo‘ldi u.  
Oqqush bo‘ldi har tushgan qori,  
Har yomg‘iri asal bo‘ldi u.  
Qo‘limga suv quydi bulog‘i,  
Shamollari tugdilar sochiq.  
U qo‘lini ochgani sayin,*

Yo'li bo'ldi shunchalar ochiq.  
 Shu Vatanni sevaman jordan,  
 Sevdim – yana dilbar bo'ldi u.  
 Oq kaptarlar – opam, singlim-u  
 Jayronlari jigar bo'ldi u.

(Zulfiya Mo'minova)

**4-guruh:**

O, ota makonim,  
 Onajon o'lkam,  
 O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.  
 Senday mehribon yo'q,  
 Seningdek ko'rkam.  
 Rimni alishmasman bedapoyangga.  
 (Muhammad Yusuf)

**O'qituvchi:** Barakalla, bilimdonlar! Sizga ishonamiz, yurt egalari, siz hamisha izlanishdasiz. Keling, endi “Kim birinchi?” o'yinini o'tkazamiz. Hozir har bir guruhga mozaikalar beriladi. Ko'ramiz, qaysi guruh ushbu mozaikada yashiringan so'zlardan birinchi bo'lib gap hosil qilar ekan.

Mozaikadan “Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik” shiori hosil qilinadi va birinchi bo'lib bajargan guruh g'oliblikni qo'lga kiritadi.

**O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, qani ayting-chi, nega darsimiz uchun “5x5” deb shior tanladik?

**1-guruh:** Bu aslida beshta qit'a demakdir.

**2-guruh:** Bu besh tashabbusni ham anglatadi.

**3-guruh:** Bu besh strategiya demak!

Strategiya bu nima?

Strategiya – aniq yo'l.

Aniq maqsad, aniq ish,

Shular uchun bergin qo'l.

Jamiyatda sud, iqtisod,

Har sohada muhim ish.

Xavfsizligimiz o'ylab,

Sira qilmaymiz tashvish.

Bu ishlarning boshida,

Yurtboshimiz madadkor.

Ozod Vatan qo'ynida

Biz bolalar baxtiyor!

**4-guruh:** 5 bahoga o'qimoq, ishlarimizning besh bo'lishi.

**Baholash va rag'batlantirish.** Guruhlarning dars davomida to'plagan ballari hisoblanib, g'olib guruhga ramziy oltin medal topshiriladi. 2-o'rinni egallagan guruhga kumush va 3-o'ringa bronza medallari beriladi. Qolgan ikki guruh a'zolariga “Eng bilimdon” va “Eng chaqqon” nominatsiyalari yozilgan ko'krak nishonlari taqdim etiladi.

**Uyga vazifa:** “Men yurtimning ertasiman” mavzusida matn yaratish.

Dars “Vatan” mavzusidagi qo'shiq bilan yakunlanadi.

**Umid HAMROYEV,**

Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi

22-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## FONETIK HODISALAR. SO'ZLARDA TOVUSH ORTISHI

(5-sinf, I chorak)

**Darsning maqsadi:**

**a) ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga fonetik hodisalar, og'zaki va yozma nutqning adabiy me'yorlari, unlilarining yonma-yon kelishi, nutqimizda tovush ortirilishi hodisasi haqida tushuncha berish orqali tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish malakalarini singdirish;

**b) tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarga ota-bobolarimiz, kimyogar olimlar va shifokorlarimizga hurmat ruhini singdirish, tibbiy madaniyatni shakllantirish;

**d) rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarda talaffuz va imlododa tovush o'zgarishi hodisalaridan o'rinli foydalana olish ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish.

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** kompyuter, slaydlar, darslik, tarqatmalar, audio yozuvlar.

**Darsda foydalaniladigan usullar:** “O'xshash chehralar”, PISA testlari, “Mulohaza uchun so'z rukni”, “BINGO”, “Mening sayyoram”, tezkor savol-javob.

**Dars turi:** yangi bilimlar beruvchi.

**Darsning borishi:****I. Tashkiliy qism.**

O'quvchilar bilan salomlashilgach, navbatchi axboroti tinglanadi. Sinfxonadagi o'quvchilarning darsga tayyorligi ko'zdan kechiriladi va yangi dars guruhlarda ishlash bilan olib borilishi e'lon qilinib, sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi: “**Kimyogorlar**”, “**Shifokorlar**”, “**Farmatsevtlar**”.

Dars jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilar tabletkalar shaklidagi rag'bat kartochkalari bilan taqdirlanib boriladi.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O'tilgan mavzu – “Nutq tovushlarining ma'no farqlashi” guruhlarda ishlash orqali mustahkamlab olinadi. Bunda guruhlarga *borliq*, *da'vo*, *ta'na*, *faqir*, *juda*, *surat*, *afzal*, *devon* kabi so'zlar beriladi va ush-

bu so'zlarga o'xshash so'zlarni topish hamda ma'nosini izohlash topshiriladi.

#### “Kimyogarlari” guruhi:

Borliq – falsafa faniga oid tushuncha bo'lib, inson sezgi a'zosidan tashqaridagi obyektiv dunyo, olam, mavjudot. Kun issiq, borliq lov-lov yonardi. (F.Musajonov, “Himmat”)

Borlik – bor bo'lishlik, mavjudlik; boylik, to'qlik. Borlikdan maqtanma. (Maqol)

Afzal – eng fozil, eng fazilatli degan ma'noni anglatadi va, asosan, chiqish kelishigi bilan ikki narsani bir-biriga chog'ishtiruvda ishlatiladi. Yaxshi, a'lo. Sizning har bir so'zingiz biz uchun tilladan ham afzal.

Abzal – forscha so'z bo'lib, asbob, ish quroli degan lug'aviy ma'noni anglatadi. Ot-ulovni minish yoki arava qo'shish uchun zarur bo'ladigan asboblar.

#### “Shifokorlar” guruhi:

Da'vo – arabcha so'zdan olingan bo'lib, arz, shikoyat, iddao degan ma'noni anglatadi. Buzilgan haququqni talab qilish yoki uni himoya etish haqida haquqni himoyalovchi tashkilotlarga qilinadigan murojaat, arz. Meros da'vosi.

Davo – arabcha dori-darmon, iloj degan ma'noni anglatib, bemorning shifo topishi uchun qo'llanadigan vosita, muolaja, umuman, shifobaxsh narsa. Quyosh, havo – tanga davo. (Maqol)

Devon – forscha she'rlar to'plami. Muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she'rlarning to'liq to'plami. Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni to'rt qismdan iborat.

Dovon – tog' yoki tepalikning baland, ammo oshib o'tsa bo'ladigan qulay joyi, oshuv. Arpasiz ot dovon osholmas. (Maqol)

#### “Farmatsevtlar” guruhi:

Judo – forscha so'zdan olingan bo'lib, alohida, ajratilgan, ajralgan degan ma'noni anglatadi. Biror narsa yoki kimsadan ayrilmoq, mahrum bo'lmoq, judolikka uchramoq. Men bir oyog'imdan judo bo'ldim-u, ammo yuzlab go'daklar tirik qoldi.

Juda – ortiq, nihoyat darajada, haddan tashqari, g'oyat, nihoyatda, benihoya. Daraja ma'nosida keladi. Bu masala juda to'g'ri va o'z vaqtida qo'yildi.

Faqir – arabcha so'zdan olingan bo'lib, kambag'al, bechora, muhtoj degan ma'noni anglatadi. Amirning oshidan faqirning mushti yaxshi.

Paqir – suv va boshqa suyuqliklarni tashish va asrash uchun ishlatiladigan bandli silindrsimon idish, chelak. Murodbek bir kuni quduqdan suv olish uchun paqirni tashladi.

### III. Yangi mavzu bayoni.

**O'qituvchi:** Aziz va qadrlil o'quvchilar barchamizning odatiy kun tartibimizdan joy olib ulgurgan “tabletki” so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, “kulcha” degan ma'noni anglatadi.

“Kunlik odatiy savollar” usuli orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash malakalari shakllantiriladi.

1. Insonlar tabletkalardan, asosan, qachon foydalanadilar?

2. Paratsetamol tabletkasidan nima maqsadda foydalaniladi?

3. Dorivor o'simliklarning qaysi turlarini bilasiz?

4. Siz yashayotgan joyda dorixonlar bormi?

5. Kundalik turmushimizda katta kishilar qanday tabletkalardan foydalanishadi?

“O'zbekni mashhur qilgan “Allapinin” matni o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi.

O'zbekni mashhur qilgan “Allapinin”

Inson **organizmida** har bir a'zoning alohida o'rni bor. Aytaylik, miya fikrlash, borliqni **anglashda** asosiy **sanalsa**, ko'z bajarayotgan vazifani hech bir mubolag'asiz hayot ramziga muqoyasa qilish **mumkin**.

Lekin vujudimiz ichra **shunday** bir a'zo borki, uning holati, umuman, inson **tirikligini** ifoda etadi. Bu – **yashashni ta'minlaydigan** yurakdir.

Vujudimizda “jon” deb **atalmish** omilning **barhayotligi**, yurib turganimizga sabab, avvalo, yurakning ishlab turishidir. Yurakni asrash uchun ko'plab dori vositalari yaratilyapti. Ammo **shunday** dori kashf qilish kerakki, uning **yurakka** ta'siri boshqa noqulayliklarni keltirib chiqarmasin.

O'zbekiston olimlari yurak xuruji kasalliklariga malham bo'luvchi “Allapinin” degan preparatni kashf etishdi. Uning ixtiro qilinishiga o'n yildan ziyod vaqt ketdi. Yer yuzidagi mutaxassislarning tan olishi, dorini sanoat asosida ishlab chiqarishga ham **undan** kam vaqt sarflanmadi.

O'zbekiston kimyogarlari va kardiologlarining hamkorlikda o'tkazgan tajribalari, tinimsiz izlanishlari natijasida ana shu preparat insoniyatga tuhfa etildi. Kashfiyotchi olimlar ilm-fan sohasidagi yuksak mukofot – Beruniy nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandilar. (Sh.Jabborov)

“Mulohaza uchun so'z rukni” bo'yicha har uchala guruh o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berib, rag'bat kartochkalariga ega bo'lishadi. Bu orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash malakalari shakllantiriladi:

1. Tibbiyot sohasida xizmat qilgan buyuk bobokalonimiz nomini ayting.

2. Ibn Sino haqida nimalarni bilasiz?

3. Inson organizmida yurakning o'rni va faoliyati qanday darajada deb o'ylaysiz?

4. Bugungi kunda tibbiyot xodimlar faoliyatini qanday baholaysiz?

Matn tinglab bo'lingach, uni qay darajada o'zlashtirganliklari PISA testlari yordamida baholanadi (testlar slayd orqali namoyish etiladi):

1. Inson organizmida miya faoliyatiga mos kelmaydigan javobni belgilang.

A) fikrlash

B) **hech bir mubolag'asiz hayot, ramziga muqoyasa qilish**

D) borliqni anglash

2. Yurak xuruji kasalligiga malham bo'luvchi preparat nomi?

A)



B)



D)



3. Qaysi inson a'zosi tiriklik va yashash a'zosi sanaladi?

A) miya

B) jigar

D) **yurak**

4. Matnda berilmagan fikr qaysi qatorda keltirilgan?

A) "Allapinin" preparatini kashf qilishga olimlar o'n yildan ziyod vaqt sarfladilar.

B) Olimlar Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofoti sohibi bo'ldilar.

D) **O'zbek va jahon olimlari tomonidan "Allapinin" preparati yaratildi.**

Lug'at ishi "BINGO" usulida izohlanadi. Qaysi guruh birinchi bajarsa, o'sha guruh taqdirlanadi.

TUSHUNCHA	Izohi
	Dori-darmon
Kardiolog	
	Hujum, hamla
Malham	
	Qiyoslash, solishtirish

Talaffuz qulayligiga intilish maqsadida tovush o'zgarishi hodisalaridan foydalaniladi. Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashi fonetik hodisalar sanaladi. Fonetik hodisalar unilarga ham, undoshlarga ham birdek taalluqli bo'ladi.

Tilimizda quyidagi kabi tovush ortirilishi hodisalari uchraydi. Bular yozuvda aks etadigan tovush ortirilishi hodisalaridir:

– bu, shu+ga, -da, -dan → bunga, shundan (n tovushi) – mavzu+ -ing → mavzuying (y tovushi)

Ba'zi tovush ortirilishi hodisalari faqat talaffuzda sodir bo'ladi:

– orzu, insho kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda y tovushi qo'shib aytiladi, lekin yozilmaydi (orzuyim emas, orzum);

– yonma-yon kelgan unililar orasida ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi. Masalan: materi-  
al, tabiat, biologiya, maishat, teatr, aeroport ...

**Fonetik hodisalar 3 xil**

tovush  
ortish

tovush  
tushish

tovush  
almashish

So'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida tovush ortishi

Sifat yasalishi:	Ot yasalishi:	Fe'l yasalishi:
achi + q = achchiq	jiz + a = jizza	ega + la = egalla
isi + q = issiq	chuv + os = chuv- vos	
sasi + q = sassiq	var + ak = varrak	
fan + iy = fanniyy	g'ur + ak = g'urrak	
his + iy = hissiyy		
tib + iy = tibbiyy		
shar + os = shar- ros		

Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida tovush ortishi

Egalik qo'shimchalari ta'sirida	Egalik va kelishik qo'shimchalari ta'sirida
parvo + im = parvoyim	u + ga = unga
obro' + ing = obro'ying	shu + dan = shundan
mavqe + imiz = mavqey- imiz	bu + day = bunday
mavzu + ingiz = mavzuyin- giz	o'sha + aqa = o'shanaqa
avzo + im = avzoyim	u + im = unim
	bu + im = bunim

Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida tovush ortishi:

Yemoq, demoq fe'llariga majhul nisbat va birgalik nisbat shakllari hamda harakat nomi shakli qo'shilganda so'z asosida til o'rta, jarangli, sirg'aluvchi undosh (y) ortadi va shunday yoziladi:

yemoq + il = yeyilmoq  
demoq + il = deyilmoq  
yemoq + ish = yeyishmoq  
demoq + ish = deyishmoq

Talaffuzda tovush ortishi:

So'zlarda unililar yonma-yon kelganda ular orasida talaffuzda y tovushi ortgan holda aytiladi, lekin shunday yozilmaydi.

Keng unidan keyin tovush ortishi:

said > sayid, shoir > shoyir, doim > doyim

Tor unidan keyin tovush ortishi:

tabiat > tabiyat, shariat > shariyat, shior > shiyor

**78-mashq.** "O'zbekni mashhur qilgan "Allapinin" matnidan fonetik hodisaga uchragan so'zlarni quyidagi jadvalga joylashtiring. Unga ko'ra tovush o'zgarishlari ikki guruhga ajratiladi:



Fonetik hodisalar	
Yozuvda	Talaffuzda
<i>o'ri</i> ( <i>o'rin+i</i> ) <i>tovush tushishi</i> <i>angla</i> ( <i>ong+la</i> ) <i>tovush almashishi</i> <i>sana</i> ( <i>son+a</i> ) <i>tovush almashishi</i> <i>shunday</i> ( <i>shu+n+day</i> ) <i>tovush ortishi</i> <i>tirikligi</i> ( <i>tiriklik+i</i> ) <i>tovush almashishi</i> <i>yurakka</i> ( <i>yurak+ga</i> ) <i>tovush almashishi</i> <i>yasha</i> ( <i>yosh+a</i> ) <i>tovush almashishi</i> <i>ata</i> ( <i>ot+a</i> ) <i>tovush almashishi</i> <i>shunday</i> ( <i>shu+day</i> ) <i>tovush ortishi</i> <i>undan</i> ( <i>u+dan</i> ) <i>tovush ortishi</i> <i>barhayotligi</i> ( <i>barhayotlik+i</i> ) <i>tovush almashishi</i>	<i>organizm</i> ( <i>arganizm</i> ) – <i>tovush almashish</i> <i>mumkin</i> ( <i>mumkun</i> ) – <i>tovush almashish</i>

**79-mashqda** berilgan so'zlar quyidagi jadvalga joylashtiriladi. Bunda bizga **“Mening sayyoram”** usuli qo'l keladi. O'quvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan jadvallar tushirilgan tarqatmalar tarqatiladi. Guruhlar o'zlariga tegishli bo'lgan so'zlarni sayyoralariga qo'yib chiqadi. Bizda tovush ortishi, tovush tushishi va tovush almashishi deb nomlangan uchta sayyora bor.

**“Kimyogarlar”, “Kashfiyotchilar”, “Farmatsevtlar”** “adashgan” so'zlarga o'z sayyoralarini topishda yordam berishlari kerak.

**Berilgan so'zlar:** *parvoyim, shundan, seniki, meni, ko'ngli, sanoq, ishlov, mavqeyi, shahrimiz, varag'i, pasaymoq, obro'yim, o'quvchi, qishlog'ingiz.*

<b>“Kashfiyotchilar” guruhi</b>	<b>“Shifokorlar” guruhi</b>	<b>“Farmatsevtlar” guruhi</b>
<b>Tovush ortishi</b>	<b>Tovush almashishi</b>	<b>Tovush tushishi</b>
<i>parvoyim</i> <i>shundan</i> <i>pasaymoq</i> <i>obro'yim</i> <i>mavqeyi</i>	<i>sanoq</i> <i>ishlov</i> <i>varag'i</i> <i>o'quvchi</i> <i>qishlog'ingiz</i>	<i>seniki</i> <i>seniki</i> <i>ko'ngli</i> <i>shahrimiz</i>

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun tezkor savol-javob o'tkaziladi:

- O'zbek tilida qaysi tovushlar fonetik hodisaga uchraydi? (*Unli va undosh tovushlar*)
- Fonetik hodisalar necha xil bo'ladi? (*Uch xil*)
- Qaysi tovushlar yonma-yon kelsa bitta y tovushi ortadi? (*parvoyim*)
- Qanday so'zlarda y tovushi ortiriladi, ammo yozilmaydi? (*Shoir, tabiat, ...*)
- Organizm, mumkin* so'zlari qanday fonetik hodisaga uchragan? (*Tovush almashishi*)
- Qaysi kelishik qo'shimchasi *u, bu, shu, o'sha* olmoshlariga qo'shilsa *n* tovushi ortadi? (*-da, -dan, -ga*)
- Men, sen* olmoshlariga qaysi kelishik qo'shimchalar qo'shilsa, *n* tovushi tushadi? (*Qaratqich va tushum kelishigi*)

lar qo'shilsa, *n* tovushi tushadi? (*Qaratqich va tushum kelishigi*)

8. O'zbek tilida qaysi unlilar yonma-yon keladi? (*io, ia, ai, ea, ae*)

9. Tovush ortishi hodisasi sodir bo'lgan so'zlarga misollar ayting. (*obro'yim, fanniy, issiq*)

#### V. Baholash va rag'batlantirish.

Gruhlarning dars davomida to'plagan ballari hisoblanib, g'olib guruh e'lon qilinadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar va g'olib guruh rag'batlantiriladi. Barcha o'quvchilar ishtirokiga ko'ra baholanadi.

#### VI. Uyga vazifa.

**80-mashq.** *ia, io, ai, oi, ea* kabi yonma-yon keladigan unlilar ishtirok etgan o'nta so'z yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.



**Feruzaxon YO'LDOSHEVA,**  
Andijon viloyati Shahrixon tumani 54-umumiy  
o'рта ta'lim maktabining  
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## TUROB TO'LANING “DO'NAN” ASARINI O'RGANISH

(6-sinf, I chorak)

### Darsning maqsadi:

**a) ta'limiy maqsad:** o'quvchilarning T.To'la hayoti va ijodi haqidagi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash;

**b) tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni tabiat bilan bog'lash, do'stlik tuyg'usini ulug'lash, mahalliy urf-odatlarini o'rgatish;

**d) rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning ijodkorligini oshirish, nutqini o'stirish.

**Darsda foydalanilgan uslublar:** “O'yla, top”, “Aqliy hujum”, “Voqealar zanjiri”, “Izohli test”.

**Dars jihozi:** asar matni, adib surati, proyektor, slaydlar, kompyuter, test, nazorat savollari, kartochkalar.

**Dars shakli:** kichik guruhlarda ishlash, musobaqa.

### Darsning borishi:

#### I. Tashkiliy qism:

a) o'quvchilar va o'quv xonasining darsga tayyorligini tekshirish;

b) sinfxonasida mavzuga mos muhit yaratish; tabiat, uloq, ot tasvirini sinf taxtasiga ilish. Turob To'la rasmi yoniga Muhammad Yusufning “Oq tulpor” she'ridan parcha yozish.

*Oq tulporim bor edi,*

*Beklar unga zor edi,*

*Ot demasman, u menga*

*Ham do'st-u ham yor edi.*

#### II. O'tilgan mavzu yuzasidan takrorlash.

O'tilgan mavzu – Turob To'laning hayoti va ijodi bo'yicha o'quvchilar olgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish uchun sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadi (“Bilimdonlar”, “Donolar”, “Zukkolar”). Guruhlarga “O'yla, top” usuli orqali topshiriq beriladi.

**O'qituvchi:** Aziz bilimdon-u dono, zukkolarim, men hozir sizga slayd orqali kichik matn namoyish qilaman. Siz bu matndan T.To'la ijodiga mos so'zlarni topib, bu so'zlar ifodalagan asarlar janrini oldingizdagi qog'ozga yozishingiz kerak.

“Men she'rlar o'qisam, shodligim ichimga sig'may, yuzimga tabassum yuguradi. Baxt tong otarida meni muborakbod etib osmonda jilolangan kamalak nafosati meni lol qoldirib, o'zim ham she'r yozgim keladi.

Quvonchimni o'rtoqlashish uchun oftob nayzada bo'lsa ham momo yer uzra ko'chalar bo'ylab chopaman. Nogahon qarshimdan dugonam Nodirabegim chiqadi”.

O'tgan darsni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar guruhida quyidagi jadval hosil bo'ladi:

T/r	Asar nomi	Asar janri	Nashr yili
1.	“She'rlar”	Dastlabki to'plam	1939-yil
2.	“Shodligim”	She'riy to'plam	1941-yil
3.	“Tabassum”	She'riy to'plam	1944-yil
4.	“Baxt tongotari”	She'riy to'plam	1948-yil
5.	“Muborakbod”	She'riy to'plam	1949-yil
6.	“Kamalak”	Adabiy portret va xotiralar kitobi	1972-yil
7.	“Nafosat”	Adabiy portret va xotiralar kitobi	1977-yil
8.	“Oftob nayzada”	She'riy to'plam	1974-yil
9.	“Momo yer”	Pyesa	
10.	“Ko'chalar”	She'r	
11.	“Nodirabegim”	Pyesa	

Topshiriqning to'liq va to'g'ri bajarilishi tekshirilib, rag'bat va jarima kartochkalari beriladi. Guruhlarga “Aqliy hujum” usulida T.To'la hayoti yuzasidan tezkor savollar beriladi va javoblar kartochka orqali baholanaadi.

#### III. Yangi mavzu bayoni.

Dastlab “Yetti zog'ora qissasi” asari va “Do'nana” hikoyasi haqida slaydlar orqali ma'lumot beriladi.

**O'qituvchi:** Serqirra ijodiy faoliyat sohibi Turob To'la yosh o'quvchi do'stlariga, ya'ni siz-u bizga 1981-yilda “Yetti zog'ora qissasi” nomli nasriy asarni sovg'a qildi. Asarning o'ziga xosligi shundaki, unda bir necha janrlarda yaratilgan katta-kichik hikoyalar yagona mavzu atrofida birlashtirilgan. Ular orasida yozuvchining o'z bolaligi bilan bog'liq hikoyalar, rivoyat, afsona va ertaklar bor.

Asardagi voqealarni bir-biriga mazmunan bog'lab turuvchi qahramonlar hikoyanavis buva – Baxshilla maxsum va uning hayotiga qiziquvchi nabirasi Toshtemirdir. Toshtemirning iltimosi bilan Baxshilla maxsum bolaligida boshidan o'tgan Do'nana haqidagi voqeani so'zlab beradi.

O'qituvchi shu o'rinda Do'nan so'zining ma'nosini izohli lug'at orqali tushuntirib beradi.

Do'nan – to'rt yoshli ot, uch yoshga qadam qo'ygan echki yoki qo'y.

O'qituvchi voqealar zanjiri asosida “Do'nan” hikoyasi mazmunini so'zlab, bu asarda Do'nan ot ekanini o'quvchilarga tushuntirib beradi.



**O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, bu asar inson va tabiatning bir-biriga chambarchas bog'liq ekani, inson va hayvonot olami yaratilishida bir-biriga muhtoj ekani, ot va inson o'rtasidagi do'stlik ayrim insonlar orasida ham uchramasligi haqidadir. Buni Matansoydagi ilon voqeasi va unga javob bolaning otni izlab yo'lga tushishi lavhalaridan bilsa bo'ladi.

O'qituvchi asar mazmunini so'zlash jarayonida asar qahramonlarini aks ettiruvchi suratlardan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bolada ko'rgan narsasini eslab qolish qobiliyati yuqori bo'lib, voqea hech qachon esidan chiqmaydi. Vaqtni hisobga olgan holda asar matnini audio holatda eshittirish yoki darslikdan ifodali o'qib berish mumkin.


**O'qituvchi:** Mana birgalikda asar bilan tanishib chiqdik. Keling, endi musiqali tanaffus e'lon qilamiz. 3 daqiqa davomida musiqa tinglab, dam olamiz. Musiqa tinglash jarayonida siz o'zingizni “Do'nan” hikoyasining bosh qahramoni deb tasavvur qilasiz va voqealarni ko'z oldingizda jonlantirasiz.

Asar voqealariga mos 3 daqiqali musiqa tanlanadi. O'quvchilar shu daqiqalar ichida topshiriqni bajarish davomida musiqa tinglash va uni asar voqealariga bog'lay olish malakasini oshiradi.

Musiqa tugagach, o'quvchilar asardan olgan taassurotlarini so'zlab berishadi.

**O'qituvchi:** Azizlarim, asar voqealarining jonli ishtirokchisiga aylandik. Hozir belgilangan “Bilimdonlar” guruhi ot, “Donolar” guruhi Baxshilla, “Zukkolar” guruhi esa mahalliy odatlar haqida asardan foydalangan holda hikoya qilib beradi.

Bu topshiriqda o'quvchilar kitobdan kerakli chizgilarini topib o'qib beradi.



**“Bilimdonlar”:** Oyoqlarining to'pig'ida olasi bor edi, peshanasida – qashqasi. Ko'zlari katta-katta, kiyiknikiga o'xshagan chiroyli.

**“Donolar”:** Hech ovqat tilamay qo'ydi tabiatim, ishtaham bo'g'ilib qoldi, uch kunda qiltiriq bo'lib qoldim.

**“Zukkolar”:** Qishlog'imizda g'alati odat ham bor edi, izzat-ikromli mehmon hovliga kirishi bilan ko'ziga tushgan narsangni maqtab qolsa, ketar payti, u nima bo'lishidan qat'i nazar, berib yuborilardi!

Guruhlar ishi baholanadi.

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Bu bosqichda PISA – xalqaro tadqiqot talabiga ko'ra “Izohli test” topshirig'i beriladi. Har bir test javobi o'quvchilar tomonidan qisqa, tushunarli, aniq qilib yozilishi kerak. Bu usul o'quvchilarning asarni qanday tushungani va qanday xulosa chiqarganini oz fursat ichida to'liq o'rganish imkonini beradi.

1. “Mana do'st, bolam, mana o'rtoq” deganda nima nazarda tutilgan?

\_\_\_\_\_

2. Asar qahramoniga eng yaqin obrazlar:

Ot – \_\_\_\_\_

Ona – \_\_\_\_\_

Ota – \_\_\_\_\_

3. Bo'lgan voqeaga kim aybdor?

Akasi – \_\_\_\_\_

Otasi – \_\_\_\_\_

Onasi – \_\_\_\_\_

4. Asarda bosh aybdor kim? \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

#### V. Baholash va rag'batlantirish.

G'olib guruh e'lon qilinadi. O'quvchilarning darsga ishtiroki baholanadi.

#### VI. Uyga vazifa.

“Ot – insonning do'sti” mavzusida insho yozish.

Dars so'ngida M.Yusufning “Oq tulporim” qo'shig'i eshittiriladi.



Nilufar ZARIPOVA,

Xorazm viloyati Urganch shahridagi 19-sonli  
ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## ONA TILI DARSLARIDA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISH USULLARI

Diktant – eshitib idrok qilingan soʻz, gap, matnни yozish boʻlib, oʻquvchilarning yozma nutqini oʻstirishda, savodxonligini oshirishda taʼlimiy diktant turlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Oʻquvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi va bu jarayonda fonetik, leksik va grammatik bilimlariga tayanadi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bogʻliq boʻladi. Demak, savodli diktant yozish uchun, oʻz navbatida, grammatik qoidalarni ham bilish zaruriyati yuzaga keladi.

Taʼlimiy diktantlar tashkil etilish va bajarilish usuliga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Taʼkidiy diktant.
2. Oʻz diktanti yoki yoddan yozish diktanti.
3. Izohli diktant.
4. Saylanma diktant.
5. Erkin diktant.
6. Rasmi diktant.
7. Lugʻat diktant.
8. Ijodiy diktant.

Bular orasida saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn maʼlum oʻzgarishlar bilan yozilishiga yoʻl qoʻyiladi.

**1. Taʼkidiy diktant**dan qoidani amaliyotga tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi. Matnни yozishdan oldin izohli yozuvdagi kabi oʻquvchilar soʻzning qanday yozilishi va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar, nimalarga eʼtibor berilishi kerakligi taʼkidlanadi. Shuning uchun ham mazkur ish turi taʼkidiy diktant deyiladi. Taʼkidiy diktant uchun matnни faqat diktant kitoblaridan emas, balki ona tili darsligidan ham olish mumkin. Chunki taʼkidiy diktant oʻtkazishdan bir necha kun oldin oʻquvchilarga yozdiriladigan matnни oʻqib kelish topshiriladi. Bundan maqsad oʻquvchilarning oʻrgangan imlo qoidalarni mustahkamlash, undan amalda foydalanish koʻnikmasini hosil qilish hisoblanadi. Taʼkidiy diktantda matnни bayon qilishdan oldin imlo qoidalarni eslash, izohlash lozim. Masalan, soʻroq yoki undov belgilarining qoʻllanish oʻrinlarini eslatish uchun oʻqituvchi quyidagicha savollar berishi mumkin:

- Qaysi vaqtlarda soʻroq belgisi ishlatiladi?
- Undov belgisi qay holatda qoʻyiladi?
- Qaysi vaqtda bu belgilar tushirib qoldiriladi?

Savollarga berilgan javoblar oʻqituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

**2. Oʻz diktanti** yoki yozuvda oʻrganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan soʻzlar boʻlgan matnни oʻquvchilar oʻzlari oʻqib yodlaydilar (koʻrib idrok qiladilar) yoki oʻqituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar, keyin oʻzlari

mustaqil yozadilar. Bunda matnни avval doskaga yozib berish ham mumkin. Oʻquvchilarga oʻrganishlari uchun maʼlum vaqt ajratilgandan soʻng diktant matnни berkitiladi. Yana bir usuli bir kun oldin oʻquvchilarga ona tili darsligidagi maʼlum bir matnни oʻrganib kelish topshiriladi. Ular yodlaganlari asosida yozib boʻlganlaridan soʻng matn ochiladi. Oʻquvchilar yozganlarini doskadagiga yoki kitobiga taqqoslab tekshiradilar va xatosini tuzatadilar. Diktant oʻtkazish usulidan koʻrinib turibdiki, matn aytib yozdirilmaydi, balki oʻquvchilar matnни yodlaydilar va mustaqil yozadilar. Shuning uchun ham u oʻz diktanti yoki yoddan yozish diktanti deyiladi.

Oʻz diktanti imloga oid maʼlumotlarni singdirish, oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqlarini oʻstirish, xotiralarini mustahkamlashga yordam beradi.

**3. Izohli diktant** oʻquvchilar qobiliyatiga qarab ikki xil shaklda oʻtkaziladi. Oʻquvchi, odatda, oʻqituvchining koʻrsatmasi bilan maʼlum soʻzning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. Soʻzning yozilishini boʻgʻin-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, “Kitob – bilim manbasi” – “Kitob: ki-tob. Ikki boʻgʻin. Birinchi boʻgʻinida k, i; ikkinchi boʻgʻinida t, o, b tovushlari bor. Oxirgi b tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda b yoki p tovushini ifodalovchi hafning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun soʻz oxiriga i tovushini qoʻshamiz va aytamiz: **kitobi**. **B** tovushi yozilar ekan” kabi izohlanadi. Bu diktantda oʻquvchilar grammatik qoidalarga oid soʻzlarning tagiga chizadilar.

**4. Saylanma diktant**da oʻquvchilar topshiriq shartiga koʻra matndagi soʻz, soʻz shakllari, soʻz birikmalari yoki gaplarni ajratib olib yozib boradilar. Diktantning bu turi fonetika, soʻz yasalishi, imlo va grammatikaga oid qoidalar oʻrgatilgandan soʻng mavzularni mustahkamlash yoki oʻquvchilar bilimini sinab koʻrish maqsadida oʻtkaziladi. Saylanma diktantda oʻquvchilar qaysi mavzuga oid soʻzlar (soʻz shakllari, soʻz birikmalari yoki gaplar)ni ajratib olib yozishlari kerakligi batafsil tushuntiriladi, soʻng matn oʻqib beriladi, oʻquvchilar matn tarkibidagi kerakli soʻzlar, soʻz birikmalarini ajratib olib yozadilar. Diktantdan keyin oʻquvchilar yozganlarini navbat bilan oʻqiydilar va sinfdan umumiy muhokama qilinadi. Buning natijasida oʻquvchilarda lingvistik kompetensiya elementlarining shakllanganligi aniqlanadi. Masalan, sifat soʻz turkumi oʻtib boʻlingach, oʻqituvchi mavzuga taalluqli gaplar berilgan mashqni toʻliq oʻqiydi, oʻquvchilar esa shu mashqdan faqat sifat turkumiga oid soʻzlarni daftarlariga yozadilar.

**5. Erkin diktantda** o'quvchilarga mazmunni buzmay, gap tuzilishini o'zgartirish, bir so'zni unga yaqin ma'noli so'z bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3–5 qismli matn tanlanadi. O'qituvchi avval matn bir marta ifodali o'qib beradi, so'ng matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Ayrim qoidalar eslatiladi. Keyin matnning bir qismi qayta o'qib beriladi, o'quvchilar uning mazmunini yozadilar. Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi barobarida o'quvchilar nutqini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**6. Rasmi diktant** predmet rasmi yoki uning o'zini ko'rsatib o'tkaziladi: predmet rasmi ko'rsatiladi, o'quvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qo'yadilar, ish shunday davom etadi. Bunda birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko'ra yozilishi eslatiladi. Rasmi diktantda o'rganilgan grammatik qoida, ayniqsa, o'quvchilar davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko'zda tutiladi.

**7. Lug'at diktant** ko'p vaqt olmasligi, ixchamligi bilan diktantning boshqa turlaridan farq qiladi. Shuning uchun har bir mavzu o'tib bo'lingach, yangi mavzuni mustahkamlash uchun bunday diktant turidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Deyarli har bir mavzu (bo'lim) o'tib bo'lingach, lug'at diktant olish mumkin. Lug'at diktant uchun darsning 7–10 daqiqasini ajratish kifoya. Lug'at diktant o'quvchilarga so'zlarning qanday yozilishi, so'zning ma'nosini o'rgatadi.

**8. Ijodiy diktant** o'quvchilar nutqini o'stirish, imloviy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, o'quvchini diktant matni asosida ijodiy fikr yuritish talab etiladigan nutq mahsulini yaratishga undaydi, mustaqil ishlash ko'nikmasini o'stiradi, uning faolligini oshiradi. Ijodiy diktantning bir ko'rinishi berilgan so'zlar asosida gaplar tuzish yoki matn yaratishdir.

Masalan, o'quvchilarga quyidagi qo'shma so'zlar beriladi: *qo'lqop, gultojixo'roz, Yangiariq, Yangiyo'l, tinchlik-sevar, kungaboqar, mehnatsevar, oybolta*. O'quvchilar bu so'zlar yordamida gaplar tuzadilar, kichik hikoya yozadilar. Ayrim vaqtlarda a va o unillarining imlosini mustahkamlash uchun o'qituvchi *ozod, tamom, obod, basketbol* kabi so'zlarni yozadi va shu so'zlar yordamida erkin insho yozishni topshiradi.

Ijodiy diktant turlaridan foydalangan holda yozma savodxonlikni oshirish borasida yaxshi natijalarga erishish mumkin. Masalan, o'quvchilarga o'rgatilgan orfogrammalar tavsiya qilinadi va ulardan shu orfogrammalar ishtirok etgan gap tuzish talab etiladi. O'quvchilar tavsiya etilgan orfogrammalar yordamida tuzgan gaplarini o'qib beradi, orfogrammalar tagiga chizadi va orfogrammaning nima uchun shunday yozilayotganligini tushuntiradi. O'qituvchi o'quvchilar tuzgan gaplarning eng yaxshilarini ta'kidlab, boshqa o'quvchilarga ham bu gaplarni yozishni tavsiya etadi. Gap tarkibidagi so'zlarga bog'lanib kelishi mumkin bo'lgan so'zlarni qo'shib, gaplarni kengaytirish talab etiladi. Shuningdek, fonetika oid misol keltiradigan bo'lsak, masalan: ng harf birikmasi va n oldidan bir unli harf qo'yib, uchtdan so'z hosil qilish va ular ishtirokida gaplar tuzish hamda hosil bo'lgan so'zlar oldiga bir undosh qo'shib, boshqa so'zlar hosil qilish vazifasi topshirilishi mumkin.

Namuna:

...ng, ...ng, ...ng, ...n, ...n, ...n.

Tong, bong, ong, men, sen, tun.

Xullas, o'quvchilarning imlo qoidalariga mos ravishda, husnixat talablariga rioya qilgan holda o'z fikrini to'liq va ravon yozma bayon qila olishiga erishish ona tili fani o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan diktant turlaridan keng foydalanish yaxshi natijaga tez va oson erishish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Ziyodullayeva, M.Mamadiyeva, Sh.Toshmirzayeva. Ona tilidan nazorat ishlari va uni baholash mezonlari. Diktantlar to'plami. 5–11-sinflar uchun. – Toshkent: Yangi nashr, 2018.
2. B.Qo'ldoshev. Yozma ishlarni o'tkazish va baholash metodikasi (ma'ruza matni). – Andijon, 2006.
3. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.

**Jumagul ISAQOVA,**

*Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi 18-maktabning  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

## BADIIY ASARNI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISHNING O'QUVCHILAR RUHIYATIGA TA'SIRI

Ta'lim bosqichlarida adabiy asarni badiiy-estetik tahlilga tortish o'ziga xos talqinni yaratishdir. Chinakam badiiy tahlil bo'lmagan joyda badiiy matn o'quvchining tuyg'ulariga ta'sir etmaydi, ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qilmaydi.

Jamiyat a'zolarining biror ilmiy haqiqatni bilmay qolishi jamiyat uchun ham, shaxsning o'zi uchun ham jiddiy yo'qotish bo'lmagan holda, biror ma'naviy qadriyatni, axloqiy sifatni o'zlashtirmagan fojiga olib kelishi mum-

kin. O'rta maktablarda ta'lim olayotgan har bir o'quvchi Pifagor teoremasini yoxud suvning kimyoviy tarkibi nima iborat ekanligini tutilmay aytib bera oladi. Ta'lim tizimida bu ma'lumotni o'zlashtirish muhim hisoblanadi. Biroq mazkur haqiqatni bilish o'quvchi ma'naviyatiga, qalbiga deyarli daxl qilmaydi. Pifagor teoremasini bilganda ham, bilmaganda ham kishining, uni o'rab turgan olamning mohiyati o'zgarishsiz qolaveradi. Lekin hazrat Navoiyning:

*Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas,*

tarzida boshlanadigan g'azali bilan tanishgan, uning badiiy jozibas va mantiqiy qudratidan xabardor bo'lgan odam olamni, hayot va insonni boshqacha his qila boshlaydi. Adabiyot darslarida asarni o'rganish bilan bog'liq jihatlarini, asosan, badiiy tahlil shaklida tashkillashtirish lozim. Natijada o'quvchining badiiy adabiyotga qiziqishi va muhabbati kundalik ma'naviy ehtiyojga aylanadi, chunki nafasatga intilgan qalbdan hamisha ezgu-niyatlar yashaydi, yovuzlik ortga chekinadi.

Tahlil so'zi arabcha so'z bo'lib, "halolash", "eritib yuborish", "murakkab butunni qismlarga ajratish" ma'nolarini anglatadi. Shunga ko'ra badiiy tahlilning genetik, tipologik, funksional, falsafiy, filologik va psixologik singari olti yo'nalishi mavjud. Badiiy asarning psixologik tahlili o'quvchilarda asar mohiyatini anglashga xizmat qiladigan miqdordagi badiiy bilim va ko'nikmalar shakllantirish orqali ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan jamoa shaklidagi estetik-pedagogik faoliyatdir. Badiiy asar inson ruhiyati manzarasi bo'lgani bois, o'quvchilarni eng qabariq, eng ta'sirchan tuyg'ular bilan yuzma-yuz qiladi. Shu tariqa o'quvchi o'zga odamlarning ruhiyatiga oshno bo'ladi. O'quvchilar har bir asar qahramonini o'z saviyasiga ko'ra psixologik tahlil qilishi mumkin. Bunga oddiy ertak yoki hikoyadan romangacha bo'lgan janrlar kirib ketadi. Quyidagi uchlik badiiy asar qahramonlarining psixologik tahlilini o'rganishda juda ham qo'l keladi:

1. Qahramon ichki dunyosining psixologik (ichki kechinmalarini anglash, tushunish) tahlilida qahramonning ichki kechinmalari uning nutqi, xotirasi, xayoli, tasavvuri, taassuroti yordamida izohlanadi.

2. Badiiy nutq ta'sirchanligini oshirish, ifodali o'qish, tashqi nutq (monolog, dialog va frazeologik birliklar) asosida kechadi.

3. Qahramonning ruhiy holatini ichki va tashqi nutq ta'sirida turli qiyofalanishi (mimika, kulish, yig'lash).

Berilgan uch unurni adabiyot darsliklarida berilgan asar qahramonlari orqali izohlashga harakat qilamiz. Masalan, 10-sinf darsligida Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasidagi Saodat xolaning alamli kunlari uning xotiralari orqali ko'rsatib berilgan.

Kampir bomdod nomozini o'qiyotib, har sajdaga bosh qo'yganda joynomozga ko'zyoshlari tomardi. U joynomoz burchagini qayirib, eriga atab Qur'on tilovat qiladi. Baxti chopmagan Qumriga bag'ishlab, shu farishtaganing yo'lini och, deb Allohga iltijolar qiladi. G'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmaydi.

Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganida of-tob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: "Bo'ri bolalayapti", degandi. Shuning uchun ham o'g'liga u Bo'rixon deb ism qo'ygandi. Oradan ellik bir yil o'tib, bu bolani men emas, bo'ri tuqqan ekan, degan xayolga bordi.

Frazeologik birliklar ham badiiy asarda qahramon nutqining ta'sirchanligini oshirib, ijodkorning

so'z tanlashdagi yuksak mahoratini ko'rsatib beradi. Bu esa asarning yanada jonli chiqishi uchun xizmat qiladi. Bunga 9-sinf adabiyot darsligida berilgan Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasidagi Alomatning quyidagi so'zlarini misol qilishimiz mumkin.

– *Yig'laysiz... yig'laysiz... Chunki juda ezilgansiz... Yuragingizga qil sig'maydi... Ich-ichingizdan bir nima toshib kelyapti... Hech kimning rahmi kelmaydi, birovdardingizga sherik ham bo'lmaydi... O'z yog'ingizga o'zingiz qovrilib yashayapsiz... Aft-angoringizga bir qararang, qirqqa kirgan qirchillama yigitsiz-u, ko'rgan odam sizni ellikka kirgan deb o'ylaydi. Qurib-qaqshab boryapsiz. Esingizni tanibsizki, tinmay mehnat qilasiz, lekin hech biringiz ikki bo'lmaydi.*

Alomat Qo'chqorning ichki holatini ochib berishda uchta frazeologik birlikdan foydalangan. Bular: yuragingizga qil sig'maydi, o'z yog'ingizga o'zingiz qovrilib, biringiz ikki bo'lmaydi. Bu kabi iboralar badiiy adabiyotda deyarli barcha asarlarda uchraydi.

Qahramonning ruhiy holati ichki va tashqi nutq ta'sirida turlicha qiyofalanishi (mimika, kulish, yig'lash) ham juda ko'p badiiy asarlarda ishlatib kelinmoqda. O'quvchi qahramonlarni jonli odamlar, o'z taqdiriga xos insoniy tabiatga ega tirik kishilar tarzida qabul etishiga erishish kerak. Shundagina, bu qahramonlar his qilgan tuyg'ular o'quvchilarga ham yuqadi, kulganda kulib, yig'laganda yig'lashga majbur qiladi. Hammamiz bir necha marotaba mutolaa qilgan G'afur G'ulomning "Shum bola" asari qahramoni sho'x, o'yinqaroq, yolg'onchi. Mana shu fe'l-atvori bilan u o'quvchini kulishga majbur qiladi, quyidagi parcha orqali bunga guvoh bo'lamiz:

*O'sha kuni men ko'rinmay yurdim. Ertasiga boy meni qidirib, chalpak qilib ko'tartirib olib keldi. Avval qurtakkina qilib yigirma qamchini bosh-ko'z aralash yedik. So'ngra so'radi:*

– *Hoy itdan tuqqan, bu qilg'ing nimasi?*

– *Axir, boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay xo'jayin, har zamonda bir yolg'on gapiraman, deb.*

– *Bu o'sha yolg'onningmi?*

– *Lekin hammasi emas edi.*

– *Agar hammasi bo'lmasa, butun yolg'on qilsang, men xonavayron bo'lar ekanman-da, tur-ey, pada-ringga la'nat seni, qorning oshga to'ymasin, juvonmarg bo'! Haydang bu kazzobni!*

Xullas, adabiyotni, adabiy asarni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad mukammal tahlil vositasidagina o'zining oliy yechimini topa oladi. Badiiy tahlil tamoyillariga tayanib ish ko'rgan o'qituvchi dars jarayonida badiiy matn mavzusi va mazmunini so'zlab berish, undan ijtimoiy nasihat ufurib turgan xulosa chiqarish bilangina cheklanib qolmasdan, o'z o'quvchilari bilan yuzma-yuz muloqotda bo'ladi, ularni badiiy asar tahliliga to'g'ri yo'naltiradi. Ana shundagina ular Navoiy dahosining buyukligi, Bobur shaxsining dilbarligi, Mashrab ruhiyatining sarkashligi, Qodiriy tafakkurining qudrati va jozibasini ruhan va qalban his qiladilar, bu buyuk so'z san'atkorlarini abadiyatga daxldor etgan badiiy-estetik latofatini chuqur ilg'aydilar va badiiy asar mohiyatini anglab yetadilar. O'z navbatida esa yuksak badiiy didga, barkamol ma'naviyatga ega bo'ladilar.

E'tibor YAXSHIYEVA,

Chilonzor tumanidagi 200-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

(ot va fe'l so'z turkumlari mavzulari misolida)

O'zbek tili ta'limini yanada takomillashtirish, bu jayrayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishish bugunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Bu muammoni hal qilishda ko'plab mutaxassis ustozlarimiz o'z hissalarini qo'shishmoqda. Darslarni tashkil qilishda yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilyapti va amaliyotda qo'llanyapti.

Shuningdek, bugun biz davr talabi bilan hamnafas holda o'quvchilarimizni xalqaro darajadagi testlar: PISA, PIRLS hamda TIMSS bosqichli testlarga tayyorlar ekanmiz, ularga til ta'limidagi nafaqat grammatikaga oid bilimlarni, balki o'z ona tillarida mantiqiy, ijodiy fikrlash darajalarini o'stirishni ham oldimizga maqsad qilib qo'yishimiz lozim.

Ushbu metodik tavsiyada umumiy o'rta ta'lim maktablarda ona tili fanlarini o'qitishda turli metod va usullar, PISA testlari va QR kodlardan foydalanishning afzalliklari haqida gap boradi.

6-sinf o'quvchilariga ona tili fanidan fe'l va ot so'z turkumlarini o'rgatishda quyidagi metodik tavsiyalardan foydalanish mumkin. Berilgan tavsiyalar o'quvchilarda nutqiy malakaning 4 shakli: tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozib tushunish va gapirib tushunish malakalarini shakllantirishda katta yordam beradi va o'quvchilarning darslarda faolligini oshirishga, dars sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

### Fe'l so'z turkumini o'rganish yuzasidan metodik tavsiyalar

1. An'anaviy "Tarmoqlash" metodi. Fe'l so'z turkumini o'rganishda ham ushbu metoddan quyidagicha foydalanishimiz mumkin.

**Topshiriq.** Fe'l so'z turkumi yuzasidan o'zingiz muhim deb bilgan 10 ta ma'lumotni yozing.

**Natija:** "Tarmoqlash" metodi har bir mavzu haqida o'quvchilarning fikrlarini jamlab va umumlashtirib olishlari uchun yordam beradi.

1. "Ikki qismlik kundalik" metodi.

**Topshiriq.** Ikki qismlik kundalikning bir qismiga fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar berilgan. Siz ikkinchi qismiga berilgan so'zlarni fe'lning ma'noviy guruhlari bo'yicha tasniflab chiqishingiz kerak bo'ladi.

Kundalikning 1-qismi


Kundalikning 2-qismi

Yugurmoq, yozmoq, osmoq, aya ko'rma, ux-ladi, oldirdi, qulatdi, bila-di, parvarishladi, ishlatdi, aytildi, keltirilgan, pishirdi, uchdi, o'qidi

**Natija:** "Ikki qismlik kundalik" metodidan foydalanib o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini ishga tushirishimiz mumkin. Har bir o'quvchi bir olam hisoblanadi. Har birida qandaydir qobiliyat bor. O'qituvchilarning vazifasi esa o'quvchidagi ustun taraflarni aniqlash va rivojlantirishga yordam berishdir. Ushbu metod o'quvchilarni fikrlashga undaydi.

3. "Sinkveyn texnologiyasi" metodi.

**Topshiriq.** Fe'l so'z turkumiga oid berilgan so'zlarni dastlab nisbatini, keyin ketma-ketlikda fe'lning vazifa shakli bo'yicha turi; fe'lning munosabat shakli bo'yicha zamoni, shaxs-soni, mayli; ma'no turini aniqlab tahlil qiling.<sup>1</sup>



**Natija:** "Sinkveyn texnologiyasi". Ushbu texnologiya o'quvchilarning mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlashda yordam beradi.

3. "Xotira mashqi" metodini qo'llashda QR kodlardan foydalanamiz.

## Topshiriq.



**Xotira mashqi. O'tkan kunlar romanidan olingan videoni ko'ring. Videodagi suhbatda ishtirok etayotgan fe'llarni aniqlang va tahlil qiling.**


*Natija:* Bugun darslarda QR kodlardan foydalanishimiz uchun barcha sharoitlar yetarli. Rivojlangan zamonimizda har bir o'quvchida telefon apparati bor va undan foydalanish malakasi hammamizda yetarli. QR kodlardan darslarda foydalanadigan bo'lsak o'quvchilarga darsga telefon olib kelishlari tayinlanadi. Har bir o'quvchi telefoniga QR kodni skaner qila oladigan programmani o'rnatgan bo'lishi kerak. Shu orqali kodga joylangan ma'lumotni tinglashi yoki ko'rish mumkin. QR kodga audio, video topshiriqlar berish orqali o'quvchilarning eshitish va ko'rish orqali mavzuni o'zlashtirish malakasi shakllantiriladi.

### Ot so'z turkumini o'rganish yuzasidan metodik tavsiyalar

1. "Kungaboqar" texnologiyasi. Ushbu texnologiyadan foydalanishda o'quvchilar guruhlariga bo'lindi. Har bir guruhga ot so'z turkumidagi bitta so'z tahlil uchun beriladi (Masalan, osoyishtalik so'zi). O'quvchilar berilgan so'zni quyidagi ot tahlili namunasida berilganidek tahlil qilishlari va har bir tahlillarini aylana atrofiga yopishtirib kungaboqar gulini hosil qilishlari kerak bo'ladi.<sup>2</sup>

*Ot tahlili namunasi:*

- 1) so'rog'i aniqlanadi;
- 2) ma'no turi (atoqli va turdosh otlar, turdosh otlarning turlari);
- 3) birlik yoki ko'pligi (soni);
- 4) kelishigi;
- 5) egalik qo'shimchasi bo'lsa, uning shaxs-soni aniqlanadi;
- 6) kichraytirish, erkalash, hurmatlash ma'nolari bo'lsa, aniqlanadi;
- 7) tuzilish turi;
- 8) tub yoki yasamaligi;
- 9) gapdagi vazifasi.



*Natija:* "Kungaboqar" texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi va o'qituvchi har bir o'quvchining bilimini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda o'quvchilardagi o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasiga asosan o'zini o'zi har tomonlama rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish kompetensiyalari; kommunikativ kompetensiyaga asosan muomala madaniyatiga amal qilish, jamoada faol ishlay olish kompetensiyalari shakllanadi.

*Grammatik tahliliy diktant.* Bu diktant turi nazorat diktantlari olish jarayonida deyarli qo'llanilmaydi.

Aysberg

"Aysberg" so'zi o'zbek tilida "muz tog'i" degan ma'noni anglatadi. Haqiqatan ham, Yerning qutbiy doiralarida vujudga kelgan muzliklarning uzilib dengizga qulab tushgan chekka qismlari katta muz tog'larini eslatadi. Muzlikning uchi ma'lum vaqtgacha dengizning ustida osilib turadi. Uni suv qalqishlari, dengiz oqimlari va shamollari yemiradi. Nihoyat, u bo'linib, shaloplab suvga qulaydi. Aysberg chayqalib, ulkan massasining katta qismini suv ostiga yashirgan holda shamol va oqim kuchiga bo'ysinib, uzoq safarga yo'l oladi. Yo'lda asta-sekin eriydi va shu tufayli u ba'zan to'ntariladi.<sup>3</sup>

Uzunligi 1–2 kilometrli, kengligi yarim kilometrli mayda va uzunligi bir necha o'n kilometr, balandligi esa yuz metrdan oshadigan yirik aysberglar bor.

Aysberglar vatani – Afrika va Antarktida muzliklari.

Okeanda aysberg'larga duch kelish juda xavfli, chunki suv ostidagi qismi ko'rinmaydi. 1912-yilda yo'lovchi-sayohatchilarni tashiydigan ulkan "Titanik" kemasi Atlantika okeanida bora turib, tumanda aysbergga urilgan va g'arq bo'lgan. Bu XX asr boshida dengizda sodir bo'lgan eng katta fojia hisoblanadi.

*Savollar:*

1. Matnda ishtirok etgan otlarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.

2. Matnda ishtirok etgan otga xos grammatik shakllarni guruhlariga ajratib yozing.

*Natija:* Grammatik tahliliy diktant o'quvchilarning fanga oid kompetensiyaga asosan eshitib tushunish va fikrlash, nutq o'sishi kabi malakalarini shakllantiradi.

2. "Topqirlar ishi". Ushbu usulda o'quvchilarga quyidagicha topshiriq berishimiz mumkin.

**Topshiriq.** Taqdimotda berilgan Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasini eshitish va matnda ishtirok etgan ot so'z turkumiga oid so'zlarni belgilang.

O'quvchilarning qay darajada mavzuni o'rganganliklarini aniqlash hamda o'rganganlarini mustahkamlash uchun o'qituvchi tomonidan Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasidan parcha eshittiriladi. O'quvchilarga audio eshittirilishidan oldin matnning qog'oz varianti ham tarqatiladi. O'quvchilar eshitish va kuzatish bilan



bir qatorda matndagi ot so'z turkumiga oid so'zlarning tagiga chizib borishadi.

*Abdulla Qodiriy "Uloqda" hikoyasidan parcha*

Kecha dadamdan so'rag'anim uchun bu kun akam ham: «Kerak emas, bormal!» degan so'zini qilmadi. Choyni naridan beri ichib, otxonag'a yugurdim. Orqamdan: «Oyog'ing olti, qo'ling yetti bo'lub qoldi-a!» deb dadam bilan oyim kulishub qolishdilar. Qashlog'ichni oldim-da, qora qashqamni qashlay boshladim. Jonivor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydir, yer tepinadir, dum silkitadir. Shuning ila manim ko'nglimg'a: «Xudo xohlasa, kelar yilga biror uloqlar chopayki, hamma mani «Turg'un chavandoz» deb yurutsonlar, degan tilaklar tushadir.

Endi toycham juda ham gijinglar, xuddi to'ralarniki-dak bo'lib ketkan edi. U yoq-bu yog'ini tozalab, ustunga qantariq qo'ydim. Endi qoldi: oq jujuncha kamzulni, o'ruscha shimni, amirkon etukni, duxoba to'ppini ki-yish... Ana shundan keyin otqa minsak, chin to'racha bo'lamiz.

Xizmatchidan otni olub mindim. To'nimning etaklari-ni yig'ishtirub, bir-iki berib edim, qashqacham shatoloq otub ketdi. Xizmatchining: «Xab barakalla, chavandoz!» degan so'zini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, qashqacham tushkur ko'tarib ketayozdi.



Uloqda

*Natija: Grammatik tahliliy diktant o'quvchilarning fanga oid bo'lgan eshitib tushunish va fikrlash malakalarini shakllantiradi.*

3. "Blits so'rov" metodi ham ot so'z turkumini o'rgatishda ancha samarali metod hisoblanadi. Ushbu metoddan foydalanishda quyidagicha topshiriq berish mumkin:

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Saparboyev I. Ona tili va adabiyoti fani bo'yicha o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish yuzasidan yo'riqnoma. – Toshkent, 2014.
2. Turg'unov S.T, Daniyarov B.X, Umaraliyeva M.A, Shodmonova Sh.S, Turg'unova Sh.M, Tojiboyeva H.M. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Sano-standart, 2012.
3. <http://uzedu.uz/>
4. Ona tili, 5-sinf o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020.
5. Ona tili, 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Tasvir, 2017.
6. Hasanboev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
7. Matchanov S. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2021.
8. Gulomov A. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. 69-bet.
9. Gulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

#### Savollar

Otning so'roqlarini yozing.

Nimani atab kelishiga ko'ra ot turlarini yozing.

Mavhum otlarga misollar yozing.

Ot yasovchi qo'shimchalarni yozing.

Sodda, qo'shma, juft va takroriy otlarga misollar yozing.

Atoqli otlarning turlarini misollari bilan yozing.

Turdosh otlarning turlarini misollari bilan yozing.

#### Javoblar

*Natija: "Blits so'rov" metodi o'quvchining o'z fikrini amaliy ifodalashiga yordam beradi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasiga asosan, mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga asosan o'z fikrini erkin bayon qilish kabi malakalar shakllanadi.*

Bugungi kun o'quvchilarini har tomonlama mukammal shaxs etib tarbiyalashda zamonaviy, noan'anaviy davlat ta'lim standartlari andozasiga javob bera oladigan sifatli va samarali darslarni tashkil etishimiz lozim. Ana shu natijaga erishish uchun biz yuqorida ko'rsatgan innovatsion metod va texnologiyalar o'z samarasini beradi degan umiddamiz. Yuqorida berilgan tavsiyalardan foydalanish natijasida o'quvchilarda o'tilgan mavzu yuzasidan DTS da belgilangan bilim, ko'nikma va malaka shakllanadi va ularda dars jarayoniga qiziqish uyg'onadi. Ya'ni dars sifati yaxshilanishiga erishiladi. Eng muhimi, boshqalarning fikrini ma'qullaydigan emas, balki o'z mustaqil fikriga ega, dunyoqarashi keng, ma'naviyatli barkamol avlod katta hayot ostonasiga qadam qo'yadi.





G'anisher JO'RAYEV,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

"Ingliz tili fonetikasi" kafedrası o'qıtuvchisi

## TILSHUNOSLIKDA TIL VA MADANIYAT MUNOSABATI

Ma'lumki, til va madaniyatning o'zaro munosabati tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu borada dastlabki fikrlar mashhur nemis tilshunosi Vilgelm Gumboldt tadqiqotlarida keltirilgan. Unda til va tafakkur munosabatlari o'rganish jarayonida til va madaniyat aloqasi borasida dastlabki fundamental nazariy fikrlar bayoni keltirilgan.

Shuningdek, Gumboldt tadqiqotlari davomchisi hisoblangan rus tilshunosi A.A.Potebnya ham o'zining ilmiy tadqiqotlarida tilni millat ruhiyati bilan bog'laydi.

Tilshunoslikda til va madaniyat aloqadorligi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunoslar E.Sepir va B.Uorf esa Gumboldt fikrlaridan farqlanuvchi, lingvistik nisbiylik deb ataluvchi ta'limotni olg'a suradilar. Mazkur ta'limot umumiy tilshunoslikda Sepir-Uorf gipotezasi deb ataladi. Bu gipotezada quyidagi ikkita konsepsiya alohida ko'rsatib o'tiladi:

1. Til o'sha tilda gapiruvchi xalq tafakkurida o'z aksini topadi;

2. Real borliqni anglash esa subyekt qaysi tilda fikr yuritishiga bog'liq.

Biz xuddi shunday fikrlarni tilshunos L.Veysgerberning ilmiy tadqiqotlarida ham kuzatishimiz mumkin. Uning fikricha, til ruhiy hayotning barcha jabhalari da asosiy qurol sifatida ishtirok etadi.

Sepir-Uorf nazariyasi tahlil qilinar ekan, ko'pgina tilshunoslar, jumladan, B.A.Serebrennikov, R.M.Frumkina, T.V.Kolshanskiy, D.Dodd va E.Xollenshteyn kabi olimlar ushbu ta'limotga salbiy baho beradilar.

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat munosabati xususida gapirilganda quyidagi fikrlar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi:

– avloddan avlodga meros bo'lib qoluvchi til madaniyatning ajralmas qismidir;

– til madaniyatni o'zlashtirishda xizmat qiluvchi asosiy vositadir;

– til eng muhim voqeliklardan biri bo'lib, u orqali madaniyatning barcha jabhalari, shu jumladan, fan, din, adabiyotga oid hodisalarni o'rganish mumkin.

Shu sababli madaniyatni aynan til vositasidagina tushunish va anglash ancha oson kechadi. Bundan ko'rinadiki, til madaniyatning ajralmas qismi va asosiy quroli bo'lib, u millat mentalitetining milliy xususiyatlarini ifodalaydi. Til bir vaqtning o'zida ham madaniyat mahsuli, ham madaniyat shakllanishining muhim omilidir. Til va madaniyat orasidagi munosabat qism va butunlik orasidagi munosabat sifatida qaralishi mumkin, ya'ni til madaniyat bo'lagi va madaniyat quroli sifatida qabul qilinishi, ayni paytda, madaniyat bilan munosabatda

avtonom bo'lib, mustaqil semiotik tizim sifatida an'ana-viy tilshunoslikda o'rganilishi mumkin.

Har bir millat vakili bir vaqtning o'zida ham til, ham madaniyatga ega bo'lib, til birliklari madaniyat belgilari funksiyasini bajara olishi va madaniyatning asosiy xususiyatlari to'g'risida fikr yuritishda birlamchi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham til ma'lum millatning madaniy milliy mentalitetini ifodalaydi.

Har bir millat vakili o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi nemislarning o'ta punktualligi, intizomi, inglizlarning konservativligi, sharqiy osiyoliklar, jumladan, yaponlarning o'ziga xos axloq me'yorlariga ega ekanligi bilan izohlanishi mumkin.

Barcha tillarda bo'lgani kabi ingliz va o'zbek tillarida ham millat madaniyati til birliklari va frazeologik birliklarida o'z aksini topadi. Misol uchun ushbu tillarda ishlatiladigan murojaat so'zlarini keltirish mumkin. Inglizlar suhbatida *sir*, *mister*, *gentleman*, *lady*, *miss* va *missis* kabi so'zlar yoki kishining yoshidan qat'i nazar uning ismi bilan chaqirilishi mumkin bo'lsa, o'zbek tili nutqida ko'proq kishi ismidan keyin *aka*, *opa*, *amaki*, *tog'a*, *kelinoyi* yoki *bobo* kabi so'zlar ishlatilib, notanish kishilar bilan suhbatda esa ushbu keltirilgan so'zlardan tashqari *uka*, *singil*, *o'g'lim*, *qizim*, *bolam* kabi so'zlar qo'llaniladi. Ma'lumki, madaniyat tildagi frazeologizmlarda oddiy so'zlardagidan ko'ra ko'proq namoyon bo'ladi. Misol sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi hudud va kishi nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarni keltirish mumkin. Masalan, ingliz tilida foydasiz ishga nisbatan "Carry coals to Newcastle" (Nyukasl – Angliyaning ko'mir sanoati markazi), ayyorlikni ifodalashda "Come Yorkshire over" (Yorkshir aholisi o'z ayyorligi bilan Angliyada mashhur) frazeologik birliklari hudud nomi bilan bog'liq bo'lsa, juda ilgari paytda bo'lgan voqeaga nisbatan ishlatiladigan "When queen Anne was alive" kabi iboralar kishi nomlari bilan bog'liq bo'lib ingliz madaniyatini o'zida aks ettiradi.

O'zbek tilidagi frazeologizmlarda ham shu kabi holat kuzatiladi. Misol uchun, "Bog'dodda hammayoq tinch", "So'rab-so'rab Makkani topibdi", "Xo'ja ko'rsinga", "Alixo'ja – Xo'jaali", "Alpomishdek yigit, Barchinoydek go'zal" kabi frazeologik birliklar o'zida o'zbek madaniyatini aks ettirishini ko'rish mumkin.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, har bir millat o'z tili va madaniyatiga ega bo'lib, madaniyat tildagi turli til birliklari (leksemalar, frazeologik birliklar)da o'z aksini topadi. Bu esa til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini tasdiqlaydi, boshqacha qilib aytganda, ularga biri boshqasini to'ldirib turuvchi omil sifatida qarash mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Потебня А.А. Мысль и язык. – Киев, 1993.
2. Соссуур Ф. Курс общей лингвистики. – Москва, 1997.
3. www: <https://cyberleninka.ru>, 2016.


**Safo MATCHONOV,**
*Chirchiq davlat pedagogika instituti professori;*
**Nilufar Oymatova,**
*Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

## ALISHER NAVOIYNING KOMIL INSON TARBIIYASIGA OID QARASHLARIGA BIR NAZAR

Inson ma'naviy kamoloti barcha zamonlarda ham yuksak aql egalariining diqqat markazida bo'lgan. Shunisi xarakterliki, har bir davr unga o'z munosabatini bildiradi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Ibn Sinoning "Solomon va Absol", Mahmud Koshg'ariyning "Devonlug'otit-turk", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning Husayn Boyqaroning o'g'li Abdulmuhsin Mirzoga bag'ishlab yozgan "Axloqi Muhsiniy", "Futuvvatnomai Sultoni" asarlari buning yorqin dalilidir. Mazmun-mohiyatiga ko'ra ularning har birini ijtimoiy odoblar qomusi deb baholash mumkin. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy o'z ijodiyotida komil inson tarbiyasi bilan bog'liq ta'limiy-axloqiy muammoni tiriklikning tub mohiyati sifatida talqin etishi bejiz emas. Akademik V.Zohidov o'rinli qayd qilganidek, "Navoiy ijodining, amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo'nalish nuqtasi har narsadan oldin inson taqdiri, baxt-u saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir"<sup>1</sup>.

Alisher Navoiyning butun umri davomidagi inson tabiati va ma'naviyatiga oid kuzatishlari, axloqiy-ta'limiy xulosalari "Xamsa", "Nazmul javohir", "Munojot", "Vaqfiya", "Majolisun nafois", "Arba'in" kabi asarlarida kitobxon ko'z o'ngidan uzluksiz bir tizim sifatida o'tadi.

Buyuk shoir "Mahbub ul-qulub" asarida o'z kuzatishlari xususida quyidagilarni yozadi: "Har ko'cha-ko'yda yuribman va olam ahlidin har xil kishilarga o'zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tatib ko'rdim. Goh postkash va baxil kishilar qoshida xo'rlandim va razil-nokaslar oldida e'tiborsiz bo'ldim. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, kaminaning bu tajribasi yoshlar uchun yetarlidir"<sup>2</sup>.

Alisher Navoiy ma'naviy-axloqiy qarashlarida insoniylik sha'nini belgilovchi xislatlardan biri insof va diyonat deb ko'rsatadi. "Lison ut-tayr" asarida insofsiz kishini odam emas deb e'lon qiladi.

*Odamg'a yaxshi ko'p avsof erur,  
Lek alarning ashrofi insof erur.  
Kimgakim insof yo'q – inson emas,  
Munsiz atvorida juz nuqson emas.*

Alisher Navoiy mazkur asarida kishilarni "munosib kishilar", "nomunosib kishilar" tarzida ikki guruhga ajratarkan, "nomunosib kishilar" dan ehtiyotkorlikka chaqiradi.

Husayn Voiz Koshifiyning axloq-odob yuzasidan keltirgan quyidagi ta'rif-tavsiflari ham Alisher Navoiy

fikrlariga hamohangdir. "Go'zal xulq-atvor, yaxshi xulq nishonasi o'ntadir: yaxshilik qilish, insofli bo'lish, boshqa odamdan ayb qidirmaslik, nojo'ya harakat qilayotganni to'g'ri yo'lga boshlash, aybiga iqror bo'lganning uzrini qabul qilish, boshqalar mashaqqatini zimmaga olish, faqat o'z manfaatini ko'zlamaslik, ochiq yuzli va shirin so'zli bo'lish, muhtojlar hojatini chiqarish, muloyim va tavoze'li bo'lish".

Professor S.Nishonovanning fikricha, Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo'lgan chin insoniy fazilatlar ijodkorlik, o'zlikni anglashga kuchli ishtiyok, ilm-fanga muhabbat kabi xislatlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki baxtli hayotga intilgan ijodkor, oqil, qobiliyatli har bir kishi o'zining kuch-quvvati va aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning inson tafakkuri, ma'naviy kamolotida tutgan o'rni va roli xususida so'z yuritar ekan, ilmni qorong'ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi<sup>3</sup>. Ilm olib unga amal qilmagan kishini urug' sochib hosilidan bahra olmagan kishiga o'xshatadi. Yomg'irning bir tomchisi tuproqqa jon baxsh etgani kabi, insonga ham nasl-nasabi, boyligi emas, hayosi, ilm-u odobi shon-sharaf keltirishini qayta-qayta ta'kidlaydi. O'zining ta'limiy-axloqiy g'oyalarini ilm bilan bog'liqlikda deb tushungan shoir "Nazmul javohir" asarida shunday deb yozadi:

*Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,  
Gar bazm tuzar behishti mutlaq de oni.  
Har kimsaki yo'q ilm anga ahmaq de oni,  
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni.*

Buyuk shoirning fikricha, ilmli, oqil kishi har qanday mashaqqatni yengib o'tadi, o'z maqsadi yo'lida to'siqlardan cho'chimaydi. Ilmning vazifasi insonning baxt-saodatiga xizmat qilishdir. Ammo ilm o'rganmoq boylik orttirish uchun emas, imon-e'tiqodni mustahkamlash uchundir. Bu borada ustozlikni dunyoda eng murakkab, ammo xayrli, sharfli kasb degan xulosaga keladi:

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila  
Aylamak bo'lmas ado aning haqin yuz ganj ila.*

Agar shogird vaqti kelib shoh bo'lsa-da, ustozni oldida qarzdordir.

Ilm ezgu amallar, jamiki fazilatlar manbahi sifatida har bir kishining insoniy burchiga aylanadi. Shu tufayli o'zlikni anglash, komillik odobini egallash xalq baxt-saodati, farovon turmush kechirishi, vatan ravnaqi yo'lida kamarbasta bo'lishdek ezgu maqsadga qaratiladi.

Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlarida ilm-ma'rifatli bo'lish bilan birga, sabr, tavoze, adab, saxiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, mehr-muruvvat, vafo, karam, yumshoq ko'ngillik bo'lish kabi chin insoniy fazilatlar targ'iboti ham alohida o'rin tutadi. Mazkur xislatlarni ta'rif-tavsiflashdan tashqari munofiqlik, zulmkorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik, besabriqlik kabi ularning ziddi bo'lgan illatlardan qutulishga ham da'vat etadi. Shoir yozadi:

*Uch fe'l kishiga erur qotil,  
Qotillik aro zahri haloxil oxir.  
Bu xil angla birin, birin havo bil oxir,  
Qil ujbni ham alarga doxil oxir.*

Yoshlarni yuksak axloq-odoblar ruhida tarbiyalash xususida so'z yuritar ekan, quyidagilarni qayd etadi: "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakatidan umrbod bahramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'nglida abadiy qoladi". Ko'rinadiki, Navoiy ta'rifida odob jamiki insoniy fazilatlar boshida turadi. Buyuk shoir nazdida qanoat baayni buloqdir. Uning suvini olgan bilan qurimaydi; baayni xazinadir – naqdini sochgan bilan kamaymaydi; ekinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasini beradi; daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi. Sabr achchiqdir, ammo foyda berguvchi; qattiqdir, ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kaliti va bandlar ochqichidir. Saxiylik insoniylikning haqiqiy mezonidir, odamlarning mushkulini oson qiladi. Yaxshilik, karam bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'ta qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Kimki bu xislatlarni egallasa, cheksiz izzat va hurmatga sazovor bo'ladi.

Alisher Navoiy nazdida komillik va kamolot inson erishishi lozim bo'lgan eng yuksak cho'qqi hisoblanadi.

Ma'lumki, "kamol", "akmal", "komil" so'zlari arab tilida bir o'zakdan hosil bo'lgan o'zakdosh so'zlar hisoblanadi.

Alisher Navoiyning biror bir asari yo'qki, unda shoir komillikni targ'ib qilmagan bo'lsin. Birgina "Xamsa"dek buyuk asarida ham bosh qahramonlarning barchasini ana shu komil insoniy sifatlar bilan bezadi.

Hatto, "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandarday hukmdorni ham toj-u taxtga o'ch bo'lmagan, boylik qiziqitirmaydigan shoh sifatida ifodaladi. Shunisi e'tiborliki, boshqa xamsanavislarning asarlarida Iskandar, asosan, zolim shoh sifatida tasvirlanadi.

Navoiy kamolot yo'li oson emasligini yaxshi biladi. Bu yo'lni tanlaganlar hayotda har doim ham osongina maqsadlariga erisha olishmaydi. Ammo bu yo'l qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, alaloqibat farah baxsh etadi. Oddiygina:

*Odamiy ersang demagil odami,  
Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami<sup>4</sup>,*

degan mashhur baytlarida ham odamiylik fazilati faqat o'zini o'ylagan insonlarda emas, balki eli, xalqi, yaqinlari dardi bilan ham yona oladigan, yurti uchun fidoyi, atrofda qilarga ezguliklar ulasha oladigan insonlarda bo'lishiga e'tibor qaratadi. Yoki:

*Bu gulshan ichra yo'qdur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot,  
baytida ham bu hayotda boqiy yashaydigan narsaning o'zi yo'q, shuning uchun g'animat umrni faqat yaxshilik bilan bezamoq – eng to'g'ri yo'l, deb izohlaydi.*

Xulosa qilganda, ulug' mutafakkirning komillik borasidagi qarashlari o'zining teran gumanizmi va mukammal badiiyati bilan asrlar osha komil inson tarbiyasiga beminnat xizmat qilib kelmoqda.

<sup>1</sup> V.Zohidov. Ulug' shoir ijodining qalbi. – Toshkent: O'zbekiston, 1970. 152-bet.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1990. 155-bet.

<sup>3</sup> Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqol, 2003. 195-bet.

**Xurshida NORXO'JAYEVA,**  
Qarshi davlat universiteti dotsenti

## RASMIY MULOQOT KOMMUNIKATIV ALOQA VOSITASI SIFATIDA

Muloqot inson ijtimoiy faolligining asosiy shakllaridan biri bo'lib, shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning eng muhim turi hisoblanadi. Bu munosabatlar esa, avvalo, maqsadlar va qadriyatlarga hamda ular yo'naltirilgan narsalarga ham bog'liq bo'lib, ularsiz mavjudlik va shaxsiy o'sishni tasavvur qilish juda qiyin. O'z navbatida, maqsadlar va qadriyatlarni tanlash, ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir subyektlariga bog'liq.

Muloqot deganda aloqa, fikr almashinish, so'zlashish jarayonida bevosita va bilvosita qatnashadigan tarkibiy qismlar nazarda tutiladi. Jamiyatda muloqotning turli xil ta'rif va tushunchalari mavjud bo'lib, mulo-

qotni turlicha tushunish mumkin. Muloqot bu inson aqliy faoliyatining bir turi va atrofda dunyo bilan inson munosabatlari tizimidir.

Inson tug'ilgan paytidanoq muloqot doirasiga kiradi. U dastlab chaqaloqlik davridan boshlab onasi va boshqa kattalar bilan muloqot qiladi, asta-sekin tengdoshlar bilan muloqoti yuzaga keladi. Insonning ijtimoiy rivojlantirish jarayonida esa uning ahamiyati kattalar bilan o'zaro munosabatlarning ahamiyatidan kam emas.

Muloqotning xilma-xil turlari, usullari, shakllari va me'yorlari mavjudki, ularning bir-biridagi farqlanganligi inson hayoti bag'oyat ko'p ko'rinishlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

“Muloqot – kommunikantlarning darak, so‘roq yoki buyruq shaklidagi fikr almashishi. Tilning mavjudligi insonlarning so‘zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog‘liq. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o‘rinda gap) asl ma‘nosidan tashqari tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va‘da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladi. Bu so‘zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasi. Demak, nutqiy akt so‘zlovchining ma‘lum muhitda, aniq maqsadda yig‘ilgan tinglovchiga lisoniy murojaatidir”<sup>1</sup>. Bu murojaatni, o‘z navbatida, quyidagi ko‘rinishda berish mumkin:

Maqsadning tabiati va xususiyatiga ko‘ra so‘zlovchi mavjud lisoniy birliklarni nutqiy vaziyat va ishtirokchilarning, aniqrog‘i, tinglovchilarning holati, kayfiyati bilan bog‘liq ravishda qayta ishlov beradi – tanlaydi, ma‘lum bir ma‘no baxsh etadi.

Muloqotning lisoniy vositasi, lisoniy ishoralar, lisoniy birliklar, boshqacha aytganda, fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi yoki gap emas, hatto ishora ham so‘z va gapdagi shunchaki shartli belgilar ham emas, balki lisoniy birlik va munosabatlarning nutq jarayonida ishlayotgan ko‘rinishidir. Aniqrog‘i, gap yaratilishiga asos bo‘luvchi ishora (til birliklari)ning muayyan nutqiy sharoit, vaziyatga moslashtirilishi va qo‘llanishi natijasida nutqiy akt vujudga keladi, har bir nutqiy akt – muloqotning eng kichik tashkil etuvchi birligi hisoblanadi.

Ma‘lumki, har qanday muloqotda so‘zlovchi va tinglovchi komponentlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bu muammoga bag‘ishlangan ko‘pgina adabiyotlarda so‘zlovchi, ya‘ni xabar beruvchi, gapiruvchi adresant kommunikator, adresantning nutqi qaratilgan shaxs tinglovchi, adresat kommunikant deb ataladi. Muloqotda bevosita ishtirok etuvchi omillar esa ta‘sir birliklari sifatida yuritiladi.

Muloqot – inson hayotining sharti, ham insonning asosiy ehtiyojlaridan biri. O‘z o‘rnida muloqot nutqiy muloqot tarzida ham qo‘llaniladi. Nutqiy muloqotning esa me‘yor va qoidalarini ishlab chiqishga bo‘lgan urinishlarda faqat lisoniy vositalarni to‘g‘ri qo‘llashgina emas, balki kommunikativ holatning xarakteriga ham e‘tibor berish nazarda tutiladi.

Biror kishining muloqoti o‘rniga ko‘ra ikkita asosiy turni ajratish mumkin: rasmiy muhitda va norasmiy muhitda.

Norasmiy muhitda norasmiy muloqot shakllari yuzaga keladi. Bu muloqot shaklida yaqin inson bilan uchrashuv, ko‘chada begona inson bilan zarurat yuzasidan suhbat, oila a‘zolari bilan norasmiy tarzda yuzaga keladigan muloqot jarayonini nazarda tutishimiz mumkin. Bunda ahamiyatli tomoni kim bilan norasmiy tarzda gaplashishimiz: bir kishi bilanmi yoki ko‘p kishi bilan. Bir kishi: ota, ona, aka, uka, singil, do‘st, yor, notanish kimsa bilan zarurat yuzasidan bo‘ladigan muloqot bir kishi o‘rtasidagi muloqot bo‘ladi. Ko‘p kishi bilan bo‘ladigan muloqotda bir necha kishi bilan: dugonalar, hamkasblar, jamoa a‘zolari, turli insonlar, kursdoshlar, maktabdoshlar...

Muloqot qoidalari bizda taklif etilmagan. Lekin amerikalik tadqiqotchi S.Ervin-Tripp tomonidan nutqiy muloqotning quyidagi qoidalari taklif qilingan:

1. Lisoniy vositalarni tanlash qoidasi: a) barcha ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy bo‘lgan; b) turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar uchun maxsus bo‘lgan. Misol: murojaat shaklini tanlash, ushbu tanlovdagi milliy va ijtimoiy farqlar.

2. Riyoa qilish qoidasi, ya‘ni kommunikatsiyada nutqiy harakatlar ketma-ketligiga riyoa qilish: salomlashish, minnatdorchiilik, xayrlashish va h.k. Mazkur qoidalar doirasida xayrlashish, taklif qilish, telefonga chaqirish, kommunikativ aloqani yo‘lga qo‘yish formulalari ko‘rib chiqiladi.

3. Birgalik qoidasi. Bunda bir kontekstda u yoki bu leksik, fonetik, intonatsion, sintaktik va h.k. birliklar va xususiyatlarning birlashish qoidasi nazarda tutiladi.

Rasmiy muloqot bu – rasmiy muhitda bo‘ladigan muloqot shakli. Rasmiy muloqotning yana bir nomi rolga asoslangan. Ya‘ni ikki kishining o‘zaro munosabatlari va xulq-atvor axloqini tartibga soluvchi jamiyatdagi o‘ziga xos rol hisobga olinadi. Har bir individual shaxs o‘sgan jamiyatning o‘ziga xos izi, hozirgi paytda uning sharoitlari va unga berilgan vakolatlarga ega. U suhbatdoshiga nisbatan ba‘zi bir rollarni bajaradi va o‘ziga nisbatan munosib munosabatni talab qiladigan pozitsiyani egallaydi. Shuning uchun biz rasmiy aloqa turi hamma uchun belgilangan rollar doirasida amalga oshiriladi deb ayta olamiz.

Rasmiy muloqot – guruhlar va jamoalarda ijtimoiy tarzda belgilangan muayyan qoidalar, jumladan, odob-qoidalariga asoslanuvchi va muayyan darajada inson shaxsiyatining jiddiy ta‘siriz sodir bo‘ladigan muloqot.

Rasmiy muloqot – barcha darajadagi institutlashtirilgan tuzilmalar doirasida sodir bo‘ladigan, umumiy g‘oyalar, kasbga va ishlab chiqarishga doir hamda boshqa xil manfaatlar o‘zaro birlashtirgan odamlarning ish yuzasidan o‘zaro muloqoti bo‘lib, ruhiy va ma‘naviy jihatdan, shaxsiyatsiz muloqotga nisbatan kattaroq ochiqlikni nazarda tutadi.

Muloqot turlari, o‘z navbatida, xilma-xil ohanglarga ega bo‘lib, hurmat-ehtiro, iltifot, takalluf, nazokat, e‘tirof, lutf, shirinsuxanlik, mehr-muruvvat, samimiylik va hokazo tushunchalar orqali ifoda etiladi. Ushbu tushunchalarning barchasi esa muloyimlik tushunchasiga asoslangan. Asosan, rasmiy muloqotlarda hissiyot aks etadi. Masalan, rasmiy muloqot bayram yoki tadbirdagi muloqot akti bo‘lsa, u asosan, hissiy muloqotga asoslanadi. Bu rasmiy muloqotda, o‘z navbatida, qo‘llanuvchi nutqiy etiket birliklari ishtirok etadi. Rasmiy muloqotda nutqiy etiket birliklarini nafaqat kundalik hayotda aks etadigan nutqiy aktlar, balki rasmiy nutq, diplomatik suhbatlar misolida ham tahlil qilish ayni vaqtdagi integratsiya va globallashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi. Rasmiy nutqning ko‘lami juda keng, tadqiqot doirasi esa serqirra. Misol tariqasida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi matnini tahlil qilamiz.

Assalomu alaykum, hurmatli deputat va senatorlar!  
Aziz yurtdoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Prezidentimizning “Hurmatli”, “Muhtaram” – ehtiromni bildiruvchi sifat leksema bilan boshlangan bu nutqi pozitiv strategiyani ifodalaydi. Ushbu rasmiy nutqda “Muhtaram” soʻzining sinonimlari “Qadrli”, “Aziz” kabi birliklar ham qoʻllanilishini koʻrishimiz mumkin:

“Qadrli xalq noiblari!

Aziz yurtdoshlar!

Barchangizga maʼlumki, kirib kelayotgan 2021-yilda Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga 30 yil toʻladi. Albatta, bu tarixiy sanani siz, azizlar va butun xalqimiz bilan birgalikda “Yangi Oʻzbekistonda erkin va farovon yashaylik!” degan ezgu gʻoya asosida keng bayram qilamiz”.

“Siz, azizlar va butun xalqimiz bilan birgalikda” jumlasida bilan yaqin munosabatni bildiruvchi, II shaxsga toʻgʻri murojaat qilishda ehtirom bilan birga yaqinlik belgisi ifodalanadi.

Rasmiy nutq soʻngida davlat rahbari quyidagi ti-laklarni qoʻllaganligini koʻrishimiz mumkin: *“Fursatdan*

*foydalanib, sizlarni, sizlar orqali barcha vatandoshlari-mizni kirib kelayotgan yangi – 2021-yil bilan chin qal-bimdan tabriklayman. Yangi yilda barchangizga si-hat-salomatlik, xonadonlaringizga fayz-u baraka, far-zandlar, nabiralarning kamolini koʻrish baxtini tilayman. Doimo sogʻ-omon boʻling, katta rahmat sizlarga”.*

Natijada pozitiv etiket reallashadi. Oʻzbekiston Prezidentining tabrik nutqi quyidagi qismlardan iboratligi kuzatildi:

Ehtiromli murojaat – II shaxsga murojaat – tabrik + tilak.

Uslubi boʻyicha muloqotni quyidagi turlarga ajratish mumkin: shaxssiz muloqot – koʻchada, transport yoki boshqa jamoat joylarida odamlar oʻrtasida boʻlib oʻtadi-gan va shaxsiy-individual munosabatlarni talab qilmay-digan, qisqa muddatli, oʻtkinchi aloqalar.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, muloqot har doim inson hayotning uzviy birligi sifatida yashaydi. Inson bor ekan, muloqot insonning asosiy ehtiyojlaridan biri sifa-tida takomillashib boraveradi. Ushbu jarayonda rasmiy nutqqa xos boʻlgan tabrik matnlarida nutqiy etiket bir-liklarining hurmat-ehtirom kabi shakllari voqelanib bori-shi tabiiy hisoblanadi.

<sup>1</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: OʻzME, 2008. 71-bet.

**Qandilat YUSUPOVA,**

*OʻzMU Xorijiy filologiya fakulteti “Ingliz filologiyasi” kafedrasining  
ingliz tili va adabiyoti fani oʻqituvchisi*

## ERNEST XEMINGUEYNING “YOMGʻIRDA QOLGAN MUSHUK” HIKOYASIDA AYOL PSIXOLOGIYASI

Ernest Xeminguey (1899–1961) ijodidan oʻrin olgan “Yomgʻirda qolgan mushuk” hikoyasi 1925-yili yozuvchining “Bizning zamonlarda” toʻplamida nashr etilgan. Hikoyaning yozilish tarixiga nazar tashlasak, asar yozuvchining “Xemingueyning mushuklari” turkumiga muvofiq yaratilgan. Adib rafiqasi Xedli bilan Parijda bir muddat yashagan chogʻlarida koʻp vaqtini ishda oʻtkazar, Xedli xonim esa uyda koʻpincha yolgʻiz qolardi. Rafiqasi Xemingueydan mushuk olib kelib berishini soʻragan, yozuvchi esa unga ayni paytda ularning mushuk boqishga qurlari yetmasligini tushuntirgandi. 1923-yilda Xeminguey homilador rafiqasi bilan Ezra Poundʻnikiga mehmonga boradi va u yerda toʻsatdan yomgʻir yogʻa boshlaydi. Oʻsha vaqt Xedli xonim kichkina mushuk bolasini topib olib, uni uyga olib ketishni soʻraydi. “Men oʻsha mushukni istayman... Menga mushuk kerak. Hozir istayman. Modomiki, biron ermagim boʻlmas ekan, hech boʻlmasa, bittagina mushukcham boʻlishini istayman”<sup>2</sup>, deydi.

Umuman olganda, Xeminguey ijodida ayollar obrazi muhim ahamiyat kasb etadi. “Alvido, qurol!” romanidagi Ketrin, “Bong kimga chalinayotir?” romanidagi Mariya, “Quyosh baribir chiqaveradi” romanidagi Ledi Brett Eshli, “Borliq va yoʻqlik” romanidagi Mariya obrazlari Xeminguey asarlarining yetakchi personajlaridir. Ular

bosh qahramonlarning asosiy maqsadlariga erishishda katta jonbozlik koʻrsatgan, mashhur romanlariga alohida mazmun-mohiyat, jilo bagʻishlay olgan jonli xarakterlar hisoblanadi.

“Yomgʻirda qolgan mushuk” hikoyasining bosh qahramoni amerikalik ayol ismsiz tarzda tasvirlanadi. Hikoya avvalida biz uni turmush oʻrtogʻi Jorj bilan Italiyadagi mehmonxonaga dam olgani kelganini koʻramiz. Mehmonxona dengizga qarata qurilgan, orqasida bogʻi, roʻparasida esa urush sharafiga katta haykal oʻrnatilgan maydoni bor. Butun hikoya davomida muttasil yomgʻir yogʻib turadi, shunday ekan, yosh juftlik tashqariga chiqolmay, xonalariga qamalib olishga majbur boʻladilar. Amerikalik ayol yogʻayotgan yomgʻirni tomosha qilib turarkan, toʻsatdan bogʻdagi stol ostida yomgʻirdan oʻzini panalagan qunishib oʻtirgan mushukchaga koʻzi tushadi. Birdan ayolning himoyasiz mushukchaga rahmi keladi va uni xonasiga olib chiqishni qattiq istab qoladi. Biroq u tashqariga chiqqanida mushuk qayoqqadir gʻoyib boʻladi, umidi soʻngan ayol mehmonxonaga quruq qoʻl bilan qaytib keladi. Shu yerda biz uning eri bilan kechgan suhbatidan erkakning ayolga nisbatan juda beparvo, anchayin xudbin va boqibegʻam bir kimsa ekanligini koʻramiz. U xotini mushukni olgani tashqariga chiqib

ketayotganida ham yotgan joyidan boshini ko'tarmaydi, quruqqina qilib "Yomg'irda ivib ketma", deb qo'yadi, xolos. Ayolning bu munosabatdan ancha yillardan beri ko'ngli o'ksigan, u o'zini butun umr yolg'iz, e'tibor, mehrga zor his qilib yashagan. U o'sha mushukchani ham qalbini ayovsiz ezayotgan yolg'izlikdan qutqarish uchun istagan, u bilan dard-u g'amlarini biroz bo'lsa-da unutilishni, taskin topishni xohlagan edi. Chunki bundan keyin ham eri unga mehr, e'tibor berishi ancha dargumon edi.

"Jorj hamon karavotda kitob o'qib yotardi.

– Xo'sh, mushukni olib keldingmi? – deb so'radi u kitobdan bosh ko'tarib.

– U ketib qopti.

– Qayoqqa ketadi? – dedi Jorj.

Ayol karavot chetiga omonatgina o'tirdi.

– Uni biram erkalagim keluvdi! – dedi u. – Negaligini o'zim ham bilmayman, lekin bechora mushukni bag'rimga bosib erkalagim keluvdi. Bunaqa yomg'irda boyaqish qiynaladi.

Jorj yana o'qishga tutindi"<sup>3</sup>.

Ayol doimo sochlari uzun bo'lishini, katta dasturxon atrofida bolalari bilan ovqatlanishni qattiq orzu qilgan. Biroq hamisha uning orzulari sarobga aylanib, eri tomonidan ahamiyatsiz qoldirilgan.

– Sochimni o'stirsam nima deysan? – deb so'radi u yana yon tomondan o'zini kuzatar ekan...

Jorj boshini ko'tarib, uning qizaloqlarnikidek kalta sochlari yashirolmagan bo'yniga tikildi.

– Menga shu turishi yoqadi.

– Mening esa jonimga tegib ketdi, – dedi ayol. – O'g'il bolaga o'xshab yurish shunaqayam jonimga tekkanki..."<sup>4</sup>

Ayol hatto mehmonxona xo'jayinining unga ko'rsatgan iltifotidan, har ko'rganida egilib salom berishidan ham xushbaxt bo'ladi, buni chuqur ehtirom deb bilardi, biroq bu e'tiborni u o'z jufti halolidan ko'rmaydi.

"U kunjakdagi nimqorong'i xonaning oldida turardi. U ayolga yoqar edi. Unga shikoyatlarini tinglayotgan mahal o'zini haddan ziyod jiddiy tutishi yoqardi. Uning nuroniy chehrasi yoqar edi. Ko'nglini topishga harakat qilishlarini yaxshi ko'rardi. Mehmonxona xo'jayini degan nomiga sirayam dog' tushirmaslikka intilishi yoqardi. Uning qarimsiq, vazmin yuzi va katta qo'llari yoqar edi"<sup>5</sup>.

Hikoya so'ngida mehmonxona xodimasi yomg'irda ivigan mushukchani er-xotinning xonasiga olib kirib: "Buni sizga xo'jayin berib yubordilar" deganida ayolda janobga bo'lgan hurmat yana ham chuqurlashadi.

"Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan mohir mutarjim Olim Otaxon Xemingueyning hikoyachilikdagi badiiy mahorati, xususan, mehmonxona janobining ayol qalbida mehr uyg'ota olganligini shunday izohlaydi:

"Ziyrak, mulohazakor kitobxonda savol tug'iladiki,

qanday qilib va nima sababdan shunday muhtasham mehmonxonaning yoshi ulug', martabali xo'jayini (hikoyada uni padrone deb atashadi) g'irt notanish ayolning beorom qalbiga yo'l topa oladi – avval u yomg'irda shalabbo bo'lmasligi uchun xizmatkordan soyabon berib yuboradi, keyin amerikalik ayol topolmagan mushukni topib unga yetkazadi. Ehtimol, oq-qorani tanigan, turmush qiyinchiliklari-yu, odamlarni yaxshi bilgani uchun shunday qilishni lozim topgandir; ehtimol, mehmonxonaga kelib ketayotgan son-sanoqsiz mijozlar orasida o'zini doim yolg'iz sezgani uchun amerikalik ayolga hamdard bo'lgisi kelgandir"<sup>6</sup>.

"Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasining yana bir muvaffaqiyati shundaki, o'quvchi unda ortiqcha ramzlarga, o'xshatish, metafora yoki troplarga duch kelmaydi. Biroq yozuvchi hamisha o'z kitobxoniga soddalik va lo'ndalik orqali o'zining murakkab va mukammal g'oyalari singdirishga erishib kelgan.

"Unda (hikoyada) badiiy adabiyotda biz ko'nikkan sifatlar, tashbehtar, bo'rttirishlar, obrazli ifodalar uchramaydi – quruqqina yozilganday taassurot uyg'otadi. Lekin zohiran his-hayajonsiz, ehtirossiz, quruq tuyilgan bilan botinan to'laqonli, jo'shqin, ehtirossiz limmo-lim asar. Ta'bir joiz bo'lsa, aysberg – muz qoyaning asosiy qismi suv ostida, ya'ni bu o'rinda matn zamirida, bir uchigina suv yuzasida ko'rinish beradi. Shu jihati bilan hikoya yozuvchi yaratgan "aysberg nazariyasi"ning barcha talablariga javob beradi"<sup>7</sup>.

Hikoyaning eng kulminatsion nuqtasi sifatida amerikalik olim Jozef Maykl quyidagi parchani keltiradi: "Hikoyaning juda ko'p joylarida yengil kinoya ohangi ufurib turadi. Eng e'tiborlisi, hikoya boshida yog'a boshlagan yomg'ir voqealar avj olgani sari kuchayib boraveradi. Yoki bog'da yomg'irdan berkinib o'tirgan mushukni olgani chiqqanda amerikalik ayolga mehmonxona oqsochining bergan quyidagi savolini olaylik. U ayolga:

– Ha perduto qualche cosa, Signora?"<sup>8</sup>

Shunchaki berilgan bu savolda ayolning eng nozik dardlari aks etib turgandek bo'ladi. U ayol zoti uchun eng kerakli, eng zarur bo'lgan mehri, muhabbat, e'tibor, hurmatni yo'qotgan, unga ichikkan edi"<sup>9</sup>.

Xeminguey hikoyalari o'zining ixchamligi, lo'nda va ma'noli dialoglarga boyligi, muallifning ortiqcha izohsiz yozilganligi bilan boshqa yozuvchilar ijodidan ajralib turadi. "Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasida ham biz yozuvchining hikoya yaratish mahoratiga qoyil qolamiz, asardagi ayol obrazining ismsiz tarzda tasvirlanishiga qaramasdan, unga nisbatan o'quvchi qalbiday xayrixohlik, rahm-shafqat uyg'ota olganligiga to'la iqrar bo'lamiz. Xemingueyning birgina ayol obrazi orqali butun dunyo ayollari hamisha mehr, ehtirom, hurmat va e'tiborga mutlaq loyiq ekanligini his qilamiz.

<sup>1</sup> Ezra Paund (1885–1972), Amerika shoiri.

<sup>2</sup> Brennen, Carlene (2006). "Hemingway's Cats". – Sarasota, FL: Pineapple Press. p.16.

<sup>3</sup> Xeminguey, E. Yomg'irda qolgan mushuk // "Jahon adabiyoti". 2014 yil, 12-son. 137–188-betlar.

<sup>4</sup> O'sha manba.

<sup>5</sup> O'sha manba. 137-bet

<sup>6</sup> Otaxon, O. Sarhadlar // "Jahon adabiyoti". 2014-yil, 12-son. 127-bet.

<sup>7</sup> O'sha manba.

<sup>8</sup> Biror narsangizni yo'qotdingizmi, xonim? (italyan.)

<sup>9</sup> Joseph Michael DeFalco. The theme of individuation in the short stories of Ernest Hemingway. – University of Florida. 1961, June. p.168.

**Dilafro'z JABBOROVA,**  
*Samarqand davlat universiteti*  
*o'qituvchisi, PhD*

## “GO‘ZAL” OLIMLAR NIGOHIDA

So‘nggi davr tanqidchiligida Cho‘lpon she‘riyatining turli xil talqinlari yaratilmoqda. Shoirning mashhur “Go‘zal” she‘ri haqida taniqli cho‘lponshunos olimlar O.Sharafiddinov va N.Karimov yuksak baho berib, she‘rni shoirning muhabbat bobida yaratilgan va inja tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan badiiy mukammal asari sifatida baholashdi. O.Sharafiddinov “Cho‘lpon” nomli risolasida: “Bu she‘rda yorning go‘zalligi g‘oyat nafis ifodalangan – u tushda ham, o‘ngda ham, o‘zga ko‘milganda ham, ko‘milmaganda ham benihoya go‘zal, u yulduzdan-da, oydan-da, kundandan-da go‘zal, hatto oy ham, yulduz ham, kun ham unga havas qiladi, uning qarshisida o‘zlariga o‘zlari xunuk ko‘rinib ketishadi, andishaga tushishadi, uyalishadi...”

Bunday she‘rlar har qanday odamga ruhiy bardamlik baxsh etadi, uning qalbini shaffof nurlarga chulg‘aydi, allanechuk yengil torttiradi”. [1: 42–43] Munaqqid she‘rni muhabbat mavzusida yozilgan asar sifatida baholamoqda va oshiqning yor – go‘zal ishqida bedor yonishlarini inson ruhiyatining inja tuyg‘ulari sifatida talqin etmoqda. Naim Karimov ham ushbu she‘r tahliliga kirisharkan, eng avvalo, she‘riyat haqida, uning jozibasi, inson ma‘naviy olamiga, his-tuyg‘ulariga ko‘rsatadigan ijobiy ta‘siri haqida so‘z ochadi: “O‘zi, aslida, she‘riyat inson dilini ardoqlash uchun, undagi g‘uborni purkab tashlash uchun dunyoga kelgan. Shoir ham, avvalo, o‘z qalbini to‘ldirib yuborgan tuyg‘ular oqimini she‘riyatning sehri ummoni tomon yo‘naltirishga intiladi. Ana shunday tuyg‘ular oqimi, odatda, go‘zallik bilan uchrashuv natijasida, undan nurlanish natijasida, elektrlanish natijasida paydo bo‘ladi. Cho‘lponning mashhur she‘rlaridan biri “Go‘zal” deb nomlangan bo‘lib, unda ham ayol qiyofasidagi ana shu nafosat olami bilan uchrashuv nashidasi, aniqrog‘i, ana shu nafosatni qo‘msash tuyg‘usi tarannum etilgan”. [2: 49] N.Karimov she‘rdagi go‘zalni “ayol qiyofasidagi nafosat” deya ta‘riflaydi va lirik qahramon (shoir)ning bedor kechinmalari ushbu nafosatni qo‘msash tuyg‘usi ekaniga urg‘u qaratadi. Munaqqid fikricha, she‘rdagi ma‘shuqa hayotdagi real ayol tasviri bo‘lmay, balki afsonaviy xislatlarga ega ilohiydashgan dilbar timsolida keladi.

Ko‘rinib turibdiki, ustoz O.Sharafiddinov va N.Karimovning she‘r haqidagi dastlabki mushtarak qarashlari uning sof lirikaga oid she‘r sifatida tavsiflanishidir. Munaqqidlar she‘rdagi nafosat olamiga yo‘g‘rilgan lirik kechinmani, poetik obraz va ifodadagi jozibani shoir poetik mahorati sifatida baholaydilar. Har ikki munaqqid fikriga ko‘ra she‘rdagi go‘zal – “ma‘shuqa” ilohiydashgan yor timsolida keladi. “Sevgilisining bunchalar go‘zalligi oshiqni allanechuk xavotirga soladi”. [1: 43]

N.Karimov fikricha, shoir “... noma‘lum dilbarning bu ilohiydashgan obrazi orqali ilohiydashgan sevgi qissasini yaratishga erishdi”. [2: 50]

Har ikkala olim ham she‘r tahliliga bundan ortiq to‘xtalib o‘tirmay, uning jahoniy bahosini beradi va, bizningcha, ortiqcha tahlilga hojat ham yo‘q: ya‘ni she‘rning zohiriy va botiniy ma‘nosidagi uyg‘unlik “ilohiydashgan sevgi qissasi”ni kuylashdir.

Endi ikkinchi qarash – she‘rdagi go‘zalning milliy ozodlik ramzi ekanligi haqidagi talqinga adabiyotshunos D.Quronovning “Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi” nomli qo‘llanmasida duch kelamiz. Olim Cho‘lponning bir qator she‘rlarini davr bilan, shoir hayoti va dunyoqarashiga oid manbalar bilan bir butunlikda tahlil qilishga harakat qiladi, tahlilda biografik metoddan foydalanganiga urg‘u qaratadi. Olim mulohazalariga ko‘ra “... konkret asarni “tekst” deb oladigan bo‘lsak, uning mazmun-mohiyati faqat “kontekst”dagina to‘la namoyon bo‘lishi mumkin”. [3: 30] Ushbu qarashlardan kelib chiqib, olim she‘r ma‘nosini ikkiga – zohiriy va ramziy-botiniy ma‘nolarga ajratadi. Unga ko‘ra zohiriy mazmunda mumtoz adabiyotimizga xos an‘anaviy sevgi-muhabbat mavzusi kuylangan bo‘lsa, ramziy ma‘nosida yurtning milliy ozodlik motivi ifoda etilgan. Olim bu haqida “Shoir dilidagi milliy istiqloq orzusi uning ijtimoiy-estetik ideali maqomiga ko‘tarilgan edi. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, “ma‘shuqa” Cho‘lpon uchun milliy ozodlik ramzi edi, shu bois ham shoir uni boshqa hamma narsadan ustun qo‘yadi” [3: 30], deb yozadi.

N.Karimovning 2003-yilda chop etilgan “Cho‘lpon” nomli ma‘rifiy romanida “Go‘zal” she‘ri talqiniga yana bir bor to‘xtalib, yuqoridagi kabi qarashlarga munosabat bildirib, go‘zal kim degan savolga quyidagicha javob beradi: “Bunday lirik harorat va joziba bilan to‘liq satrlarda sharaflangan go‘zal qizil ro‘moli Hurriyat emas, balki jamiki go‘zallik timsoli – Sohijamoldir. Cho‘lpon, ulug‘ rus shoiri Aleksandr Blok singari, husni jamolda benazr bo‘lgan noma‘lum xonimning obrazini chizgan. Bizning ustozlarimiz ham shu she‘rni ishqiy lirikaning gultoji sifatida sevib o‘qiganlar”. [4: 24] Ko‘rinib turibdiki, olimning ushbu fikrlari, garchi nomi keltirilmasa-da, D.Quronov qarashlariga javoban aytilayotgani anglashilib turibdi.

Biroq shunga qaramay, bu xil fikrlarning boshqa olimlar kuzatishlarida ham uchrashi ularning ilmiy “da‘vo”larining qay darajada asoslanganligini o‘rganishni taqozo etadi. Jumladan, Y.Solijonov “Zulmatdan nur qidirganlar” nomli qo‘llanmasida “Cho‘lponning “Xalq”, “Go‘zal”, “Ko‘ngil”, “Kuz”, “Binafsha”, “Buzilgan o‘lkaga”... singari o‘nlab she‘rlarida erk tuyg‘usi, istiqloq umidi yorqin ifodalangan” [5: 65], deb yozsa, filologiya fanlari doktori I.Ermatov “Cho‘lpon she‘riyatida konnotatsiya qudrati” [6: 57–60] nomli maqolasida “Go‘zal” she‘ri tahlillaridan kelib chiqib, quyidagicha xulosaga keladi: “Xulosa qilib aytganda, “Go‘zal” she‘rining markazida turgan

ramz Cho'lpon umrining oxiriga qadar faqat tushlarida ko'rgan, u mansub bo'lgan millat vakillari esa qariyb bir yuz qirg yildan keyingina o'ngida erishgan milliy ozodlik ekan". [6: 60] Ko'rinib turibdiki, olimlar xulosasida she'rdagi "go'zal" ramziy obraz sifatida milliy ozodlik g'oyasini ifodalashga yo'naltirilgani ta'kidlanmoqda.

She'r talqinidagi bunday turlicha qarashlardan tabiiy savol tug'iladi: modomiki, she'r talqinida ustuvor ikki xil qarash yuzaga kelgan ekan, uning qaysi biri haqiqatga yaqinroq? Aslida-ku, talqinlarning bunday rang-barangligi hermenevtikaning yutug'i hisoblanadi. Zero, adabiy-tanqidiy talqinlar subyektiv qarashlar hosilasi sifatida qancha xilma-xil bo'lsa, adabiyot ilmi shuncha yutadi. Biroq, ayni paytda, talqinlar badiiy matn bilan qay darajada bog'langan yoki ilmiy jihatdan asoslangan, degan masala asosiy mezon ekanini ham yoddan chiqarmaslik zarur.

Ta'kidlash joizki, qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usi jo'shmagan, o'z ijodining muayyan bir yo'nalishini vatan va millat madhi bilan bezamagan birorta shoir yoki yozuvchini topish amrimahol. Shu ma'noda vatan va millat fidoyisi bo'lmish Cho'lpon ijodini yuksak vatanparvarlik ruhida bitilgan va milliy ozodlik motivlari bilan sug'orilgan asarlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu tipdagi she'rlarida shoir o'z konsepsiyasini aniq-tiniq bayon etadi, o'tkir publitsistik ruh bilan sug'orilgan ijtimoiy-estetik mazmun millatni yurt ozodligi yo'lida kurashga chorlovchi pafos darajasiga ko'taradi. Bunga misol qilib "Buzilgan o'l-kaga", "Amalning o'limi", "O'zbekim", "Kishan", "Tun", "Qo'zg'olish" va boshqa ko'plab she'rlarini keltirish mumkin.

Biroq bu munaqqidlar da'vo qilganidek, barcha she'rlarini bir xil ma'no-mazmun bilan bog'lab talqin qilaversa bo'ladi, degani emas.

D.Quronov "kontekst" sifatida keltirgan omillar – she'r yozilgan vaqtdagi ruhiy holat, davr ruhi, "Aldanish" va boshqa tahlilga tortilgan she'rlar olim xulosalarini asoslashga xizmat qilmaydi. Chunki munaqqid fikrini asoslash maqsadida "Go'zal" she'ri atrofida aylana-di-yu, lekin she'rning o'zini tahlilga tortib, "mana bu satrlar yoki obrazlar milliy ozodlik g'oyasiga ishora", deb ko'rsatmaydi. Aksincha, she'rdagi yetakchi poetik obrazlar – "oshiq" va "ma'shuqa" obrazlarini "... ular she'rning mazmun tizimida bir unsur, xolos", deya biryoqlama xulosaga keladi. Vaholanki, olimning ushbu fikrlaridan keyin keltirilgan she'r strukturasi o'zida tahlillar bu obrazlar shoir estetik idealini ifodalovchi asosiy poetik obrazlar ekanligini asoslashga xizmat qiladi. Zero, she'rdagi yulduz, oy, shamol, kun kabi boshqa poetik unsurlarni bir nuqtada jamlab, muayyan maqsadga yo'naltirayotgan asosiy poetik obrazlar bu – oshiq va ma'shuqa obrazidir. Aynan shu obrazlar go'zal ma'shuqa ishqida yonayotgan oshiqning bedor qalb kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Buni olimning o'zi ham kuzatuvlari davomida e'tirof etadi.

Adabiyotshunos olim I.Yormatov maqolasida ham shu fikr ilgari suriladi. Muallif maqolada cho'lponshunos N.Yo'ldoshevning she'r haqidagi fikrlarini inkor etar ekan, shoir she'rda oshiq bedorligi yoki ma'shuqa go'zalligini madh etish bilan cheklanmagani, "... bu tasvir yong'oqning po'sti kabi ekanligi, she'rxon uchun ke-

rakli mag'iz esa butunlay o'zga mazmun va badiiy g'oya bilan sug'orilganligi ayon bo'ladi" [6: 58], deb yozadi. Olimning o'z fikrlarini asoslash uchun keltirgan talqinlariga to'xtalishdan oldin aytish joizki, Cho'lponning poetik mahoratini namoyon qiluvchi go'zal misralarda bitilgan tasvirlarni "yong'oqning po'sti"ga o'xshatish olimning estetik didi, she'riy nafosatni qay darajada his qilishini to'la anglatib turibdi.

Maqolada "Go'zal" she'ridan keltirilgan qo'chirmadan keyin olim quyidagicha fikrlarni yozadi: "Germenevtika qoidalariga amal qilgan holda misralardagi so'zlar talqiniga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, "kecha" so'zi, ayonki, qorong'ulikni anglatadi. Qolaversa, "ko'k" so'zi "osmon"ga kunduzgi yorug'lik sharoitidagina ma'no jihatdan uyadosh bo'la oladi. Ammo Cho'lpon "kecha"ning oldidan ataylab "qorong'u" izohlovchisini keltiradi, qorong'u osmonning o'rniga esa "ko'k"ni qo'llaydi. She'r "Qorong'u kechadan ko'kka ko'z tikib" deya boshlanadi. Agar birinchi misra "Kechasi osmonga ko'z tikib" deya boshlanganda, nominativ ma'no saqlanib semantik konnotatsiyaga asoslangan ramz yuzaga kelmagan bo'lur edi". [6: 58]

Ochig'i, ushbu mulohazalarni o'qigan kitobxon olimning nima demoqchiligini anglashi qiyin. "Kecha"ning "qorong'ulik"ni anglatishi, "ko'k"ning osmonga faqat "kunduzgi yorug'lik sharoitida uyadosh" bo'lishi haqidagi ajabtovur talqinlarni qo'ya turaylik-da, she'rning dastlabki misrasi haqida "Agar birinchi misra "Kechasi osmonga ko'z tikib" deb boshlanganda, nominativ ma'no saqlanib semantik konnotatsiyaga asoslangan ramz yuzaga kelmagan bo'lur edi", degan qarashlariga e'tibor qarataylik. Muallif bu o'rinda "ko'k" so'zi faqat kunduzga nisbatan, "osmon" esa kechaga nisbatan qo'llanadi, demoqchiday tuyuladi. Axir "kecha"ning ham, "ko'k"ning ham ko'plab sinonimlari bor va shoir she'rdagi poetik maqsaddan kelib chiqib, eng ifodaviy so'z, iborani qo'llashi tabiiy. ("Kecha oqshom falakda// Oy bo'zarib botganda. **Zuhra yulduz** miltirab// **Xira** xanda otganda". A.Oripov). Binobarin, yuqoridagi mulohazalarni o'qiganda, "Nega endi shoir poetik go'zal ifoda o'rniga jaydari, badiiylkdan yiroq satrlarni yozishi kerak ekan", deya e'tiroz bildirgingiz keladi. Qolaversa, "Qorong'u kecha" birikmasi matnda poetik ifodadan tashqari vaqt, payt ma'nolarini ham anglatib kelmoqda. Ya'ni hali oy chiqib, atrof yorishmagan, qorong'u tushib faqat yorug'yulduz chiqqan palla, degan ma'nosi borki, vaqt tushunchasi oshiqning kechasi bilan bedor holatini ushbu tasvirdan keyingi oy, tong shamoli, kun obrazlari orqali ifodalamoqda. Binobarin, she'rdagi yulduz, oy, shamol, kun kabi poetik obrazlar shoirning estetik maqsadini ifodalash uchun bir nuqtaga jamlangan unsurlardir.

Olim fikrini davom ettirib, kecha va kunduzning "simvolik" xususiyatini quyidagicha kengaytiradi: "Ayrim kitobxonlar roman sarlavhasidagi (gap "Kecha va kunduz" romani haqida ketyapti – D.J.) "kecha"ni o'tgan zamon (feodalizm), "kunduz"ni esa sho'rular davri (sotsializm) deb tushunishadi. Cho'lpon "Kunduz"ni xalqimizning temuriylar, shayboniylar va uch xonlik davridagi milliy mustaqilligining simvoli, "Kecha"ni esa bolsheviklar boshlagan qo'poruvchilik, zo'ravonlik va qirg'indan iborat qorong'u yo'lsizlikning ramzi sifati-



da qo'llagan bo'lsa-chi?" [6: 58] Albatta, olim tomonidan aytilayotgan bu mulohazalar yaxshi niyat bilan, Cho'lpondek "elni majnun bo'lib" sevgan buyuk shoir ijodini xalq va millat taqdiri bilan uzviy aloqadorlikda talqin etishdek oliyjanob tuyg'u orqali aytilayotgani shubhasiz. Biroq bunday qarashlar badiiyatni, nafosat olamini so'z san'ati vositasi-la kashf etishimiz lozimligi haqida bizni o'yga toldiradi.

Maqola muallifining "Kun" ("Kunduz") Cho'lpon talqinida yuqorida faraz qilganimizdek, xalqimizning Russiya istibdodiga qadar bo'lgan milliy mustaqil turmushini anglatgudek bo'lsa, u "Go'zal"ni o'sha paytda "bir ko'rdim" deyishga haqli bo'lib chiqadi, "Kecha" va-killari bo'lgan Yulduz, Shamol va Oy esa uni endi faqat tushlarida ko'radilar. Poetik mantiq ipining ulanishini qarang! U endi bizga "Go'zal" nimaning ramzi ekanli-

gini ayon qila boshlaydi" [6: 60], degan mulohazalarini o'qib, she'rning ifoda usuliga zid tarzda, ya'ni "Kun"ni o'tmishdagi mustaqillik davri deb, "Kecha"ni esa sho'rolar bosqini davri sifatida o'z "qolip"iga solib, uni "mantiq ipining ulanishi" deya ta'riflashida qanchalik sun'iylik bo'lsa, xalqimizning mantiqan asoslangan "Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'" degan maqolidagi haqiqatlarga shunchalik ziddir. Zero, Cho'lponlar o'z jonlarini tikib kurashgan, orzu qilgan "Kunduz" – sho'rolar saltanati, ya'ni "Kecha" qulagandan keyin erishgan milliy mustaqilligimiz – bugungi kunimizdir.

Muallifning ushbu mulohazalari Cho'lponning har bir she'rini ijtimoiy mazmuni birinchi o'ringa chiqarib tahlil qilish ba'zan tadqiqotchini boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishga yorqin bir dalildir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharafiddinov O. Cho'lpon. – Toshkent: Cho'lpon, 1991.
2. Karimov N. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Qur'onov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Karimov N. Cho'lpon. Ma'rifiy roman. – Toshkent: Sharq, 2003.
5. Solijonov Y. Zulmatdan nur qidirganlar. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.
6. Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish: tarix, tajriba va texnologiya mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Bayoz, 2014.

**Nigora XOLMATOVA,**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*

## ERKIN A'ZAM BADIY PUBLITSISTIKASIDA BIR-BIRIGA ZID FAKTLAR TALQINI

Yozuvchi xorijga sayohatlari haqidagi maqolalarining janrini "safarnoma" deb ataydi. To'g'ri, mumtoz o'zbek adabiyotida Muqimiyning mashhur "Sayohatnoma"lari bor. Umuman, o'zbek adabiyotida sayohatnoma janri qadimiy va uzoq genezisga ega bo'lgan janrdir. E.A'zam o'zbek adabiyotida mavjud bo'lgan janr imkoniyatlaridan foydalanib, unga publitsistik pafos beradi. Jumladan, adibning "Tehronda qo'rquv yo'q..." (Eron taassurotlari asosida), "Okean ortidagi tabassum" (Amerika taassurotlari asosida), "Reyn bo'yidagi uchrashuvlar" (Germaniya taassurotlari asosida) asarlarida buni kuza-tish mumkin. Muallif "Kulgidan yig'i chinroq" maqolasida shunday yozadi: "Men vatanni Vatanda emas, chet el-larga chiqqanda yaqqolroq his qilaman: xuddi jonday bir narsamni yo'qotgandek bezovta bo'laveraman. Shunday narsaki, usiz hayot-hayot emas, omonat bir ro'zguzaronlik. Vatan degani shu bo'lsa kerak, Vatanni men qachon bor bo'yi bilan his qildim?" [1: 26]

E.A'zamning "Tehronda qo'rquv yo'q..." safarnomasi Eron Islom davlatiga qilgan rasmiy safari asosida yozilgan. Maqolada bu mamlakat haqidagi muallifning shaxsiy pozitsiyasi bo'rtib ko'rinadi: "Eron – taraqqiyotida o'ziga xos, o'rta asrlar bilan bugungi kunni go'yo payvand qilmoqdek murakkab yo'ldan borayotgan mamlakat. Bir vaqtlar – shohlik saltanati zamonida hamma darbozalari

ochiq bo'lgan bu boy, farovon o'lka saksoninchi yillar arafasidagi islom inqilobidan so'ng siyosatda butunlay o'zgacha yo'lni – diniy aqidaparstlik yo'lini tutdi; xalqaro munosabatlar-u taraqqiyotning boshqa jabhalarida ham ana shu ta'limotga asoslangan biqiqlik, mahdudlikni kasb etdi. Binobarin, kechagina sho'roviiy mafkuradan yuz burib mustaqillik yo'liga chiqqan musulmon davlatlaridan umidi katta uning". [1: 96] Bu maqola boshlanmasi O'zbekiston davlatining birinchi prezidenti I.Karimov va boshqa rasmiylar bilan Eronga qilingan rasmiy tashrif haqidagi gaplar bilan boshlangan bo'lsa-da, ammo maqolaning asosiy mazmuni yozuvchining Tehron shahri, qadimiy Eron, Mehrobod xalqaro tayyoragohi haqidagi hissiy-kechinmali mulohazalaridan iborat. Maqolada adibning o'ziga xos beozor kinoyasi, ikki xalq odamlarining tashqi ko'rinishi va kiyimlarini qiyoslab yozgan parchalari o'quvchida nim tabassum hosil qiladi. Masalan: "Tayyoragohda mazkur qaydlar muallifining diqqatini tortgan jihatlardan biri shu bo'ldiki, kutib olishga chiqqan mezbolar orasida birorta ham soqoli qirtishlangani yo'q – bari-barchasi soqol-mo'ylovli, aksariyati esa shunchaki to'rt-besh kundan beri bu ishga hafsala qilmagandek ko'rinar edi.

... Lekin, baribir, oliy martabali mehmonni olqishlagani chiqqan askarlar safining olaquroqligi – so-

qol-mo'ylovning betartibligi!.. O'zga yurt, o'zgacha taomillar. Ko'z o'rganar ekan.

Boshdayoq nazarga tashlangan yana bir hol. Bu yerda bizdagidek bo'yinbog' taqqan odamni uchratmaysiz – na oddiy fuqaro orasida, na oliy diplomatiya doiralari. Bu ham islomda taqiqlanganmi, bilmadim. Shakkok xayol-larga borasiz: ovru-pocha kastum-shim kiygandan keyin, “mercedes” mingandan keyin, Koka-Kola ichgandan keyin... nima qipti!“. [1: 96] Kuzatib turganimizdek, mazkur parchada muallifning kinoyasi sezilib turibdi. Yozuvchi Tehronning ko'chalari, uylari, odamlari, dov-daraxtlari, avtoulavlari, do'kon-u rastalari, zeb-ziynatlari haqida erinmay ma'lumot beradi. Bu tasvirlar muallifning ko'rilgan, kuzatilgan hodisalar va voqealar haqidagi hissiy va shaxsiy munosabatidan darak beradi. Jumladan, Tehron shahrining modern qiyofasini shunday ta'riflaydi: “Tehron zohiran shunday shaharki, unda baayni o'rta asrlar bilan bungungi kun, Osiyo bilan Ovrupo uchrashib turgandek. Boshida uzun kuloh, yelkasida quroq to'rva, qo'lida antiqa hasa, “Shohnoma” zamonidan kelib qolgan juldurvoqi darvesh muyulishdagi jilvagar qahvaxonaga kirib Koka-Kola bilan chanqog'ini bosadi... Darvoqe, Tehron Ovrupo shaharlaridan dastavval shunisi bilan farqlanadiki, ulug'vor Alburs tog'lari etagida yastangan bu azim madinada, zilzila xavfi tufaylimi, yuksak imoratlar hisobli – aksariyat uch-to'rt qavatli binolar“. [1: 98]

Muallif Tehron degan shaharga bormasdan oldinoq mashhur Eron adibi Mushfiq Kozimiyning “Qo'rqinchli Tehron” romani orqali muayyan tasavvurga ega bo'lganini yozadi. Jumladan, “Oltmishinchi yillarda Eron adibi Mushfiq Kozimiyning “Qo'rqinchli Tehron” kitobi juda mashhur edi. Sof mafkuradan dimiqqan ko'ngillarga unda tasvirlanmish “Sharq Pariji”ning tungi fahsh hayoti, oldi-qochdi sarguzashtlar g'oyat xush kelardi. Xush kelardi-yu, Tehron so'zining o'ziyoq razolat-u qabohatga eshdek, ko'ngilda vahm-tahluka qo'zg'ardi“. [1: 99]

E.A'zamni Eron jumhuriyatidagi yakka shaxs hukmronligi qattiq mutaassir etadi. Yozuvchini mamlakatning sotsialistik tizimdan voz kechib, Islom aqidaparastlik tizimiga o'tganligi hayratlantiradi. Adibning shu mamlakatda ko'rgan-kechirganlari, keyinchalik, “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” qissasiga ko'chdi. Zero, quyidagi parchani o'qib ko'rish orqali oldiniga publitsistik maqolada ifodalangan g'oyaning badiiy estetik g'oyaga aylanganini anglashimiz mumkin: “O'n besh qavatli ana shu binoning qaysi qanotidagi qaysi qavatiga chiqmang, lift eshigi ochilishi bilan qarshingizda ikki qiyofa namoyon bo'ladi: Eron Islom Jumhuriyatining asoschisi – Oyatulloh Imom Humayniy va uning izdoshi, mamlakatning bugungi diniy rahnamosi – Oyatulloh Sayyid Ali Xomanai hazratlari. Musofirxonaga kiraverishda ham birvarakay ikki

joyda biri-biridan yirik ana shu suratlar. Shaharda do'kon deysizmi, devor deysizmi – Imomning katta-kichik, har xil ko'rinisdagi rasmlariga to'la. Beixtiyor yaqin o'tmishimizdagi manzaralar – Lenin g'oyalari, Lenin siy-molari ko'z oldingizdan o'tadi. Islom dinida inson qiyofasini qog'ozda jonlantirmoq qoralanishini o'ylaysiz. Hadisi sharifda insonning insonga sig'inmog'i ravo emasligi, kufr sanalishi, Xudoga shakkokligi hisoblanishini yodga olib, boshingiz qotadi“. [1: 103] M.Qo'chqorova muallifning Tehron taassurotlari va xotiralarining “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” qissasiga ko'chganligini ta'kidlab, shunday yozadi: “Chapaklar va chalpaklarda ham ironiyaning o'tkir formasi – sarkazm istefoda etilgan. ...Qissa adibning 90-yillardan so'ng ham Sharqiy Buriyo mamlakatiga qilgan safar taassurotlari asosida yaratilgan. Shu bois asar janrini “esse-qissa” deb belgilash mumkin. Asarda xotira janriga xos xususiyatlar ham bor bo'lib, unda badiiy nasrga xos shartlilik vositalaridan mahorat bilan foydalanilgan. Qissada mamlakatda eng katta siyosiy muammoga aylangan “shaxsga sig'inish”ning dahshatli oqibatlari (ko'r-ko'rona sotsializm, kommunizm g'oyalari ishonch, qashshoqlik, qariya nogironlarning jamiyatga keraksiz buyum singari uloqtirilishi, sirti yaltiroq, ichi qaltiroq xalq hayotini “baxtli”, “to'kin-sochin”, “zamonaviy”, “ozod va obod”, “saranjom-sarishta” mamlakat, xalq sifatida xo'jako'rsinga yoki nomiga ko'rsatish, inson naslining qadrsizlanishi, insoniy tuyg'ular va munosabatlarning tahqirlanishi) Buriyo xalqi hayoti misolida hikoya etiladi. Butun boshli millat Xon Man Menning shaxsiga sig'inib orzulari, ko'ngil xohishlari, istaklari, erkaliklarini amalga oshirish uchun kecha-kunduz xizmatda turadi“. [3: 246] Tadqiqotchi to'g'ri ta'kidlaganidek, mazkur qissa E.A'zamning Tehron safari va u mamlakatda tuygan tuyg'ulari haqida yozgan kinoyaviy asardir. Qissadagi ikkita qahramon Xon Man Men va Men Xon Man obrazlari uchun Tehron mamlakatining rahbarlari – Imom Humayniy va uning izdoshi Sayyid Ali Xomanai hayotiy prototiplar bo'lib xizmat qilgan. Demak, E.A'zamning “Tehronda qo'rquv yo'q...” va “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” qissasida muallifning kutilmagan estetik ideallari namoyon bo'ladi. Ya'ni qo'rquv saltanati ostidagi mamlakatga teskari ravishda demokratik huquqiy jamiyatni ideal sifatida ko'rsatadi.

E.A'zamning badiiy publitsistikasida milliy an'ana va qadriyatlar, farzand burchi, Vatanga sadoqat, tarixni xolis baholash, Sharq va G'arb madaniyati, adabiy qarashlari, tafakkur dunyosi haqidagi qator mazmundor maqolalar kompozitsiyasining asosini tashkil etgan kolliziya bir-biriga zid salbiy va ijobiy faktlar to'qnashuvi va bunga yozuvchining munosabati orqali namoyon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A'zam E. Ertalabki xayollar. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
2. Erkin A'zam badiiy olami. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014.
3. Qo'chqorova M. Hozirgi o'zbek nasrida badiiy shartlilik. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Tog'ayev O. O'zbek badiiy publitsistikasi (nazariya va mahorat masalalari). – Toshkent: Fan, 1973.
5. Qurbonova S. Yozuvchi publitsistikasining taraqqiyot tamoyillari. – Toshkent: Muharrir, 2012.
6. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati. – Toshkent: Qaqqus media, 2019.



**Gulnora MUHAMEDJANOVA,**

*I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti  
Toshkent shahridagi filiali "Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası" dotsenti*

## TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA

Eng yaxshi tarixiy asarlar kishilarimiz dilini xalqning ko'p asrlik hayoti, tajribasi bilan boyitishini, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashini o'zbek tarixiy romanlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. [1] Darhaqiqat, tarixiy asarda o'tmish davr, tarixiy shaxslar ruhiyati, o'ziga xos xususiyatlarini haqqoniy ifoda etish uchun ekzotik lavha, tafsilotlarni qalashtirish shart emas. Buning uchun hammadan burun qalamga olingan davrni nafaqat chuqur o'rganish, balki yurakdan his qilish kerak.

Badiiy asar tarixiy davrni shu kun bilan bog'lovchi bir omildir. Tarixiy zamon, ya'ni asar yaratilgan davr ruhini ifoda etish, tarixiy asarning zamonaviyligi, bugungi kun uchun ahamiyati nihoyatda muhim.

Tarixiy asarning bugungi kunimiz uchun ahamiyati haqida Oybek domla shunday degan edi: "Men yozuvchi qaysi bir tarixiy davrga murojaat qilmasin, mabodo u davrning g'ayri yoki hattoki g'alati ko'ringan barcha xususiyatlari orasidan o'ziga tanish bo'lgan his-tuyg'ular va fikrlar izlasa, pirovardida mutlaqo xato qilmaydi deb o'ylayman. Begona davrni bilish, ya'ni bizning davrimiz bilan bog'lab turgan narsalarni ko'rmoq lozim". [2: 3-7]

Adib o'z asarida tarixiy davrni, o'tmish voqealarini gavdalandirishni niyat qilgan ekan, maxsus tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Chunki bu yerda u faqat san'atkorgina emas, balki tarixchi-olim hamdir. V.G. Belinskiy Valter Skottning tarixiy romanlari haqida gapirib: "Tarixiy roman go'yo shunday bir nutqki, unda fan sifatida bo'lgan tarix san'at bilan qo'shiladi, u tarixning to'ldiruvchisi, uning boshqa bir tomonidir".

Biz Valter Skottning tarixiy romanini o'qir ekanmiz, romandagi voqealar kechayotgan davrning zamondoshi, mamlakatning fuqarosi bo'lib qolamiz, biz ular to'g'risida jonli mushohada shaklida har qanday tarix bergan ma'lumotga qaraganda to'g'riroq tushuna olamiz". [3] Adabiyotimizda yaratilgan ajoyib tarixiy asarlarga murojaat qilar ekanmiz, tadqiqotchining fikri shubhasiz to'g'riligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik", Oybekning "Navoiy", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarlari bizga tarixiy faktlarni jonlantirib, ma'lum fursatga bizni o'sha sharoitga olib kiradi. Adabiyotshunoslarning qayd qilishiga ko'ra, A.S. Pushkin buyuk fransuz revolyutsiyasi haqida asar yozishga tayyorlanar ekan, shu davrga bag'ishlangan 50 dan ortiq tarixiy asarni o'rgangan edi. "L.N. Tolstoy esa "Urush va tinchlik" asarini yozishdan avval 54 ta yozma manbani sinchiklab o'rganib chiqqan". [4]

Oybek "Navoiy" romanini qanday yozdim" nomli maqolasida roman ustida ishlashga doir juda ko'p qiziqarli faktlar haqida gapiradi. Adib diqqatini uzoq vaqt Navoiy

siy mosi kuchli bir quyosh kabi o'ziga tortib, badiiy asar yaratishga zo'r mayl, orzu-istak tug'diradi.

Biroq Navoiy obrazini yaratish sevimli adibimiz uchun oson ish bo'lmadi, albatta. Mashaqqatli ijodiy mehnat uzoq vaqt davom etdi. Bu jarayonda esa Navoiyga bag'ishlangan kichik poema, qator ilmiy-tanqidiy maqolalar yaratildi. Nihoyat, "Navoiy" romani yozildi.

Oybek "Navoiy" romani bilan o'zbek adabiyotida tom ma'nodagi tarixiy romanga, aniqrog'i tarixiy-biografik romanga asos soldi. Bu haqida adib Qodiriy ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarida shunday degan edi: "Haqiqiy realist san'atkor bilan ilmiy metodologiya ila qurollangan tarixchi ma'lum nuqtalarda uchrashuvlari kerak. Ularning tarixiy hayotini tekshirishlari, hodisa va voqealarni tanlashdagi yo'l va priyomlarni qanchalik ayrim bo'lmasin, oxirgi paytda, so'nggi natijada ular uchrashuvlari lozim, ya'ni tarixchining haqiqati ila san'atkorning haqiqati muvofiq hamohang bo'lishi kerak. Qisqacha aytganda, badiiy haqiqat tarixiy haqiqatga mos kelishi zarur". Adib o'z asarida bu prinsipga to'la amal qilgan". [2: 5]

Shubhasiz, Oybekning "Navoiy" romani kitobxonlarning keng jamoatchiligi tomonidan sevib o'qiladigan badiiy asar bo'libgina qolmay, balki Oybekdan so'ng tarixiy roman yozish niyatida qo'lga qalam olgan ko'pgina adiblarimiz uchun dasturilamalga aylandi. Fikrimizning dalili sifatida yozuvchi Odil Yoqubovning "Navoiy" romaniga bag'ishlab yozgan quyidagi satrlarini keltirish mumkin: "Asarni sinchiklab o'rgana boshladim. Sekin-asta bu yetuk asar bag'riga jo bo'lgan ulkan hayot haqiqati, boy tarixiy material, teran ma'no, chuqur tuyg'ularni adibning realistlik mahorati sirlarini o'zim uchun kashf eta boshladim. Shunda bildimki, bu asarni chuqur tushunish, to'la qabul etish uchun ham kitobxonda muayyan tayyorgarlik bo'lishi zarur ekan. Ehtimol, bir chekkasi menda tarixiy o'tmishga, tarixiy mavzuga mayl shu romanni o'zim uchun kashf etgan kezlar tug'lgandir...., biz tarixiy mavzuda qalam tebratayotgan barcha o'zbek yozuvchilari Oybekning "Navoiy" sidan ta'lim olganmiz desam, xato qilmayman. Oybekdan keyin tarixiy o'tmish, buyuk zotlar hayotiga qo'l urgan birorta adib Navoiy tajribasini chetlab o'tgan emas. Mirmuhsin ham, Pirimqul Qodirov ham, men ham tarixiy mavzuda biron muvaffaqiyatga erishgan bo'lsak, buning uchun birinchi galda ustod Oybekka qulluq qilamiz. Ko'p sohalarda, jumladan, til bobida, hech shubhasiz, Oybek tajribasi, dahosi biz uchun katta maktab bo'lgan". [2: 76]

Xullas, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan madaniy boyligimizni chuqur o'rganish, insonga va taraqqiyotga xizmat qilish mumkin bo'lgan ilg'or, o'lmas g'oyalarni bizning kunimizga yaqinlashtirish, ular bilan zamonamiz kishilarini tanishtirishdek ezgu niyat tarixiy asarlarning vujudga kelishiga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pirimqul Qodirov. Tarixiy romanda zamonaviy ruh // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1985. 9-son.
2. O. Yoqubov, U. Normatov. Oybek dahosi // "Yoshlik" jurnali. 1985. 1-son.
3. V.G. Belinskiy. Maqolalar. – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1948. 84–85-betlar.
4. П.Медведев. В лаборатории писателя. – Ленинград: СП, 1971.



**Asqar ESHMUMINOV,**  
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## KORPUSDA RAZMETKA VA UNING XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilining milliy korpusida semantik razmetka va razmetka turlari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** lingvistik korpus, razmetka, razmetka sxemasi, razmetka turlari.

**Annotation.** This article discusses semantic markup and types of markup in the national corpus of the Uzbek language.

**Keywords:** linguistic corpus, markup, markup scheme, markup types.

**Аннотация.** В статье рассматривается семантическая разметка и виды разметки в национальном корпусе узбекского языка.

**Ключевые слова:** лингвистический корпус, разметка, схема разметки, виды разметки.

Ma'lumki, korpuslar razmetkalanlik belgisiga ko'ra ham muayyan toifalarga bo'linadi. Bunda *razmetka* termini bilan yondosh holda bo'linishni ifodalovchi *indekslangan, indekslanmagan, annotatsiyalangan, annotatsiyalanmagan, teglangan, teglanmagan* terminlari ham uchraydi. Razmetkalan korpusda so'z va jumalarga razmetkaning morfologik, sintaktik, semantik, prosodik va shu kabi turini ifodalovchi lingvistik razmetkaga ko'ra teglar biriktiriladi.

Lingvistik razmetkaning quyidagi tamoyillari mavjud:

- 1) razmetka sxemasi/tuzilishini tavsiflash (asoslash);
- 2) lingvistik tushunchalarning umumqabul qilingan sistemasi;
- 3) tahlilning foydalanuvchiga ma'lum bo'lgan sxemasi;
- 4) parametrlarning asoslantirilgan tarzda kiritilishi;
- 5) razmetkaning an'anaviy sxemasi;
- 6) xalqaro standartlarga amal qilish.<sup>1</sup>

*Tagging, annotation* deb nomlanuvchi korpus razmetkasini ifodalovchi amaliyot o'z-o'zidan murakkab jarayonni namoyon etadi. Jumladan, bu borada korpusga kiritiluvchi ma'lumotlar bazasining tarkibi hamda uni korpusga kiritishda o'zbek tili orfografik tamoyillari inobatga olinishi lozim. Shuningdek, o'zbek standart tili hamda umummilliy til unsurlarini to'g'ri tahlil qilish va shunga mos saralash amaliyotini amalga oshirish kerak. Negaki, tadqiq obyektimizni ifoda etuvchi sinonimlar razmetkasi aynan shu jihatlarga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Binobarin, o'zbek tili milliy korpusi bitta dastur yoxud bitta yo'nalish, bitta lingvistik sath ma'lumotlaridan farqli o'laroq, amaliy tilshunoslikning boshqa turdagi yo'nalishlariga doir ma'lumotlarni qayta ishlovchi dasturlarni ham o'z ichiga olishi tabiiy. Shunday bo'lgach, bu borada quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi:

– o'zbektilida yaratilgan sinonimlarizohli lug'atlarining o'zbek tili portaliga joylashuvini muntazamlashtirish: bunda yangilanayotgan ma'lumotlarni tezlikda qayta ishlab, bazaga kirituvchi dasturlarni takomillashtirish;

– portalda o'zbek adabiy/standart tili me'yorlarini joylashtirish: bunda bir sinonimik qatorda joylashuvchi

leksemalarning uslubiy xoslanganlik belgilarini tahlil qilish imkoniyati kengayadi;

– foydalanuvchilar murojaatini qayta ishlash tizimini takomillashtirish: bunda muayyan semantik birlik borasidagi birgina so'rov ham kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan ilmiy izlanishlarning yo'nalishi, predmeti, obyekti va maqsadini aniqlashga sabab tug'dirishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, kompyuter ishlab chiqarish hajmining kengayishi, u bilan katta miqdordagi hujjatlarni elektron shaklda saqlash imkonining yuzaga kelishi, o'z navbatida, korpuslarning yaratilishiga asos bo'ldi. Xususan, korpusga oid dastlabki loyihalar 500 ming so'zdan tashkil topgan bo'lsa, 1960-yillarga kelib ularning miqdorini 1 mln ga yetkazish maqsadi qo'yildi.<sup>2</sup> Shunga ko'ra korpus ko'laminin orta borishi bilan qayta ishlanuvchi matn bilan birga kiritiluvchi qo'shimcha axborotning tarkibi katta ahamiyat kasb etib boradi. O'zbek tili milliy korpusini yaratishdagi semantik razmetkada matnni qayta ishlash vositalarining yetarlicha takomilga yetmaganligi hozircha semantik va sintaktik axborotni avtomatik tarzda kiritish imkonini chegaralaydi. Vaholanki, o'n millionlab so'zdan iborat korpusni qo'lbola usulda razmetkalanish – haqiqatdan yiroq holat; mavjud yirik korpuslar razmetkasida esa lemmalarni belgilash (lemmatizatsiya) bilan kifoyalanilgan. Bu borada ilmiy manbalarda qayd etilgan gazeta korpusi (A.A.Polikarpov rahbarligida), matbuot va "ommaviy" adabiyot korpusi; Finlyandiyaning Tampera shahridagi universitetda yaratilgan rus korpusini (X.Tommola va M.Mixaylov rahbarligida) misol qilsa bo'ladi. Mazkur korpuslarda morfologik razmetka bo'lmaganligi sababli alohida grammatik ma'nolarni izlashdan ma'no yo'q. Binobarin, morfologik va morfologik-sintaktik belgilarni ifodalovchi mukammal razmetka katta mehnatni talab qiladi. Biroq u qadar katta bo'lmagan korpus uchun yarim avtomat razmetkani faqat morfologik, sintaktik va semantik axborot usulida amalga oshirish mumkin.

Sankt Peterburg universiteti korpusi, IPPI korpusi, Praga korpusi, Xelsinki korpusining annotatsion lo-

yihasi XANKO, FrameNet korpusi singarilarni bunga misol qilish mumkin. Sintaktik razmetkalangan Penn Treebank matnlari esa o'z davrida Braun korpusiga asoslanib to'plangan. Holbuki, matnlarni qayta ishlash texnologiyalarining takomili katta miqdordagi axborotni avtomatik tarzda kiritish, xususan, obyektlarni nomlariga ko'ra tenglashtirish yoki lokal matn sharoitida omonimlarni farqlash imkonini tug'diradi. Birinchi holatda korpus voqealar ishtirokchilariga doir axborot bilan, masalan, kishi nomlari, vazifa (mansab) yoki firmalar nomi (Mr. Blair, Tony Blair, the prime minister shaklida) bilan belgilanishi mumkin. Ikkinchi holatda ko'p ma'noli so'zlarni qo'llashga doir aniq axborot bilan razmetkalangan bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda lingvistik axborotni tashuvchi matn razmetkasi SGML/XML tili negizida amalga oshiriladi. Bunda lavhadagi (matn so'z, gap) atributlar sintaktik strukturalar darajasida funksional aniqlash nuqtayi nazaridan ajratib olinadi. Mazkur birliklar quyidagicha teglar bilan chegaralab olinadi: <cl> va <phr>:

```
<cl type='finite declarative' function='independent'>
<phr type='NP' function='subject'>Nineteen fiftyfour,
<cl type='finite relative declarative' function='appositive'>when
<phr type='NP' function='subject'>I</phr>
<phr type='VP' function='predicate'>was eighteen
years old</phr>
</cl>, </phr>...
```

Biroq SGML/XML lavha va atributlarning sintaksis topshiriqlarinigina bera oladi, korpus razmetkasi-da foydalaniladigan aniq majmuani emas. So'nggi davrda XML asosida bir necha tavsiya ishlab chiqilgan, ulardan EAGLES (European Advisory Group on Language Engineering Standards), TEI (Text Encoding for Interchange) va XCES (XML Corpus Encoding Standard) singarilar ahamiyatga molik. Xususan, EAGLES qoidalari korpuslarni yaratish va rasmiylashtirish, ularning morfosintaktik razmetkasi, shuningdek, alohida olingan vaziyatlarda razmetkalashning aniq yechimlariga doir umumiy tamoyillarini namoyon etadi. Shuningdek, mazkur tavsiyada lemmalash ham nazarda tutiladi, ammo lemmalashtirilgan korpuslar tanqisligi bois EAGLESda lemmalashtirish uchun teglar mavjud emas.

EAGLES morfologik razmetkani amalga oshirish va saqlashdan iborat ikki imkoniyatni beradi: har bir belgi alohida POS='NN' number='sing' atributi bilan taqdim etiladi yoki raqamlar belgilar bilan mutanosib keluvchi murakkab morfologik razmetka ishlatiladi. Masalan, feats=»V3011141101200« (3rd person, singular, finite, indicative, past tense, active, main verb, nonphrasal, nonreflexive) fe'lni anglatadi. Ta'kidlash kerakki, tavsiya etiluvchi belgilar va ularga tegishli ma'nolarning

ro'yxati EAGLES tavsiyalarining bir qismi hisoblanadi. Lekin EAGLES tamoyillarida korpusni yaratishga oid elementlarning tayyor jamlanmasi mavjud emas.

Matnlarning lingvistik razmetkasi uchun nisbatan standart muvofiq keluvchi XCESning yaqin yillarda ISO TC37/SC4 xalqaro standartiga aylanish ehtimoli katta. Gap shundaki, XCES lingvistik X razmetkalarni aqlli modellarini yaratish elementlarini ta'minlovchi metaabstrakt modelini taqdim etadi. Bu esa EAGLES qoidalariga to'la muvofiq keladi. Buning uchun <struct> uzvlarining abstrakt teglari hamda ularning <feat> belgilari aniqlanadi. Har bir tugun uchun uning tipi, masalan, abzas, jumla, so'z va morfemalar uchun p level, slevel, wlevel, mlevel beriladi. Bu, o'z navbatida, kichik so'zlarni tahlilning bitta birligi sifatida taqdim etish imkonini beradi.

Mavjud korpuslarning ko'pchiligi XCESning murakkab mexanizmidan foydalanmasdan, TEI teglar jamlanmasini qo'llaydi. Vaholanki, TEI standarti lingvistik maqsadlar va razmetkalangan korpuslarni saqlashga mo'ljallangan. Unga ko'ra qator korpuslarda so'zlarni belgilash uchun <w> tegi, gap qurilmalari uchun <s> tegi, guruhlar uchun <phr> tegi ishlatiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda semantikaning yagona nazariy asosi ishlab chiqilmagan. Ko'plab lingvistik maktablar semantika tilni to'liq tasvirlashning alohida unsuri sifatida tushunadilar. Shuningdek, semantik razmetkada standart shakl mavjud emas. Odatda, mazkur razmetka turida harflar va shifrlar yoxud shifrlardan iborat kodni qo'llaydilar (bunda birinchi harf yoki raqam tegishli so'z taalluqli bo'lgan umumiy semantik kategoriyani anglatadi, navbatdagi ramzlar esa, uning ma'nosini oydinlashtiruvchi kichik kategoriyalarga ishora beradi). Semantik razmetkada, shuningdek, ma'no anglatuvchi birlik o'rnida yagona so'z emas, aksincha, so'z birikmasining kelish hollari ham uchraydi. Mazkur so'z birikmasining barcha komponentlariga yagona kod biriktiriladi.

Mavjud korpuslarning ko'pchiligi XCESning murakkab mexanizmidan foydalanmasdan, TEI teglar jamlanmasini qo'llaydi. Vaholanki, TEI standarti lingvistik maqsadlar va razmetkalangan korpuslarni saqlashga mo'ljallangan. Unga ko'ra qator korpuslarda so'zlarni belgilash uchun <w> tegi, gap qurilmalari uchun <s> tegi, guruhlar uchun <phr> tegi ishlatiladi.

Semantik razmetkaga ega korpus lingvistik tadqiqotlarda morfologik va semantik amallar bajarish uchun material to'plash imkonini beradi. Korpus, eng avvalo, so'zlarning matnda qo'llanishini ko'rsatuvchi misollar massivi ekanligi bilan lingvistik tadqiqotlar uchun ahamiyatli sanaladi.

<sup>1</sup> Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. – С. 25.

<sup>2</sup> Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. – С. 161

**Nosir RAJABOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi  
Harbiy-texnika instituti Xorijiy tillar kafedrasida  
katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

## O'ZBEK TILIDA UNLI FONEMALARNING POZITSION KO'RINISHLARI

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tili unli fonemalarining pozitsion ko'rinishlari tadqiq qilingan. Unda Moskva fonologiya maktabi nazariyasiga ko'ra fonemalarning pozitsion ko'rinishlari o'zbek tili unli fonemalari misolida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq tovushlari, unli fonema, invariant, variatsiya, variant, kuchli pozitsiya, kuchsiz pozitsiya.

**Annotation.** The article deals with the positional variations of Uzbek vowel phonemes. The positional variations of phonemes according to the theory of Moscow Phonological School are studied on the example of Uzbek vowel phonemes.

**Keywords:** speech sounds, vowel phoneme, invariant, variation, variant, strong position, weak position.

**Аннотация.** В статье рассматриваются позиционные вариации узбекских гласных фонем. Позиционные выражения фонем по теории Московской фонологической школы изучаются на примерах узбекских гласных фонем.

**Ключевые слова:** речевые звуки, гласная фонема, инвариант, вариация, вариант, сильная позиция, слабая позиция.

Tilshunoslikda nutq tovushlarining pozitsion va kombinator ko'rinishlari o'zaro farqlanadi. [4: 47] Unlilarning pozitsion ko'rinishi xususida fikr yuritilganda ularning urg'uli, urg'usiz holat, bo'g'in turi, so'zdagi o'rniga ko'ra o'zgarishlari; kombinator ko'rinishida unlilarning yondosh tovushlar ta'sirida o'zgarishi nazarda tutiladi. [7: 39–40] O'zbek tilida unli fonemalarning pozitsion va kombinator ko'rinishlari haqida gap ketganda unli fonemalarning umumiy soni masalasiga ham alohida to'xtalish lozim. O'zbek tilshunosligida bu borada ikki xil yondashuv mavjud:

- 1) o'zbek adabiy tilida unli fonemalar soni oltita;
- 2) o'zbek adabiy tilida unli fonemalar soni oltitadan ko'p.

O'zbek adabiy tili unlilar tizimi oltita fonemadan iborat, deb hisoblaydigan tilshunoslar /ɪ, e, ʌ/ fonemalarini til oldi; /ʊ, ɔ, o/ fonemalarini til orqa unlilari sifatida talqin qiladilar va til oldi unlilarining til orqa ko'rinishlarini yoki til orqa unlilarining til oldi ko'rinishlarini shu fonemalarning yondosh undoshlar ta'sirida yuzaga keladigan kombinator ko'rinishlar sifatida biladilar. [1: 72] O'zbek tilida unli fonemalar sonini oltitadan ko'p, deb hisoblovchi tilshunoslar fikricha, /ɪ, ʌ, ʊ, ɔ/ unlilarining har biri til oldi hamda til orqa ko'rinishlarga ega bo'ladi (old qator: /i/, /o/, /ɔ/, /ä/; orqa qator: /ɨ/, /u/, /o/, /ə/) va ular mustaqil fonema hisoblanadi. [6: 3] Biz bu borada birinchi yondashuvga asoslangan holda unli fonemalarning pozitsion ko'rinishlari to'g'risida fikr yuritimiz.

O'zbek tilida unli fonemalarning pozitsion ko'rinishlarini tadqiq etishda Moskva fonologiya maktabi nazariyasiga asoslanish tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariyaga ko'ra fonemalarning pozitsion ko'rinishlari *invariant*, *variatsiya*, *variant* tarzida talqin qilinadi. [2: 252] Invariant fonemaning asosiy ko'rinishi bo'lib, u kuchli pozitsiya (masalan, unlilarning urg'uli bo'g'inda kelishi) da uchraydi. Variant fonemaning artikulyatsion-akustik

jihatdan to'liq o'zgarishiga ko'ra boshqa bir fonemaga o'xshash bo'lib qolgan ko'rinishi bo'lib, u kuchsiz pozitsiya (masalan, unlilarning urg'usiz bo'g'inda kelishi)da namoyon bo'ladi. Variatsiya esa fonemaning ma'lum bir fonetik kontekstda artikulyatsion-akustik jihatdan qisman o'zgarish shakli hisoblanib, u kuchli pozitsiyada ham, kuchsiz pozitsiyada ham yuzaga kelishi mumkin. O'zbek tilida unli fonemalar pozitsion ko'rinishiga ko'ra *invariant* yoki *variatsiya* tarzida uchraydi. Biroq unli fonemalarning *variant* shakli (fonemaning artikulyatsion-akustik jihatdan to'liq o'zgarishiga ko'ra boshqa bir fonemaga o'xshash bo'lib qolishi) mazkur tilda mavjud emas. Shu nuqtayi nazardan o'zbek adabiy tilidagi unli fonemalarning har biri, asosan, quyidagi pozitsion ko'rinishlar orqali ifodalinishi mumkin:

/ɪ/: [ɪ] invariant (fonemaning asosiy ko'rinishi): bir [bɪr], kir [kɪr];

[ɪ] variatsiya (fonemaning urg'usiz bo'g'inda invariantga nisbatan qisqaroq va kuchsizroq talaffuz qilinadigan ko'rinishi): biroz [bɪ'roz], kirdi [kɪr'dɪ];

[ɪ] variatsiya (fonemaning jarangsiz undoshlardan iborat CVC, CV–CV tuzilishidagi bo'g'inlarda juda qisqa talaffuz qilinadigan ko'rinishi): chiq [tʃɪq], shishi [ʃɪʃɪ].

/e/: [e] invariant (fonemaning asosiy ko'rinishi): ter [tɛr], ber [bɛr];

[e] variatsiya (fonemaning urg'usiz bo'g'inda invariantga nisbatan qisqaroq va kuchsizroq talaffuz qilinadigan ko'rinishi): terdi [tɛr'dɪ];

[e] variatsiya (fonemaning jarangsiz undoshlardan iborat CVC, CV–CV tuzilishidagi bo'g'inlarda qisqa talaffuz qilinadigan ko'rinishi): chetda [tʃɛtdɪ], tepmoq [tɛpmoq].

/ʌ/: [ʌ] invariant (fonemaning asosiy ko'rinishi): jo'ra [jɔ'rʌ], terak [tɛ'rʌk];

[ʌ] variatsiya (fonemaning urg'usiz bo'g'inda invariantga nisbatan qisqaroq va kuchsizroq talaffuz qilinadigan ko'rinishi): dala [dʌ'lʌ];

[ʌ] variatsiya (fonemaning jarangsiz undoshlardan iborat CVC, CV–CV tuzilishidagi bo'g'inlarda qisqa talaffuz qilinadigan ko'rinishi): xat /xʌt/, kapalak /kʌpʌl'ʌk/.

/ʊ/: [ʊ] invariant (fonemaning asosiy ko'rinishi): tur [tʊr], hur [hʊr];

[ʊ] variatsiya (fonemaning urg'usiz bo'g'inda invariantga nisbatan qisqaroq va kuchsizroq talaffuz qilinadigan ko'rinishi): turdi [tʊr'dɪ], burdi [bʊr'dɪ];

[ʊ] variatsiya (fonemaning jarangsiz undoshlardan iborat CVC, CV–CV tuzilishidagi bo'g'inlarda juda qisqa talaffuz qilinadigan ko'rinishi): tut /tʊt/, tutulib /tʊtʊ'ʌb/.

/ð/: [ð] invariant (fonemaning asosiy ko'rinishi): ko'r [kòr], zo'r [zòr];

[ò] variatsiya (fonemaning urg'usiz bo'g'inda invariantga nisbatan qisqaroq va kuchsizroq talaffuz qilinadigan ko'rinishi): ko'r'di [kòr'dɪ], bo'ri [bò'rɪ];

[ò] variatsiya (fonemaning jarangsiz undoshlardan iborat CVC tuzilishidagi bo'g'inda qisqa talaffuz qilinadigan ko'rinishi): ko'p /kòp/, to'q /tòq/.

/b/: [b] invariant (fonemaning asosiy ko'rinishi): bor [bòr];

[p] variatsiya (fonemaning urg'usiz bo'g'inda invariantga nisbatan qisqaroq va kuchsizroq talaffuz qilinadigan ko'rinishi): bordi [bordɪ];

[p] variatsiya (fonemaning jarangsiz undoshlardan iborat CVC tuzilishidagi bo'g'inda qisqa talaffuz qilinadigan ko'rinishi): top /tòp/.

Mazkur tahlildan ko'rish mumkinki, Moskva fonologiya maktabi nazariyasida aks etgan fonemalarning uch xil pozitsion ko'rinishlari (*invariant*, *variatsiya*, *variant*) son jihatdan o'zbek tili unli fonemalarining pozitsion ko'rinishlariga mos keladi, biroq ular pozitsion ko'rinish turlariga ko'ra o'zaro tafovutga ega.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek adabiy tilida mavjud oltita unli fonemaning har biri nutqda o'zining, asosan, uch xil pozitsion ko'rinishi orqali ifodalanadi. Ular fonemaning **invariant** (fonemaning asosiy ko'rinishi), **variatsiya** (fonemaning urg'usiz bo'g'inda invariantga nisbatan qisqaroq va kuchsizroq talaffuz qilinadigan ko'rinishi), **variant** (fonemaning jarangsiz undoshlardan iborat CVC, CV–CV tuzilishidagi bo'g'inlarda juda qisqa talaffuz qilinadigan ko'rinishi) shakllaridir. Unli fonemalarning ma'lum bir fonetik kontekstda artikulyatsion-akustik jihatdan to'liq o'zgarishga uchrab, boshqa bir fonemaga o'xshash bo'lib qolishi natijasida yuzaga keladigan *variant* ko'rinishi o'zbek tilida mavjud emas.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. 2-nashr. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Р.И.Аванесов, В.Н.Сидоров Система фонем русского языка // А.А.Реформатский. Из истории отечественной фонологии. – Москва: Наука, 1970.
3. Данияров Х. Опыт изучения джекающих (кыпчакских) диалектов в сравнении с узбекским литературным языком. – Ташкент: Фан, 1975.
4. Зиндер Л.Р. Общая фонетика. – Москва: Высшая школа, 1979.
5. Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. – Toshkent: Ijod, 2006.
6. To'ychiyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
7. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010.

Ozod SADRIYEV,

Samarqand iqtisod va servis instituti o'qituvchisi

## YOG'UCH O'YMAKORLIGI TERMINOLOGIYASI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy hunarmandchilikning muhim tarmog'i bo'lgan o'ymakorlik san'atiga xos terminlarning lingvistik xususiyatlari xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, yog'och o'ymakorligiga xos terminologik tizimni tadqiq etish bilan bog'liq masalalarning ham yoritilishiga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** termin, terminologiya, terminologik tizim, o'ymakor, o'ymakorlik, yog'och o'ymakorligi, hunarmand, uslub, asbob, gul o'yish, iskana, naqsh.

**Annotation.** The article attempts to reveal the linguistic features of terms characteristic of the art of wood carving, which is an important branch of folk crafts. Special attention is also paid to issues related to the study of the terminological system characteristic of wood carving.

**Keywords:** term, terminology, terminological system, carver, carving profession, wood carving, master, style, tool, flower carving, modelling, pattern.

**Аннотация.** В статье предпринята попытка раскрыть лингвистические особенности терминов, характерных для искусства резьбы по дереву, которое является важной отраслью народных ремесел. Также уделяется внимание вопросам, связанным с изучением терминологической системы, характерной для резьбы по дереву.

**Ключевые слова:** термин, терминология, терминологическая система, резчик, профессия по резьбе, резьба по дереву, мастер, стиль, инструмент, цветочная резьба, лепка, узор.

Jahon tilshunosligida bugungi kunda terminologik tizimlar tamoyillarini tadqiq etishda tilshunoslik, etnografiya, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyatshunoslik, san'atshunoslik singari fanlar bilan bir qatorda tabiiy, texnik, tibbiy hamda me'morlik kabi fanlar integratsiyasi ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, terminologik tizimda ularning giponimik, partonimik, funksionimik, graduonimik, sinonimik, antonimik, omonimik kabi munosabatlarini hamda soha leksik birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi o'zbek tilshunosligida milliy terminologiyaning turli sohalari o'rganilishiga keng yo'l ochdi, turli terminologik tizimlarni teran o'rganish bo'yicha jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayni paytda me'morchilikning ajralmas qismi bo'lgan o'ymakorlik terminologiyasi singari kam o'rganilgan sohalarga jiddiy e'tibor qaratish zarurati ham kun tartibiga qo'yilmoqda.

Jahon tilshunosligida yetakchi bo'lgan ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida o'ymakorlik terminlarining xalq og'zaki ijodi, qadimiy leksikografik manbalar va tarixiy-ilmiy asarlarda uchraydigan namunalari aniqlash, ularning leksik-semantik, tarixiy-etimologik xususiyatlari hamda yasaliish asoslarini yoritish orqali uning o'zbek terminologiyasida tutgan o'rni singari masalalarni tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadimdan ota-bobolarimiz yog'och, tosh, mis, ganch singarilarga ishlov berish orqali o'ymakorlik san'atining ajoyib namunalari yaratishgan. Bu san'atning hozirga qadar hunarmandlar tomonidan davom ettirilayotganligi soha terminologiyasini tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da sohani ifodalovchi terminlarga quyidagicha izoh berilgan:

**O'yima 1.** O'yib ishlangan, yasalgan. *O'rtada o'yima o'choqda katta ho'l to'nka uyni tutunga to'ldirib, burqsib yotadi.* P.Tursun, "O'qituvchi".

2. O'yib, qirib, zarb qilib bezak ishlash usuli va shu usulda ishlangan bezak, naqsh. *Gavhar oyna ustiga solingan katta bir o'yima naqsh oldida Mahkamni to'xtatdi.* P.Qodirov, "Uch ildiz".

**O'ymakor 1.** Taxta, ganch, marmar va sh.k.ga o'yib, gul, naqsh ishlovchi usta. *Bu [eshik] qalin, baquvvat taxtalardan yasalgan bo'lib, mohir o'ymakorlar bezagan, usta bo'yoqchilar naqsh bergandi.* S.Yunusov, "Kutilmagan xazina".

2 O'yib, zarb qilib ishlangan; o'yima. *Oltin qubbachalar, o'ymakor gullar bilan bezangan eshikni ochib, kichikroq, lekin serhasham xonaga kirdi.* Oybek, "Navoiy".

Shuningdek, mazkur lug'atda o'ymakorlik, o'yimoq singari terminlarga ham izoh berilgan.

Ushbu izohlardan ma'lum bo'ladiki, sohaga doir terminlar turli vazifalarni bajarish barobarida turli ma'nolarni ham ifodalashi mumkin ekan. Bu esa o'ymakorlikka xos terminlarni monografik tadqiqot obyekti sifatida olish mumkinligidan dalolat beradi.

Usta hunarmandlarning asosiy yumushi yog'och o'ymakorlik bilan qilingan uy-ro'zg'or buyumlari uchun naqsh kompozitsiyalarini loyihalash, ular uchun naqsh va mavzuli kompozitsiyalar tuzish, yog'och o'ymakorlik naqshlarni qilish hamda ularni ushbu usulda bezash, faoliyat sohasiga tegishli ko'rgazma va tadbirlarda mahsulotlari bilan qatnashishdan iborat bo'ladi.

Xalqimizda yog'och o'ymakorligidan oddiy bolalar tumorhasidan tortib bino ustunigacha bezashda foydalaniladi. Yog'och o'ymakor ustalar qadimdan uch uslub asosida bezab kelganlar: bag'dodi, islimi va pargori.

Yog'och o'ymakorligida *bag'dodi uslubi* O'rta Osiyo, Hindiston, Afg'oniston, Eron va boshqa joylarda keng tarqalgan. Bag'dodi uslubida geometrik shaklda o'yilgan naqshlardan foydalaniladi. *Girih o'simliksimon naqshlardan* farq qiladi. O'simliksimon, ya'ni *islmiy naqshlar barg, gul, novda* va boshqalar naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shakl sanaladi. *Geometrik naqsh to'rtburchaklar, ko'p burchaklar va egri chiziqlardan* tashkil topadi. Yog'och o'ymakorlar bu naqsh turini yaxshi bilganlari uchun ham ular *eshik, ustun, panjara, xontaxtalarga* bag'dodi uslubida naqsh ishlab kelganlar.

*Islmiy uslub* o'zbek o'ymakorligida juda keng tarqalgan. Islmiy – klassik naqsh turi bo'lib, *barg, gul, kurtak, tanob* va boshqalardan tashkil topgan bir-biriga ulanib takrorlanishdan hosil bo'lgan naqsh. Islmiyning turlari juda ko'p, usta kompozitsiyasi qaysi shakl bilan to'ldirilgan bo'lsa, shu shaklning nomi qo'shib aytiladi. Chunonchi, *islmi mehrob, islmi bodom, islmi bulbul* va boshqalar.

O'rta Osiyo, Hindiston, Yaqin Sharq, Afg'oniston, Eron ustalari islmiy uslubda yog'ochni o'yib gul soladilar. Bu uslubda Xiva, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon shaharlarida ustalar qadimdan hozirgi paytgacha mehnat qilib kelishmoqda.

*Pargori* – pargor (sirkul) yordamida chizib o'yilgan naqsh bo'lib, an'anaviy yog'och o'ymakorlik turi sanaladi. Bu o'ymakorlik turini ustalar "*o'yimali pargori*" va "*o'yima pargor bilan*" deb ham yuritadilar. Pargori *murakkab o'ymakorlik texnikasi* bo'lib, chuqur bilimdonlik hamda mahorat talab etadi. Pargori usuli uchun *yong'och, chinor, qayrag'och, tol yog'ochlar* yaxshi material hisoblanadi. Tayyorlangan yog'och yuzasiga qog'oz yelimlanib, unga *rapporti aylana, to'rtburchak, uchburchak, ko'p burchak* va hokazolardan iborat naqsh kompozitsiyalari *pargor* va *chizg'ich* yordamida chiziladi, keyin esa asboblardan yordamida o'yiladi. O'ymaning chuqurligi 1–1,5 mm gacha bo'ladi. Naqsh o'yishda 30–35 tacha har xil turdagi *o'yuvchi asboblardan* ishlatiladi. Masalan, *kurakcha iskana, nova iskana, to'g'ri iskana, baliq sirti iskana, zamin iskana, chekma iskana, hovza iskana, morpech iskana, gurzi* va boshqalar. Naqsh zamini o'yib bo'lingach, *gurzi* bilan *chakichlab* chiqiladi. Chakich o'ymani yanada ko'rimli qiladi. O'yima tugallangandan so'ng ustiga yopishtirilgan qog'oz olib tashlanadi. Amaliy san'atning ganch o'ymakorligi turida ham sopol, chiniga gul solishda, naqqoshlikda va boshqalarda ishlati-



ladigan aylana (davra) naqshlarning ba'zi birlari pargori deb ataladi. Yog'och o'ymakorligida quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

*Yog'ochga gul o'yish.* Usta bir buyumni yasash va unga pardo berishdan avval uning *xomaki umumiy nusxasini* bajaradi. Xomaki nusxa ma'qul bo'lgach, yog'och tanlashga o'tiladi. Yog'och o'ymaga chiroyliligi, tuzilishi va rangi bilan mos bo'lishi kerak. Uning suvda saqlanganligi va yaxshilab quritilganligiga ham ahamiyat beriladi. Chunki bu bosqichlar to'liq bajarilmasa, o'yma yorilib ketishi mumkin. Yog'och tanlab bo'lingach, duradgorlik ishlari boshlab yuboriladi. Dastlab buyum detallari yasaladi. Masalan, ikki tabaqali o'zbek milliy eshigini badiiy bezash uchun avval eshikning *bozisi, dilasi va reykasini* tayyorlanadi. Duradgorlik ishlari bajarilgach, naqsh tushiriladigan *joy xatlash, lineyka* yordamida qalamda belgilab chiqiladi. *Naqsh nusxasining axtasi* tayyorlanib, eshikka *xoka* yordamida tushiriladi. Tekis yuzaga naqsh tushirilib, ustidan qalam bilan chizib chiqiladi. Shu qalam chizg'ichning ustidan *esmush* (tig'i o'tkir burchakli asbob bo'lib, pardo ishlarida ishlatiladi) bir xil qilib ochib chiqiladi. Yog'ochga gul o'yishda turli-tuman ko'rinishda kesadigan, tig'i po'latdan bo'lgan iskanalar ishlatiladi. Bu o'yuvchi asboblarning turlari o'yiladigan naqshning shakl va tuzilishiga qarab belgilanadi. Lekin ba'zi ustalarimiz juda

kam asbob ishlatadi. Azaldan har bir gulning o'z asbo-bi bo'lgani bois ular qancha ko'p bo'lsa, ish shuncha muvaffaqiyatli chiqadi. Esmush bilan kesib chiqilgan naqsh chiziq-lari to'g'ri va egri iskanalar yordamida kesib chiqiladi. So'ngra to'g'ri iskanada asta-sekin naqsh zamini olib chiqiladi. Naqsh zamini o'yib bo'lingandan keyin zamin tekshirib chiqiladi. Chunki o'yma chuqurligi bir millimetrdan yigirma millimetrgacha bo'lishi mumkin. **Nova iskana** yordamida naqsh relyeflariga pardo beriladi. *Esmushda esa novdalarga ariqchalar* ochiladi. *Relyef* pardoqlangandan keyin *o'yma zamin chekma qalam* bilan *chekmalab chiqiladi*. Shundan so'ng eshik yaxshilab *jilvir qog'ozda jilvirlanadi*. Jilvirlangan yuza yaxshilab pardoqlanib, rangsiz lok bilan asta loklanadi. Eshikka *rangsiz lok* berilganda yog'ochning nafisligi va go'zalligi yaqqol ko'rinadi. *Lok* qurigach, eshik asta-sekin yig'iladi. *Bozi va dilani* bir-biriga joylashtirib reyka bilan yig'iladi. Tayyor bo'lgan eshik *kesakiga* joylanib, *oshiq-moshiqlari* o'rnatiladi.

Xullas, milliy hunarmandchilikning muhim tarmog'i bo'lgan o'ymakorlik terminologiyasining lingvistik xususiyatlarini batafsil monografik planda tadqiq etish tilshunoslarimiz oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa milliy terminologiyaning yanada rivojlanishini ta'minlash hamda uning lug'at zaxirasini oshirishda o'ta muhim ahamiyatga ega.

**Qahramon RAYIMOV,**

*Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*

## TIL VA NUTQ PARADIGMALARINING SISTEM TAHLILI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada bugungacha jiddiy tadqiq etilmagan til va nutq paradigmalarining sistem tahlili masalasi yoritilgan va ularga munosabat bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *paradigma, paradigmatic munosabat, til va nutq tadqiqi.*

**Annotation.** *This article discusses and addresses the issue of systematic analysis of language and speech paradigms, which has not been seriously studied so far.*

**Key words:** *paradigm, paradigmatic approach, language and speech research.*

**Аннотация.** *В данной статье обсуждается и решается вопрос систематического анализа языковых и речевых парадигм, который до сих пор серьезно не изучен.*

**Ключевые слова:** *парадигма, парадигматический подход, исследование языка и речи.*

O'zbek tili matnini pragmatik yo'nalishda o'rganish lisoniy birliklarning an'anaviy tilshunoslikda e'tibordan chetda qolgan jihatlarini yoritishda tadqiqotchi uchun katta imkoniyat beradi. Matn singari sintaktik birliklarni bunday usulda o'rganish ularning pragmasemantik sistemadagi o'rnini belgilashga yo'l ochadi. Sinonimiya hodisasi tilshunoslikda atroflicha o'rganilgan masalalardan biri sanaladi. Lekin tilshunoslikning hozirgi kungi taraqqiyoti sinonimiya hodisasini nafaqat leksik va grammatik sathda, balki pragmatik jihatdan ham tadqiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, bu hodisani til va nutq bosqichida o'zaro aloqadorlikda tadqiq etish uning o'ziga xos yangi-yangi xususiyatlarini ochib beradi. Chunki sistem leksikologiya va hozirgi semasiologiya hamda onomasiologiya tilshunoslikda mufassal tavsiflangan lug'aviy si-

nonimiya masalasini yangi nuqtayi nazardan tadqiq etish muammosini o'rtaga qo'yadi. Shuning uchun bu hodisani til va nutq bosqichida o'zaro aloqadorlikda hamda qarama-qarshilikda (opozitsiyada) tahlil etish zarurati yuzaga keladi. Til bosqichida sinonimiya hodisasi muayyan qolip sifatida mavjud bo'lib, atash va ifoda ma'nosi bilan umumiylikni hosil qiladi. Masalan: aft, bashara, so'xt, yuz, oraz, chehra, jamol kabi sinonimlar atash ma'nosi bilan bir sinonimik qatorni tashkil etadi.

Agar sinonimik qatordagi so'zlar S bilan, ularning sonini N bilan belgilansa, u holda – S<sub>N</sub>qN. Chunki sinonimiyaning sharti atash ma'nosi bir xil bo'lishidadir. So'zlarning soni qancha bo'lishidan qat'i nazar, barchasi atash ma'nosi bilan umumlashadi. Ushbu model-qolip til bosqichida leksik sinonimiyani aks ettiradi. Agar

grammatik sathdagi sinonimiyani aks ettirsa, u holda so'z – S o'rnida grammatik shaklni GrSh<sub>N</sub> deb belgilasak, grammatik shakl yoki so'z shaklining sinonimik sharti ifoda ma'nosi – grammatik ma'nosining bir xilligi bo'ladi. Bunday grammatik sinonimiyani til bosqichida GrSh<sub>N</sub>ql<sub>gr.m.</sub> qolip-model orqali ifodalashi mumkin. Agar sinonimiya hodisasi sintaktik butunliklar – so'z birikmasi va gap doirasida bo'lsa ham yuqoridagicha holat takrorlanadi. Faqat sinonimik qator elementi so'z birikmasi yoki gap bo'lib qoladi. Agar biz so'z birikmasini SB<sub>N</sub> deb belgilasak, u holda bunday sinonimiyaning til bosqichidagi qolipi SB<sub>N</sub>qN<sub>sb</sub> tarzida ifodalanadi. Agar sinonimik qator elementi gap bo'lsa, gapni G deb belgilasak, u holda bunday sinonimiyaning til bosqichidagi modelini G<sub>N</sub>qN tarzida ifodalash mumkin. Agar sinonimik qator elementi matn bo'lsa, uni T<sub>N</sub>qN tarzidagi model bilan ifodalash mumkin bo'ladi. Yuqoridagi holatlarni umumlashtiradigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

1. S<sub>N</sub>qN – leksik sinonimiya.
2. GrSh<sub>N</sub>ql – morfologik sinonimiya.
3. G<sub>N</sub>qN – sintaktik sinonimiya.
4. SB<sub>N</sub>qN – sintaktik sinonimiya.
5. T<sub>N</sub>qN – matn sinonimiyasi.

Biz yuqoridagi so'z, grammatik shakl, so'z birikmasi, gap, matnning atash va ifoda ma'nolari o'zaro teng kelib qolish sharti asosidagi sinonimiya hodisasining til bosqichidagi qoliplarini ko'rib chiqdik. Ko'rib o'tilgan qoliplarning nutq bosqichidagi manifestatsiyalarida o'ziga xos murakkablik yuzaga keladi. Bunday murakkablik hatto cheksizlikkacha yetib borishi mumkin. Sinonimiya hodisasi nutq bosqichidagi ifoda va atash ma'nosi yoki pragmatik ma'nosining teng kelishi bilan sinonimik qatorni tashkil etadi. Pragmatik ma'no bilan sinonimik qatorni tashkil etgan sinonimlar pragmatik sinonimlar deb ataladi. Ularning atash ma'nolari o'zaro teng kelmasligi nutqiy jarayon bilan bog'liq. Sinonimiya hodisasining leksik sathdagi xususiyatlarini to'rt xil yondashuv asosida tahlil etish an'anaga aylangan. Ma'no tomondan bir xilligi, o'zaro paradigmadagi erkin almashinishi, uslubiy o'xshashlik va kontekstual-matniy bog'liqlik kabi asoslar orqali leksik sinonimiya tadqiq etiladi. Mantiqiy bog'liqlik asosida ajratilgan sinonimlar nutqiy jarayonda nutqiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan ma'nolar o'xshashligi orqali belgilanadi. Shuning uchun ularni sinonimlar deb atash mumkin. Ular ba'zi ishlarda denotativ sinonimlar deb ham ataladi hamda lisoniy sinonimiyadan bir muncha cheklanganligi uqtiladi. Sinonimiya hodisasiga kategoriya sifatida yondashilsa, uning lisoniy, mazmuniy, pragmatik kategoriya ekanligi aniq bo'ladi. Lisoniy kategoriya sifatidagi sinonimiya pragmatik sinonimiya bilan o'zaro teng munosabatda turmaydi. Ularning bir

uyani hosil qilish asoslari ham turlicha bo'ladi. Leksik sinonimiya lisoniy kategoriya sifatida belgilanib, umumiy atash ma'nosi bilan bir uyani tashkil etadi. Pragmatik sinonimiya esa mazmuniy kategoriya bo'lib, so'zlarning nutqiy vaziyatda anglatgan ma'nolari o'zaro teng kelib qolishi orqali bir uyani tashkil etadi. So'zlarning nutqiy jarayon bilan bog'liq holda anglatgan ma'nolari okkozi-onal ma'no bo'lib, boshqa nutqiy vaziyatda ushbu ma'no bilan ishtirok etmaydi. Hatto atash ma'nosiga o'xshagan ma'no kasb etishi ham mumkin. Bunday holatning yuzaga kelishiga nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutqdan tashqari ohang, imo-ishora, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabat ta'sir etadi. Masalan, *muvozanat* so'zi leksik jihatdan jismlarning qarama-qarshi yo'nalgan teng kuchlar ta'siridagi tinch, turg'un holati; qarama-qarshi kuchlarning tenglashuvi, uyg'unlashuvi tufayli sodir bo'lgan nisbiy turg'unlik, osoyishtalikni ifodalaydi. Ushbu so'z muayyan nutqiy vaziyatda *munosabat* so'zi bilan sinonimik uyani tashkil etishi mumkin: *tabiat hodisalari o'rtasida munosabat – tabiat hodisalari o'rtasidagi muvozanat*. Ba'zan o'zaro bog'liqlik asosida sinonimiyani tashkil etadi. Shuning uchun ularning barchasini bir umumiy nom – pragmatik sinonimiya nomi bilan umumlashtirib, uning ichida turuvchi mikrosistemalarning o'ziga xos tomonlarini yoki farqlanuvchi xususiyatlarini ochib berish hozirgi kunda dolzarblik kasb etmoqda. Adabiyotlarda ta'kidlanayotgan kontekstual, denotativ, okkozi-onal, presuppozitsion sinonimlar leksik sinonimlardan farqlanadi. Ular atash ma'nolari bilan emas, nutqiy-pragmatik ma'nolari bilan bir uyani tashkil etadi.

Pragmatik sinonimiya makrosistema bo'lib, leksik sinonimiya bilan o'zaro oppozitsiyada turadi va shu ziddiyat asosida belgilanadi. Leksikologik kategoriyalar asosida belgilanadigan sinonimlar hosil qilgan mikrosistemalar leksik sinonimiya makrosistemasining elementi bo'ladi. Pragmatik kategoriyalar orqali belgilanadigan sinonimlar: okkozi-onal, kontekstual, presuppozitsion sinonimlar mikrosistemani tashkil etib, pragmatik sinonimiya makrosistemasining elementi bo'ladi. Sinonimiya makrosistemasini tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi munosabatlar xilma-xil bo'lib, ular alohida maqola ko'lamiga ega. Shuning uchun ular haqida to'xtalmadik.

Xullas, sinonimiya hodisasining onomosiologik tahlili uning o'ziga xos yangi qirralarini ochib beradi. Bu esa sinonimiya hodisasi bilan bog'liq bo'lgan boshqa lisoniy birliklarning ham tadqiqida o'ziga xos o'rin tutadi, ayniqsa, adabiyotshunoslikdagi germenevtika, tilshunoslikdagi pragmatik yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning mohiyatini ochib beruvchi uzvlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Nurmonov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (morfologiya). – Toshkent, 2001.
2. Rahimov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. – Samarqand, 1994.
3. Новиков Л.А. Семантика русского языка. – Москва, 1982.
4. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 1974.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-tom. – Moskva, 1981.
6. A.Eshmo'minov. O'zbek tili milliy korpusining sinonimik bazasini yaratish me'yorlari // So'z san'ati, Journal of Word Art 2019/3. – pp. 29–33.
7. Toirova G. Leksik sinonimlarni o'rgatishdagi muammolar // O'zbek tili va adabiyoti, 2010/6. 22–25-betlar.

Lola NISHANOVA,  
 Toshkent davlat sharqshunoslik  
 universiteti mustaqil tadqiqotchisi

## URDU TILINING LUG'AT TARKIBIDA INGLIZ O'ZLASHMALARINING O'RNI

**Annotatsiya.** Maqolada urdu tilida keng qo'llaniladigan inglizcha o'zlashmalar tahlil qilingan, og'zaki va yozma nutqda uchraydigan inglizcha o'zlashmalarining fonetik va grafik dubletligi qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** konversiya, formant, grafik dubletlik, fonetik dubletlik, o'zlashma so'z, mavhum ot, aniq ot, frazeologik birlik.

**Annotation.** The present article analyzes the most common English loanwords in Urdu and underlines the phonetic and graphic doublet of English loanwords in oral and written speech.

**Keywords:** conversion, formant, graphic doublet, phonetic doublet, loanword, abstract noun, concrete noun, phraseological unit.

**Аннотация.** В статье анализируются наиболее широкоупотребительные английские заимствования в урду и отмечается фонетическая и графическая дублетность английских слов, встречающийся в устной и письменной речи.

**Ключевые слова:** конверсия, формант, графическая дублетность, фонетическая дублетность, заимствованное слово, абстрактное существительное, конкретное существительное, фразеологическая единица.

Pokistonning rasmiy tili sanaluvchi urdu tili o'z ichiga fors, arab, turkiy va boshqa tillardan ko'plab o'zlashmalarni olgan. Hozirda ham o'zaro uzviy aloqalar natijasida ingliz tilidan urdu va mahalliy tillarga so'z va iboralar o'zlashishda davom etmoqda. Ingliz tili Pokistonning har bir sohasida mahalliylashish jarayonini boshdan kechirmoqda, ammo bu mahalliylashish jarayoni har bir sohada alohida va o'ziga xos tarzda amalga oshmoqda. Jumladan, ta'lim, tibbiyot va harbiy sohada inglizcha o'zlashmalar birmuncha ko'p, adabiyot sohasida esa bunday o'zlashmalardan kam foydalanilayotganligining guvohi bo'lamiz. Ingliz tilining urdu tiliga jiddiy ta'sirini uning Pokistonning rasmiy tillaridan biri ekanligi va mazkur til dunyo miqyosida xalqaro maqomga egaligi bilan ham izohlanadi. Janubiy Osiyo subkontinentidagi bunday o'zgarishlarga dunyo tilshunoslari jiddiy qiziqish bildirishmoqda va bu mavzuda qator tadqiqotlar olib borilgan. Bunday dolzarb leksik material nafaqat xorijiy tilshunoslarning, balki o'zbek tilshunoslarining ham e'tiboridan chetda qolmagan.

Urdu tiliga o'zlashgan inglizcha so'zlar, asosan, ot va sifat so'z turkumlariga oidligi bilan e'tiborni tortadi. Ot so'z turkumiga xos ba'zi ko'plik sondagi inglizcha so'zlar urduchada birlikda qo'llanilishi ham kuzatiladi. Jumladan: **fee** < فيس **fi:s** *ms a'zolik badali, badal, to'lov*. **Sport** < اسپورٹس **ispo'rts** *m* 1. Sport. 2. Sport o'yinlari. Ingliz o'zlashmalari nafaqat maxsus sohalarda, balki kundalik hayotda ham o'zining mustahkam o'rniga ega. Inglizcha o'zlashmalar urdu tilidagi fonetik qoidalarga moslashgan holatda ham, manba tilga yaqin bo'lgan variantda ham kiritilgan. Bunga misol tariqasida quyidagi o'zlashmalarni keltirish mumkin: **street** < اسٹریٹ

(سٹریٹ) **istri:t (stri:t)** *ms* ko'cha. **Screen** < اسکرین (سکرین) **iskri:n (skri:n, sikri:n)** *m* 1. Ekran; parda. **School** < اسکول (سکول) **isku:l (sku:l)** *m* maktab.

Keltirilgan misollarga tayanib aytish mumkinki, mazkur inglizcha so'zlar og'zaki nutq orqali urdu tiliga o'zlashgan. Bu dublet so'zlar aslo bir-birining ishlatilishiga to'sqinlik qilmaydi. Lug'atlarda bu so'zlarning ikki xil ko'rinishi ham keltirib o'tilgan. Fonetik dubletlik (takrorlanish) ko'proq og'zaki nutqqa xos bo'lib, ingliz tiliga yaqin bo'lgan varianti ko'proq yozma nutqqa xos hisoblanadi.

Fonetika va grafika o'zaro bir-biriga bog'liq tizimlar bo'lgani sababli fonetik xususiyatlar urdu tilining grafik tizimida ham yaqqol ifodalanadi. Ya'ni yuqorida berilgan fonetik jihatlarni o'zlashtirib kirgan ingliz so'zlar yozuv jihatidan ham misollarga kiritilishi mumkin. Masalan: **standard** < اسٹینڈرڈ (سٹینڈرڈ) **istenderd (stenderd)** *m* me'yor, standart. **Staff** < اسٹاف (سٹاف) **ista:f (sta:f)** *m* 1. Xodimlar (kadrlar) hay'ati, shtat; 2. Ekipaj, komanda. Bu misollar tilshunoslik nuqtayi nazaridan juda ahamiyatli. Bu jarayon mazkur o'zlashmalar urdu tiliga ancha oldin kirib kelganidan, fonetik va grafik nuqtayi nazardan to'liq o'zlashib bo'lganligidan dalolat beradi. Ingliz tilini bilmaydigan inson bunday o'zlashmalarni sof urdu tilining o'ziga xos bo'lgan leksikasi sifatida qabul qilishi ham ehtimoldan xoli emas.

Urdu tili alohida fonetik tizimga ega. Unda cho'ziqlik va qisqalik muhim rol o'ynaydi. Mazkur fonetik tizim, albatta, yozuvda ham o'z aksini topadi. Inglizcha o'zlashmalarda grafik dublikatsiya holatlari ko'p uchraydi. Quyida o'zlashmalar urdu tili yozuviga moslashtirilganligi, ammo uning manba tilga yaqin ko'rinishi ham

saqlanib qolganligining guvohi bo'lamiz: **sock** < ساكس (سوكس) **sa:ks (so'ks)** *m* paypoq. **pa:kit (po'kit)** *ms* 1. Cho'ntak, kissa. 2. Paket. **Restaurant** < ريسٲورنٲ (*ريستورنٲ*) **restora:n (resto'rent)** *m* restoran. **Sandwich** < سينويچ (سينويچ) **sendvi:ch (senvich)** *m* sendvich, bu-terbrod.

Urdu tiliga o'zlashgan inglizcha leksikaning grafik jihatdan o'ziga xosligi quyidagi misollarda yaqqol ko'zga tashlanadi: **semester** < سمسٲر (سميسٲر) **semestar** *m* o'quv semestri. **Seminar** < سمينار (سيمينار) **semi:na:r** *m* 1. Seminar, anjuman; 2. Muzokara. Bu so'zlarning talafuzi bir xil, ammo yozuvida farq bor. Bunday o'ziga xosliklar ingliz o'zlashmalariga xos holat bo'lib, urdu tilida bunday misollarni tez-tez uchratish mumkin.

Urdu tiliga ingliz tilidan ot so'z turkumiga mansub so'zlar ko'p o'zlashganini payqash qiyin emas. Aynan aniq (konkret) otlar mavhum (abstrakt) otlarga qaraganda ko'proq uchraydi. Ingliz tilidan o'zlashgan otlar urdu tilining fonetik, grafik va grammatik tizimlariga moslashtirilgan. To'plangan misollarni tahlil qilish jarayonida alohida e'tiborga loyiq hodisa kuzatildi: urdu tili ingliz tilidagi fe'llarni fe'l sifatida emas, balki ot sifatida o'zlashtirib olgan. Mazkur inglizcha fe'llar urdu tilida fe'l vazifasini bajarish uchun urdu tilining **karna**: بونا **ho'na**: انا **a:na**: va hokazo fe'llari bilan birga ishlatiladi. Jumladan: **to select** < سليكت كرنا **silekt karna**: – tanlamoq, **to like** < لانك كارنا **la:yk karna**: – yaxshi ko'rmok, **to break** < بريك بونا **breyk ho'na**: – sinmok, ishdan chiqmok, **to smuggle** < سميگل كرنا **smagl karna**: – noqonuniy yo'l bilan chegaradan mol olib o'tish.

Ingliz tilida *to select* – *tanlamoq* fe'li urdu tiliga o'zlashganida **karna**: fe'li bilan birga keladi. **silekt karna**: fe'li tarkibida bu inglizcha so'z ot vazifasida kelmoqda. Ingliz tilida esa *select* so'zini ot sifatida ishlatib bo'lmaydi, uning ot shakli *selection* – *tanlash* ko'rinishida bo'ladi. Xuddi shu holatni **smagl karna**: fe'li bilan ham kuzatish mumkin. Ingliz tilida *to smuggle* faqat fe'l vazifasida ishlatiladi. Uning ot ko'rinishi *smuggling* bo'ladi. Ingliz tilida so'z yasashda konversiya usuli mavjud. Bu yerda esa tillar o'rtasida konversiya hodisasi yuz berayotganini kuzatish mumkin.

So'zlashuvda ba'zi hollarda inglizcha so'zlarning urdu tilidagi so'zlarga sinonim sifatida ishlatilishini ham ko'rish mumkin: **istemal karna**: استعمال كرنا – *foydalanmoq*, **iste'mol qilmoq** fe'lini gapda qo'llash uchun **ka**: پسلهلolini ishlatish kerak bo'lsa, inglizcha *to use* fe'lidan o'zlashgan **yu:z karna**: يوز كرنا so'zidan foydalanishda ham **ka**: پسلهلolini ishlatish talab etiladi.

Inglizcha o'zlashma sifatlarning tayyor inglizcha varianti ham, urduchaga moslashtirilgan varianti ham keng qo'llaniladi. Urdu chaga moslashtirilgan varianti

so'zga urducha qo'shimcha qo'shish orqali yasalganini ko'rish mumkin. Urducha-o'zbekcha, urducha-ruscha lug'atlarda bunday sifatlarning ikki xil varianti ham keltirilgan. Bu sifatlarning sinonim sifatida ishlatilishi mumkin. Quyida inglizchadan tayyor o'zlashgan va urdu chaga moslashtirilgan sifatlarni sinonim sifatida ko'rib chiqamiz: **scientific** < سائنٲفك **sa:yntifik** – *ilmiy, ilm-fanga oid* = **Science** < سائنسي **sa:ynsi**: – *ilmiy, ilm-fanga oid*. **European** < يورپين **yu:ropi:en** – *yevropalik* = **Europe** < يورپوي **yu:ro'pi**: – *yevropalik*.

Urdu tilida ingliz tilidagi so'zlar ta'sirida hosil bo'lgan gibrid so'zlar ham bor. Etimologik jihatdan ularni o'zlashma deb qabul qilish noto'g'ri, chunki bunday so'zlarning bir qismi inglizcha so'z bo'lsa, ikkinchi qismi urdu tiliga taalluqli. Bunday usul bilan hosil qilingan so'zlar urdu tilining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi: **rail** – temir yo'l. گاڑی **ga:ri**: – *ms* vagon; poyezd < ریل گاڑی **relga:ri**: *ms* poyezd. **Cinema** – kino, kinoteatr. گھر **ghar** – *m* uy < سینما گھر **si:nema ghar** *m* kinoteatr. **Double** – ikkita. روٹی **ro'ti**: – *ms* non < ڈبل روٹی **dabl ro'ti**: – bo'lka non. Inglizcha so'zlar urdu so'zlari bilan birga frazeologik birikmalar hosil qilishi mumkin. Urdu tilida bunday frazeologik birikmalar talaygina. Jumladan: **pocket** < پوکت گرم کرنا **po'kit garm karna**: – *pora bermok*. **Bottle** < بوتل چڑھانا **bo'tal charha:na**: – *sharob ichmok*.

Keltirilgan misollar urdu tilida keng qo'llaniladi va bu tilda so'zlashuvchilar ularni o'z tillariga moslashtirib, xuddi o'zlarining so'zlaridek qabul qilishgan. Pokistonda inglizcha o'zlashmalar urdu tilidagi so'zlarga o'xshatib talaffuz qilinadi. Bu jarayon fonetik o'zlashtirishdan dalolat beradi. Bu hodisa, asosan, *sp*, *st*, *sk* undosh tovushlari so'z boshida birga kelganida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu undosh tovushlarning so'z boshida birga kelishi urdu tili uchun xos hisoblanmaydi. Shuning uchun urdu tilidagi bunday o'zlashmalarga so'z boshida "i" tovushi qo'shiladi. Bu jarayon ham fonetik, ham grafik tizimda namoyon bo'ladi.

Tillar uchun o'zga tildan o'zlashmalarni qabul qilish jarayonida ularni o'z ona tiliga moslashtirish tabiiy jarayon hisoblanadi, lekin urdu tiliga o'zlashtirilgan ba'zi inglizcha so'zlarning shunchalik o'zgartiriligidan uning aslida qaysi tilga tegishli ekanligini ajratish qiyin. Bunga ingliz tilidan o'zlashgan **la:lteyn** so'zini misol qilib olishimiz mumkin. **lantern** < لائٲن **la:lteyn** – *ms* fonus, chiroq. Urdu tili ingliz tilidan o'zlashmalarni qabul qilishda uning ba'zi komponentlarini o'zining tiliga xos komponentlar bilan almashtirishi mumkin. Inglizcha **policeman** so'zidagi ikkinchi komponent urdu tiliga xos **-va:la**: shaxs nomini yasovchi qo'shimchasi (formanti) bilan almashtirilgani yuqoridagi gapimizga isbot bo'la oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
2. M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
3. T.Xolmirzayev. Urducha-o'zbekcha lug'at. – Pokiston: Muqtadira Qaumi Zaban, 2003.
4. O.C.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Сов.энциклопедия, 1996.

Shahnoza XO'JANIYAZOVA,

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs tayanch doktoranti

## ALISHER NAVOIYNING MANOQIB ASARLARIDA QO'LLANGAN ZONIMLARNING LEKSEK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqola Alisher Navoiy *manoqiblarida qo'llangan zoologik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari, etimologiyasi va genetik tomonlari tahliliga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** fauna, zoonim, umumturkiy, o'zlashma, lug'at tarkibi, semantika, sinonim, kichraytirish.

**Annotation.** The article focuses on the analysis of lexical-semantic features, etymology and genetic aspects of zoological terms used in the works of Alisher Navoi.

**Key words:** fauna, zoonym, all-Turkic, assimilation, dictionary structure, semantics, synonym, reduction.

**Аннотация.** Статья посвящена анализу лексико-семантических особенностей, этимологии и генетических аспектов зоологических терминов, используемых в стихотворениях Алишера Навои.

**Ключевые слова:** фауна, зoonим, общетюркский, ассимиляция, словарная структура, семантика, синоним, редукция.

Tabiatda mavjud bo'lgan o'simlik hamda hayvonot dunyosi – fauna va flora xilma-xilma bo'lib, mazkur rang-baranglik tilda ham ma'lum darajada o'z aksini topgan. E'tiborli jihati shundaki, zoologik terminlar ham tilning boshqa qatlamlari singari turkiy xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayoti bilan uzviylikda rivojlangan, o'zgargan va boyigan. Eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan zoonimlarning asosiy qismini qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda faol qo'llangan hayvon nomlari tashkil etadi. XI–XIV asrlar turkiy yozma manbalar tilidagi zoologik terminlarning genetik tadqiqi bu davr zoonimlar asosini umumturkiy so'zlar tashkil etishini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu terminologik tizimda mo'g'ul, arab, fors-tojik va hind-yevropa tillaridan o'zlashgan qatlam ham qo'llangani ma'lum<sup>1</sup>.

Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" *manoqiblarida o'z va o'zlashgan qatlamga mansub bir qancha zoonimlar qo'llangan. Chunonchi, bulbul, dev, it, qo'y-qo'zi, xuffosh, tovuq, tovus kabi.*

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida zoonimlar, jumladan, yuzdan ortiq qush nomi keltirilgan<sup>2</sup>. Hozirgi turkiy tillar lug'at tarkibidan o'rin olgan ko'pdan ko'p qushlar, hasharotlar, yovvoyi va uy hayvonlarining nomlari umumturkiy leksikaning qadimgi qatlamiga borib taqaladi<sup>3</sup>.

Manoqiblarda qo'llangan zoonimlarni leksik-semantik jihatdan quyidagicha guruhlashtirish mumkin: a) xonaki hayvonlarni ifodalovchi zoonimlar: *it, qo'y-qo'zi*; b) uy parandalarini bildiruvchi zoonimlar: *tovuq, bulbul, xuffosh, tovus*.

*It* zoonimi birinchi marta *it ko'ni* birikmasi tarkibida Turfon matnlarida ishlatilgani xususidagi ma'lumot "Qadimgi turkiy lug'at"da o'z ifodasini topgan<sup>4</sup>. Sutmuzuvchilar guruhi-ga kiruvchi *it* qo'riqlash, ov qilish uchun saqlanadigan to'rt oyoqli uy hayvoni. Ushbu zoonim hozirgi o'zbek adabiy tilida hech qanday morfologik, fonetik, semantik o'zgarishga uchramagan holda muomalada ishlatiladi. Bu ot qadimgi turkiy tilda *iyt* shaklida aytilgan (ba'zi o'zbek shevalarida hozir ham shunday talaffuz qilinadi), o'sha davridayoq y undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan, shuning hisobiga *i* unlisi cho'ziq aytilgan, keyinroq bu cho'ziqlik ham yo'qolgan

(Devon, I, 71; DTS, 215, 221): *iyt > i:t > it*. *Iyt* oti asli "nariga suruvchi, nariga qochiruvchi" ma'nosini bildirib, qadimgi turkiy tilda "nariga suril-" ma'nosini anglatgan *iyt*- fe'li ham mavjud bo'lgan (ESTYA, I, 386; O'TEL, I, 126). Badiiy adabiyotda *it* zoonimi o'rnida uning sinonimi *ko'ppak* ishlatiladi (O'TIL, I, 464). *Köpäk* so'zi hozirgi turk tilida o'zining asl ma'nosida saqlanib qolgan (TRSL, 566). *Agarchi sen bu baytda izhori kasri nafs qilbsen va o'zungni itga nisbat beribsen, ammo abnoyi jinsg'a dag'i ushbu nisbat voqe' bo'lubtur*<sup>5</sup>.

Qo'y leksemasi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lib, *hayvon* va *qo'y*= fe'li ma'nolarida ishlatiladi. 1) *qo'y*=; biror narsani yerga *qo'y*=; 2) *tashla*=, *tark et*=; 3) *suyan*=; 4) biror narsani ikkinchi narsa ustiga *qo'y*=; 5) *qoldir*=; 6) *qasdlan*=, *jazm qil*=; 7) *kech*=; 8) *bor*=, *kir*=; 9) *yaqinlash*=; *qovush*=; 10) *ozod et*= (ANATIL, IV, 87). *Qo'y* zoonimi "go'sht, jun, sut olish uchun boqiladigan juft tuyoqli sutmuzuvchi uy hayvoni" ma'nolariga ega. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu zoonim *qoy* (Devon, III, 155; DS, 453), *qon* (Devon, III, 154), *qoj* (DS, 453) shakllarida talaffuz qilingan; uning *qoyun*, *qoyin* shakllari ham keltirilgan (DS, 453). Mahmud Koshg'ariy bu so'zning *qon* shakli y undoshining *n* undoshi bilan almashinuvi natijasida hosil bo'lganligini ta'kidlaydi (Devon, III, 154); bu so'zning *qoch*, *qoy* shakllari ma'noda farqlanib, *qoy* "sovliq", *qoch* "qo'ch-qor" ma'nosini anglati boshlagan (Devon, I, 311; O'TEL, I, 583). "Holoti Pahlavon Muhammad"da *qo'y* leksemasi hayvon ma'nosida emas, balki "tashla=", *tark et*=" ma'nosida, "Xamsat ul-mutahayyirin"da "hayvon" ma'nosida qo'llangan:

– *Sen takalluf va kasri nafsni qo'y, voqe' yuzidin so'z aytki, buki: borini begonurmen dersen, borcha xud birdek emas, albatta, tafovut bor*<sup>6</sup>;

– *Eltgan nimalar orasida hamonokim bir e'tidoldin tashqari semiz qo'y uchasi dag'i bor ermish*<sup>7</sup>.

*Qo'zi* zoonimi "qo'yning bir yoshgacha bo'lgan bolasi" ma'nosini anglatadi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot *qozы* tarzida talaffuz qilingan (Devon, III, 243; DS, 462); keyinchalik o'zbek tilida *ы* unlisining qattiqlik belgisi yo'qolgan: *qozы > qozы* (O'TEL, I, 582).

“Xamsat ul-mutahayyirin” asarida qo‘y-qo‘zi juft oti tarzida qo‘llangan: *Anda dog‘i bir qo‘y-qo‘zi uchasi bor erdi* (747-bet).

Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atida “xo‘roz” va “tovuq” ma‘nolari uchun *taqa‘u* so‘zi qo‘llangan, ularning bir-biridan farqlashda erkagi *erkäk taqa‘u*, urg‘ochisi *tiši taqa‘u* zoonimi bilan ishlatilgan (Devon, I, 418). Uy parrandalari tarkibiga kiruvchi *tovuq* “go‘shiti, pati, tuxumi uchun boqiladigan urg‘ochi uy parrandasi” ma‘nosiga ega. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu zoonim asli *taquq* tarzida talaffuz qilingan (Devon, II, 330; DTS, 536); keyinchalik o‘zbek tilida birinchi *q* undoshi *g‘* undoshiga, *g‘* undoshi o‘z navbatida *v* undoshiga, *a* unlisi, *â* unlisiga almashgan: *taquq* > *tag‘uq* > *tavuuq* > *tâvuq* (O‘TEL, I, 344). So‘z *asnosida andoqki, tovug‘ ne dastur bila sabohlar katakin chiqarmoq ma‘huddur, tovuslarni asrag‘uchi ham uylaridin surub chiqordi*<sup>9</sup>.

Qushlar qadimda insonning xo‘jalik, madaniy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan. Ba‘zi turlari, asosan, ovlanadigan yoki ovchilikka oid bo‘lib, ularning go‘shiti va patidan foydalanilgan. Qushlarning ayrimlari hayvonlarni tutish maqsadida ovga o‘rgatilgan. Boshqa bir turlari esa manzara berish hamda ko‘ngil ochish uchun xizmat qilgan<sup>9</sup>.

O‘rta asrlarda hukmdor saroyida qushchilik lavozimi ham bo‘lib, u *qushchi* istilohi bilan ifodalangan. Hukmdor tomonidan uyushtiriladigan qush oviga mas‘ul shaxs kasbi, lavozimi *qushchiliq* istilohi bilan yuritilgan. Ushbu istiloh manobalardan “Holoti Said Hasan Ardasher” matnida qo‘llangan: *Alarning atosi Ardasher Boysung‘ur mirzo mulozimi erkandur. Qushchili shevasida mulozamat qilur erkandur*.

“Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da *bulbul* zoonimi “xushovoz, xushsuxan shoirlar, adiblar; oshiq; jon” ma‘nolarida ishlatilgan (I, 332). Chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush (O‘TIL, I, 369). Bu tojikcha o‘zlashma “chumchuqsimon sayroqi qush” ma‘nosini anglatadi (TJRS, 85); *bulbuli go‘yo* izofasi tarkibida qatnashib, “sayroqi bulbul” ma‘nosini, kesatiq bilan “tinmay javraydigan” ma‘nosini anglatadi (O‘TIL, I, 201). Tovush tuzilishini (bulbul) hisobga olib bu ot *bul-bul* tovushga taqlid takroridan o‘sib chiqqan deyish mumkin (O‘TEL, III, 51). *Bulbul* zoonimi ifodalagan ma‘no “Qutadg‘u bilig”da *sandvač*<sup>10</sup>, “Devonu lug‘otit-turk” da *sanduvač* istilohi bilan anglashilgan (DLT, I, 481), “Xamsat ul-mutahayyirin”da *bulbul* zoonimi majoziy “jon” ma‘no-

sida ishlatilgan, ya‘ni Abdurahmon Jomiyning joni uzilishi bilan bog‘liq jarayonni gavdalantirishda ishlatilgan: *...pok ruhlarining qudsiy oshyon bulbuli rihlat navosin og‘oz qilib, gulshani firdavs havosig‘a parvoz qildikim, aning kayfiyati sharh bila o‘z yerida, insholloh, sabt bo‘lg‘ay*.<sup>11</sup>

*Tovus* zoonimi bilan ifodalovchi qush qirg‘ovullar oilasiga mansub. U rang-barang patli, erkaklarining dumi yelpig‘ich shaklli chiroyli qush (O‘TIL, 4, 130). Arabcha *to-vus* so‘zi *tāvūs* (*un*) shakliga ega (ARS, 483); o‘zbek tiliga itqi undoshini *t* undoshiga, cho‘ziq *â*, *ū* unliharini *â*, *y* unlihariga almashtirib qabul qilingan: *tāvūs*→*tāvus* (*to-vus*); “bezadi” ma‘nosini anglatuvchi *tavvasa* fe‘lidan (ARS, 43), asli “bezangan” ma‘nosini anglatadi; bu so‘z shunday xususiyatli qushning nomiga aylangan (O‘TIL, II, 195; O‘TEL, II, 445). Hindcha zoonimlar qatorida berilgan *to-vusni* arabcha, sheri obiy izofasini tojikcha deb baholash to‘g‘ri bo‘ladi<sup>12</sup>. “Xamsat ul-mutahayyirin”da bu zoonim o‘zining birlamchi ma‘nosida qo‘llangan: *Bu fikrga tushtumkim, o‘z muddaom isbotini ne nav‘ qilg‘aymenkim, bu holatda mast nar to-vus yugurdi*<sup>13</sup>.

*Ko‘rshapalak* zoonimi ko‘magida nomlanadigan qush qo‘lqanotli sutemizuvchilar turkumiga mansub. U tunda faol hayot kechiruvchi, ko‘zi yaxshi ko‘rmaydigan, eshitish a‘zosi faol rivojlangan jonivor (O‘TIL, II, 472). *Ko‘rshapalak zoonimi* forscha o‘zlashma bo‘lib, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida uning *ajajəpəçgə* muqobili uchraydi. *Ko‘rshapalak* zooleksemasi ispan tilidagi leksikografik manbalarda *murciélago* tarzida qayd etilgan va o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z *ko‘rsichqon* deb tarjima qilinadi. Metaforalashtirish negizida ko‘r-ko‘rona tez va shovqinsiz harakat ma‘nosi mujassam hamda ko‘rshapalakning qanoti borligini hisobga olmaganda, tana tuzilishi ko‘zlari sichqon bilan o‘xshashligi *murciélago* nomining kelib chiqishiga sabab bo‘lgan<sup>14</sup>. Bu jonivor Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida *xuffosh* zoonimi bilan anglashilgan: *...bir necha tiyra ro‘zgor xuffoshlaru parv bol ochib, nazarbozliq va baland parvozliq havosida jilva qilurlar* (740-bet).

Xullas, Alisher Navoiyning manobalari asarlarida qo‘llangan zoonimlar bilan bog‘liq terminlar nafaqat eski o‘zbek adabiy tili, balki hozirgi o‘zbek adabiy tilining ham boyishiga katta hissa qo‘shgan. Navoiy manobalar matnida zoonimlarni nafaqat birlamchi (asl), balki majoziy ma‘nolarda ham qo‘llab, ularning ma‘no doirasini kengaytirgan. Bu jihat adibning so‘z yoki istilohlarga yangi ma‘no yuklash mahoratining yuksakligidan dalolat beradi.

<sup>1</sup> B.Abdishukurov. Alisher Navoiy asarlaridagi zoonimlar. Alisher Navoiy va XXI asr. Respublika ilmiy-nazariy anjumani. – Toshkent, 2017. 217-bet.

<sup>2</sup> B.Abdishukurov. XI–XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar. Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 1998. 22-bet.

<sup>3</sup> Базарова Д.Х. История формирования и развития зоологической терминологии узбекского языка. Ташкент: Фан, 1978. – С. 3.

<sup>4</sup> B.Abdishukurov. XI–XIV asrlarga oid yozma manbalar tili. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. 7-bet.

<sup>5</sup> Sh.Egamova. Alisher Navoiy asarlari tilida qadimgi turkiy leksika tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008. 94-bet.

<sup>6</sup> Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. XX jildlik, V jild. – Toshkent, 2013. 760-bet.

<sup>7</sup> Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. XX jildlik, X jild. – Toshkent, 2013. 26-bet.

<sup>8</sup> Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. XX jildlik, V jild. – Toshkent, 2013. 746-bet.

<sup>9</sup> Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. XX jildlik, V jild. – Toshkent, 2013. 748-bet.

<sup>10</sup> B.Abdishukurov. XI–XIV asrlarga oid yozma manbalar tili. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. 48-bet.

<sup>11</sup> M.Xolmurodova. “Qutadg‘u bilig” leksikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. 84-bet.

<sup>12</sup> Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyirin. XX jildlik, V jild. – Toshkent, 2013. 737-bet.

<sup>13</sup> Z.Xolmanova. “Bobur” leksikasi. Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 2007. 98-bet.

Mastura TOJIYEVA,

Termiz davlat universiteti Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

## INGLIZ VA O'ZBEK TILI MAQOLLARIDA METAFORA TATBIQI

**Annotatsiya.** Maqolada tarkibida “muhabbat” konsepti bo'lgan ingliz va o'zbek maqollarining metaforik jihatlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** metafora, konseptual metafora, antropomorfik metafora.

**Annotation.** The article deals with the metaphors in English and Uzbek proverbs, which contain the concept “love”.

**Key words:** metaphor, conceptual metaphor, anthropomorphic metaphor.

**Аннотация.** В статье рассматривается метафорическая сторона английских и узбекских пословиц, содержащих концепт “любовь”.

**Ключевые слова:** метафора, концептуальная метафора, антропоморфная метафора.

Ma'lumki, metafora bir buyum-narsaning nomini boshqa buyum-narsaga biror tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish ma'nosini anglatadi [2: 70] va bunda ifodalangan tasvir tushunchalardan birining muhim sifatini ta'kidlaydi, inson qiyofasi, jonli va jonsiz tabiat dunyosi, inson faoliyati sohalari, shuningdek, inson tomonidan ishlab chiqarilgan narsalar bilan taqqoslanadi.

Maqollar avloddan avlodga o'tib, ijtimoiy jihatdan adekvat shaxsni shakllantirishning axloqiy shart-sharoitlarini yaratadi, shuningdek, odamlarning dunyoqarashiga bo'lgan qarashlarini aks ettiradi. Maqollarda metafora tamoyillarini o'rganish odamlarning ma'lum bir tushunchaga munosabatini tushunish imkonini beradi. Shundan kelib chiqqan holda ushbu maqolada tarkibida “love” konsepti bo'lgan ingliz maqollari va o'zbek tilining paremiologik fondida “muhabbat” konseptining reprezentatsiyasi uchun tarkibida “sevgi”, “ishq”, “muhabbat” leksemalari bo'lgan maqollar ko'rib chiqildi.

*Muhabbat, sevgi va ishq* so'zlari sinonim bo'lib, ularning lug'aviy ma'nosi “biror shaxs yoki narsaga kuchli darajadagi moyillik (bog'lanish, berilish) his-sezgisini”ni anglatadi. [3: 173] Har qanday milliy madaniyatda sevgi, muhabbat hissi inson munosabatlarini to'liq ifoda etadi. Taqqoslangan etnik guruhlarining mentalitetida insonning psixo-emotsional holatida asosiy tuyg'u sifatida muhabbat buyukligi, faolligi bilan ajralib turadi. “Muhabbat” konsepti boshqa qator konseptlar singari jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini o'z ichiga olgan madaniyat konstantalariga tegishlilik bilan lingvomadaniy konseptlar orasida alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ushbu konseptni paremiologik materialda o'rganish to'g'ri bo'ladi.

Hissiy jarayonlar konseptual metaforalarda yorqin ifodalanadi. Metaforani kognitiv-lingvistik yondashuv orqali o'rgangan Lakoff va Jonson o'zlarining “Metaphors We Live By” asarida “metafora nafaqat kundalik hayotimiz, tilimizni, balki fikr-u xayolimiz va xatti-harakatlarimizni ham qamrab oladi”, deya e'tirof etadi. Ularning ta'kidlashicha, “metaforaning mohiyati bir narsani boshqa narsaga nisbatan tushunish va boshdan kechirishdir”. [4: 5] Boshqacha aytganda, ikkita konseptual domen mavjud bo'lib, ulardan biri boshqasi yordamida tushuniladi. Ushbu nazariyaga ko'ra kategoriyalar “manba” (source domain) va maqsad (target domain) maqomidagi konseptual domenlarga bo'linib, “manba” metafora ifodasining manbasi, maqsad tushunilgan metafora hisoblanadi.

Lakoff va Jonsonning konseptual metafora uchun keltirgan misollaridan biri “Love is a journey” bo'lib, undagi

*journey* yordamida *love* tushuniladi. “We went our separate ways” iborasida “muhabbat bu sayohat” deb tushunilgan konseptual domen, “muhabbat” maqsad domen sifatida va “sayohat” manba domeni sifatida, “ular ayro yo'llardan ketishdi” metaforik ifodasi bilan ifodalangan. Shunday qilib, ushbu misolda ifodalangan konsept shundan iboratki, muhabbat bilan yo'lga tushgan ikki kishi uchun alohida sayohatlar ularga “o'z yo'llari bilan borish”, ya'ni munosabatlarni tugatish bilan tenglashadi.

Ingliz va o'zbek maqollarida ham shunga o'xshash konseptual metaforalarni uchratish mumkin. Masalan, *Love is a flower which turns into fruit at marriage. Love is a game in which both players always cheat* (Muhabbat – o't-olov. Muhabbat – dil mevasi. Ishqsiz ko'ngil – egasiz uy).

O'zbek maqollarida muhabbatni olov konseptual metaforasi sifatida tasavvur etish holatlari ko'p kuzatiladi: “Muhabbat – o't-olov”; “Ishq – muqaddas o't, havas – loyqa suv”; “Muhabbatsiz umr – o't olmas ko'mir”; “Ishqsiz ko'ngil – o'tsiz o'choq”. Ushbu konseptual metaforalarda olov manba domeni va muhabbat maqsad domeni hisoblanadi. Muhabbat mavhum bo'lgan tajriba sohalaridan biri sifatida konseptlashadi va konkret bo'lgan olovning tajriba sohasi nuqtayi nazaridan tushunilishi mumkin. [5: 106] Masalan: *ular o'rtasidagi olov o'chdi; muhabbat so'ndi; u sevgi otashida yondi; bizning munosabatlarimizda alanga o'chdi* kabi iboralardagi *yonish, kuyish, alanga, so'nish* so'zlari olovni bildiradi, ammo *ular o'rtasidagi, bizning munosabatlarimiz* birikmalari sevgini aniqlaydi. Odamlar olovni yoqishning turli bosqichlarini muhabbatning turli bosqichlari bilan bog'lashlari mumkin. Ba'zan sevgi va olovda ham boshlanish, davomiylik va nihoya borligini ko'rsatadi. Yong'in intensivligidan kelib chiqadigan zarar sevgida pasayish tufayli oshiqchilarning psixologik zarariga ishora qilishi mumkin.

Metafora yordamida tasavvur yaratilib, adresat tomonidan qabul qilinadigan obraz yaratiladi. Adresat tasvir, ya'ni obrazdan ma'noni chiqaradi. [1] Shu tarzda metafora adresantga ma'lum semantik maydondan ma'no yetkazish uchun boshqa semantik domendan foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, metafora adresatga ma'no yaratilgan semantik maydonni ko'rish va metafora yordamida tasvirlangan tushunchaga nisbatan munosabatni anglash imkoniyatini yaratadi. Masalan, “muhabbat” konsepti quyida keltirilgan ingliz maqollarida *gul* yoki *bog'* tushunchalari jihatidan metaforizatsiyalangan: *Love is a fair garden and marriage a field of nettles. Love is a flower which turns into fruit at marriage.*

Demak, aytish mumkinki, “muhabbat” tushunchasini metaforizatsiyalash uchun *gul* yoki *bog'* tushunchalaridan foydalanish, birinchi navbatda, bu yoqimli tuyg'uni tashqi go'zallik bilan ko'rish imkonini bersa, ikkinchidan, bu muhabbatning gul kabi jozibali va yoqimli ko'rinishi bilan birga uning mo'rtligi va vaqtinchalik tabiatini eslatadi.

Madaniy konseptlar – antropotsentrikdir, ya'ni ular ma'naviyat, subyektivlik va etnik ong tashuvchisining ichki dunyosiga qaratilgan. “Antropotsentrik metafora bevosita insonning ichki va tashqi sifatleri bilan bog'liq bo'lgan metaforalardir. Bu metaforalar qanchalik rang-barang bo'lmasin, uning markazida inson turadi. Antropotsentrik metafora o'z ichiga antropomorfik metaforani ham oladi”. [6: 2] Antropomorfizm (yunoncha antropos – odam va morphe – shakl, ko'rinish) bu – inson qiyofasi va uning xususiyatlarini jonsiz narsalar, jonli va jonsiz tabiat hodisalari, shuningdek, mavhum tushunchalar, afsonaviy mavjudotlarga o'tkazish. Antropomorfizmni dunyoqarash tushunchasi sifatida ko'rib chiqish mumkin, unga ko'ra jonsiz narsalarga harakat qilish qobiliyati (yashash, o'lish, hissiyotlarni boshdan kechirish kabilar) berilgan. Antropomorfizm qadim zamonlardan beri tafakkurning metafora tabiatining eng muhim namoyonlaridan biri hisoblanadi. [7]

Ingliz va o'zbek maqollarida ham antropomorfik metaforani kuzatishimiz mumkin. Ingliz paremiyalarida muhabbat qudratli inson sifatida namoyon bo'ladi:

– Love conquers all;

- Love will go through stone walls;
- Love will find a way;
- It is love that makes the world go round;
- Love is stronger than death;
- Love laughs at locksmiths;
- Love rules the country without a sword;
- Love is as strong as death.

Ingliz maqollaridagi metafora mohiyati shundaki, inson fazilatleri u boshdan kechirgan sevgi tuyg'usiga sinestetik ravishda o'tkazilishiga asoslanadi.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan maqollardagi *conquers, go through, find a way, makes the world go round, laughs, rules* harakatli fe'llar orqali “muhabbat” timsolini harakat qilish, kulish, jang qilish, boshqarish, ya'ni odam kabi ongli harakatlarni amalga oshirishga qodir ongli mavjudot sifatida tasvirlaydi.

Insonga xos fazilatlarining “muhabbat” timsoli yordamida metaforik ifodalanishini o'zbek maqollarida ham kuzatish mumkin. Masalan: “Muhabbat boylikka boqmas”, “Muhabbat ketsa, nafrat kelar”, “Muhabbatning ko'zi ko'r”, “Oltin zanglamas, sevgi qarimas”, “Sevgining ko'zi ayb ko'rmas”.

Xullas, maqollardagi metaforalarni o'rganish o'rganilayotgan til madaniyati, tafakkur uslubi, olamning lisoniy manzarasini yaqindan o'rganishga, ularning tematik xususiyatlarini to'liq anglab yetish va ulardagi metaforalarning ulkan ahamiyatini aniqlash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры: сборник пер. с англ., фр., нем., исп., польск. яз. / вступ. ст. и сост. Н.Д. Арутюновой; Общ. ред. Н.Д. Арутюновой и М.А. Журиной. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 5–31.
2. N.Mahkamov, I.Ermatov. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2013.
3. Azim Hojiyev. Sinonimlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1969.
4. Lakoff G. and Johnson M. *Metaphors We Live By*. Chicago and London: The University of Chicago Press, 1980.
5. Lakoff G. and Turner M. *More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor*. Chicago and London: The University of Chicago Press, 1989. – pp.106-107.
6. Nasrullayeva G. Antropotsentrik metafora tasnifiga doir. <http://library.ziyounet.uz/ru>
7. Касавин И.Т. Энциклопедия эпистемологии и философии науки. – Москва: «Канон +» РООИ «Реабилитация», 2009. – 1248 с.
8. *The Penguin dictionary of proverbs* / R. Fergusson. – London: Bloomsbury Book, 1991.
9. T.Mirzayev, A.Musoqulov, A.Sarimsoqov. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, 2005.

**Latifa XUDAYQULOVA,**

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi*

## O'ZBEK TO'Y-MAROSIMLARIDA AN'ANAVIY UZVLARNING O'RNI

Asrlar davomida shakllangan o'zbek marosim qo'shiqlari, urf-odat va rasm-rusumlarida xalq qalbining eng nozik tuyg'ulari, ezgu intilishlari o'z poetik ifodasini topgan. Etnofolkloristik kuzatishlarimizga ko'ra, umum-o'zbek to'y-marosimining boshidan to' o'xiriga qadar ritual vazifalar ko'p va o'z o'rniga ega.

Bizga ma'lumki, nikoh to'yidagi odatlar tizimida otash-parastlik (olovdan aylanish), soch magiyasi (soch siypatar), suv kulti (nikoh suvini ichirish) shomonlikka ishonch deb qaralgan. O'zbek to'ylari shaklan rang-barang bo'lib, ular bir-birlaridan o'tkazilish tarzi, ishtirokchilar soni, vazifalari hamda ijro etiluvchi ayrim va qo'shiqlari jihatidan keskin farq qiladi.

Suv bilan bog'liq marosimlar, odatlar, irimlar o'zbek xalq maishiy turmushida ham ko'p saqlanib qolgan. Yurtimizda mavjud ko'plab ziyoratgohlar qoshidagi buloqlarga hozirgacha kishilarning shifo va farzand tilab kelishlari suv kultining ma'lum darajada hozir ham saqlanib qolganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham homilador ayolni suv parilari va suvda bo'ladigan boshqa ziyonlardan saqlash maqsadida o'tkaziladigan ritual marosimlarda Sulaymon kultiga murojaat qilingan<sup>1</sup>.

To'ylarda kelin-kuyovni olovdan aylantirish va, umuman, kelin kelganda o't yoqish odati ramziy poklanish, ins-jinslardan xalos bo'lish va yovuz kuchlar xurujidan saqlanish ma'nolarini anglatgan. Xalq qo'shiqlarida ham



suv bilan oynaning bog'liqligi haqida tasavvurlar o'z ifodasini topgan. Demak, oyna bilan aloqador udum va marosimlar xalqimizning magik-animistik tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirganligi tufayli o'ziga xos tabiatga ega. O'zbek nikoh to'yi marosimi tarkibidagi "oyna ko'rsatar" udumi ham shu qadimiy xalq qarashlari asosida shakllangan. Xususan, "beshik to'yi" marosimida chaqaloq yostig'ining tagiga pichoq, tosh bilan birga oyna ham qo'yilishi bolani ziyon-zahmatdan himoya qilishga qaratilgan magik chora bo'lsa, nikoh to'yida kelin-kuyovga oyna ko'rsatilishi esa ularga baxtli hayot, qo'sha-qarishlikni tilash, umr yo'li ko'zguday musaffo bo'lishiga ezgu istak bildirish ifodasidir.

Iso Ernazar o'g'li tomonidan 1926–1927-yillarda Samarqand viloyati bo'yicha to'plangan etnografik materiallarga ko'ra, "er-u xotin ikkovining orasi oynaday yorug' bo'lsin" deb oyna ko'rsatilgan<sup>2</sup>.

Nikoh to'yi marosimida "oyna ko'rsatish" udumini bajarishda ijro etiladigan aytimlarda kelin bilan kuyovga ezgu tilak bildiriladi:

*Oynaga qarang, oynaga,  
Suzilib qarang oynaga.  
Ikkovi muncha yarashgan,  
Cho'zilib qarang oynaga.*

*Zulfi gajak zulukday,  
Qosh-u ko'zi pilikday,  
Kelin oyim chiroyli-ya,  
Cho'zilib qarang oynaga.*

Ma'lumki, bo'yi yetgan qizlar sochini tarashi, o'ziga oro berishi ularning balog'atga yetganligini anglatadi. Quyidagi qo'shiqda ham sochni tarash balog'atni bildirsa, oynaga qarash to'yning poetik ifodasidir.

*Sochimni taramayman,  
Oynaga qaramayman,  
Xotiringni jam qilgin,  
Men seni xohlamayman.<sup>3</sup>*

To'yda bajarilayotgan marosimlarda ko'proq o'zbek xalq lirik qo'shiqlari<sup>4</sup> ijro etiladi.

O'zbeklar orasida bo'yi yetgan qizlar sevgisini belbog' orqali bildirganlar. Tugunlarning magik ta'siriga ishonch o'zbek xalq lirikasi namunalari ham o'z badiiy ifodasini topgan:

Otam to'ni – chatan to'ni,  
Chatti-putti qilay uni,  
Akam to'ni – kakam to'ni,  
Kaka bersa tikay uni.  
Yorim to'ni – jonim to'ni,

Jonim bilan tikay uni.  
Berqars tikay yorimga deb,  
Beli quvvatli bo'lsin deb,  
Suv keltiray yorimga,  
*Suvday tiniq bo'lsin deb<sup>5</sup>.*

Bu udum vositasida, birinchidan, kelin bo'layotgan qizning chevarligi sinab ko'rilsa, ikkinchidan, yigitlik, erlik va jinsiy quvvat ma'nosini anglatuvchi belbog'ni aynan qizning o'zi tikishi serfarzandlik g'oyasi bilan bog'lanadi.

Nikoh to'yining uchinchi, yakuniy bosqichida uyning ostonasida "kampir o'ldi" udumi bajarilgan<sup>6</sup>. To'yda bajarilgan ushbu udum zamirida kelin ham kampirning yoshiga yetib yursin, degan ma'no yotadi.

Ma'lumki, azaldan turmushga chiqmagan qiz bola yangasi bilan sirdosh bo'lgan. Yangasi unga yo'l-yo'riq ko'rsatib, maslahatlar bergan. Shunday maslahatlardan birini qiz bilan yanga o'rtasidagi savol-javob ko'rinishidagi nasriy usuldagi aytishuvda kuzatamiz:

**Qiz:**  
*Taqali ot kelayotir,  
Bu nimadir, chechajon?<sup>7</sup>*

**Chechasi:**  
*Taqali ot ko'rinsa,  
Sovchi kelar, enaqiz.*

**Qiz:**  
*Ikki otli ko'rindi,  
Bu nimadir, chechajon?*

**Chechasi:**  
*Ikki otli ko'rinsa,  
Kuyov kelar, enaqiz<sup>8</sup>.*

Bu ko'rinishdagi savol-javob aytishuvini dunyo xalqlari folkloridagi eng qadimiy kichik janrlardan biri hisoblangan topishmoqlarda ham kuzatamiz.

**Qizning chechasiga aytib turgani:**

*Och gazadan chang chiqdi,  
U nimadir, chechajon?  
Jo'ra otli bir chiqdi,  
U nimadir, chechajon?...*

**Chechasing qizga javobi:**

*Och gazadan chang chiqsa,  
Sovchi kelar, ona qiz.  
Jo'ra otli bir chiqsa,  
Quda kelar, ona qiz.  
Yolg'iz otli bir chiqsa,  
Kuyov kelar, ona qiz...<sup>9</sup>*

Xulosa qilib aytganda, o'zbek to'y-marosimlaridagi an'analar xalqning ruhiyati, dunyoqarashi, orzu-istaklarini ifodalaydi. Bu borada tadqiqotlar olib borilishi mavzuning dolzarbligi va ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

<sup>1</sup> Mirzayeva S. O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. – Toshkent: Istiqlol, 2006. 52-bet.

<sup>2</sup> Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq ijodi. Nashrga tayyorlovchi: M.Alaviya. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 123-bet.

<sup>3</sup> O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv.№ 9806.

<sup>4</sup> Musaqlulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010. 52-bet.

<sup>5</sup> O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv.№1833. 20-bet.

<sup>6</sup> O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv.№1833. 15-bet.

<sup>7</sup> Checha – Surxon vohasi o'zbeklarining qo'ng'iroq, mo'nka, tortuvli urug'lari aholisi orasida "yanga" ma'nosida qo'llaniladi.

<sup>8</sup> O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv.№1833. 22-bet.

<sup>9</sup> Eshonqulov J. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011. 120-bet.

**Azimjon DAVRONOV,**  
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetining  
"O'zbek tili" kafedrasida o'qituvchisi

## HAMZANING "O'CH" PYESASIDA IJTIMOY-SIYOSIY MUAMMOLAR TALQINI

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida shoir Hamza Hakimzoda Niyoziyning adabiy merosi muhim ahamiyatga ega. Hamza adabiy merosining salmoqli bir qismini dramatik asarlar tashkil etadi. Hamzaning ilk pyesalaridan biri – "O'ch" bugungi davr uchun ham dolzarb.

Adib "O'ch" pyesasida o'sha davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolarini qisqa, lo'nda qilib, 3 ko'rinishli sahnada ijro etishni rejalashtirib yozgan va o'z oldiga qo'ygan maqsad-mazmunni to'raligicha ochib berishga erishgan. Ya'ni kambag'al, mehnatkash, avom xalqning ilmsiz, savodsizligidan o'zlarining shaxsiy manfaati yo'lida foydalangan mahalliy amaldorlar: hokim, noib, mirza, boy, domla, politsiya kabilarning maqsad va muddaosi quyidagicha tasvirlangan:

**H o k i m:** Xo'p, qora xalqni beilmligidan foydalanub, ahmoq qilib ishlatub, onlar ustilarida hukumat davrini surmoqdamizmi?

**N o i b:** Bizlar hali ham insoflik ish tutib turipbiz: faqironi siynasiga zaharlik xanjarimizni urgonimiz yo'q. Qachon biror hukumat birlan urush e'lon qilsak, o'shal vaqtda faqironi jazosini berurmiz. Bul faqirlarga ehtiyot bo'lmoq kerakdur. Bul fuqaro ilmi siyosatdin, ilmi jo'g'rofiyadin, ilmi tarixdin xabardor bo'lmasligiga bor kuchimiz ila tirishsak kerak. Bu fuqaro siyosat olaminidin va jo'g'rofiy ilmidin, ahvoli tarixdin xabardor bo'lib qolsa, ul vaqt bizlarni munday rohatda yashab, hukumat davrini surub, hokimi viloyat bo'lub turmog'imiz batamom bitub, o'zimiz asfalosofin bo'lurmiz!..

Maqsadlari mushtarak bo'lgan amaldorlar suhbat davomida bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. Demokrat va satirik shoir, Hamzaning ustozu Muqimiy "Tanobchilar" satirasida:

"Osh yesalar o'rtada sarson ilik, Xo'ja chiroq yog'i, Hakimjon pilik", – deganidek, boyning hovlisida bir dasturxon atrofida o'tirgan amaldorlar biri qo'yib, biri gapirib, bir-birlarining fikrlarini ma'qullaydi. Noib to'ra o'zaro suhbat davomida mana bunday g'oyani ilgari suradi: jinoyat qidiruv bo'limini ishga solib shahar va qishloqlarga voqeanavis (hozirgi ko'cha tili bilan aytganda quloq) larni qo'yib, xalqning ko'zini ochmoqchi bo'lganlarni, ma'rifatga boshlovchilarni topish kerak. Ularni ushlab kelib turmalarga solish kerak, deydi.

**N o i b:** Emdi bizlarga eng muhim keraklik ish shulki, har bir qishloq va shaharlarga ham bo'lsa, sisknoy nachalnik orqali voqeanavislarni qo'yib, bu xalqni taraqqiy yo'lga solish harakatida yurgan yosh muallimlar qayerda bo'lsa, ushlab kelub, turmalarga solish kerak. Maktablarini bo'lsa tezdin berkitmak lozim. A, xalqqa

maorif yo'lini boshlag'uchilar o'z uylarida maorif yo'lini o'rgatsunlar. Ikkinchi xalqqa maorif o'rgatishlikga qasmlar yod qilsinlar<sup>1</sup>.

Pyesa davomida dramaturg, boy va imomlarning birovning haqidin qo'rqmasliklari, shaxsiy manfaatlari yo'lida har qanday chirkin ishlardan qaytmasliklari haqida yozadi. Mahallaning boy atalmish kishisi Muhammadkarim ismli kishining vafot etganidan foydalanib, u kishi yashagan hovli-joyini va "Xo'roz chaqirdi" qishlog'idagi yerini o'zlashtirib, imom domlaga rasmiy-lashtirmoqchi bo'ladi. Yoki boylarning eshigida qarollik qilib yurgan Haydarqul otasining vafot etganligini kech eshitadi. Otasidan qolgan uy va yer boshqa odamlar qo'liga o'tib ketganligini biladi. Haydarqul ushbu masalada viloyat hokimidan yordam so'rab boradi. Hokim Haydarqulga otasi mahalladan besh yuz so'm qarzdor bo'lganligi va shuning evaziga otasidan qolgan meros, mol-mulkni qarz evaziga olganligini tushuntiradi. Shunda domla uni padarla'nati, masjidga kirib nomoz o'qimaydi degan vajlar bilan haqorat qiladi. Imom domlaning mol-mulkni olish ilinjida qilgan mantiqsiz haqorati Haydarqulni qamab qo'yish uchun asos bo'ladi.

Hokim do'q-po'pisa bilan Haydarqulni qamab qo'yishni buyuradi. Haydarqul esa mayli hovli-joyini va yerni olsalaring ham meni qamamang, deb hokimga yalinadi.

Pyesa boyning yolg'iz yotgan yotog'iga Haydarqul boshlab kelgan o'g'rilarning bostirib kirishi bilan yakunlanadi. O'g'rilar boyga qarata o'zlarining "chiroyli" so'zlarini ishlatadi:

**O' g' r i:** Ha, xotin taloq, boy! Qo'limizga tushding-ku! Endi yordamchilaring ajratib olsun sani. Juda hammani so'kub hovli-joylarini olib, necha kambag'allarni bevatan qilib, haddingdan oshub ketub erding-a? Qalaysan, endi! Oxirgi holing shul ekan-ku.

**B o y:** Jon ukalar, ikkinchi martaba qilmaydurman, bul safarcha kechiringizlar!

**H a y d a r q u l:** Jo'raboshi aka, bu zolim, qonxo'r boyni gapga solib o'ltirmang. Manga buyuring, bir o'q birlan tanbehin berayin! Qo'lim qichib turibdir.

**Y a n a b i r o' g' r i:** Sani qara-yu, qachondan beri odam otadigan bo'lib qolding? Yuragida yoli bor bizdaqa yigitlar otadi-da! Bul boy, bilasanmi, mani eshigida o'ttiz yil xizmatkor qilib ishlatib, bir tiyin bermasdan, ketimga tepib haydagan. Qasdimni man olaman-da!..

Xizmatkorni ushlab turgan o' g' r i: Bo'lmagan kattaliklarni qilasan!.. Beda qirqqonga o'xshatub jodi birlan kallasini qirqadi-qo'yadi-da.

J o' r a b o s h i: Tort xotun taloqlardi! Hammang is-toldi olib chiq. (Xizmatkorga.) Bizlar hammamiz vatani-mizdan ajragan alamzada odamlardurmiz! Sani dunyo-ing kerak emas! Sanday xoinlarning joni kerak!<sup>2</sup>

O'g'rilar to'dasining ana shu tarzda o'ch olishidan kelib chiqib, pyesa "O'ch" deb nomlangan. Aftidan, pyesani dramaturg o'zi sahnalashtirgani, o'zi rejissor-lik qilgani va boshqa sahna ishlarini o'zi yo'l-yo'lakay amalga oshirgani sabab, ortiqcha izohlar yozilmagan. Odatda, personajlar nutqi bilan birgalikda muallif nutqi ham berib boriladi. Muallif nutqi ishtirok etmaganligi sa-bab shunday xulosa qilish mumkin.

Hamza Hakimzoda Niyoziy pyesada yana ko'p ij-timoiy-siyosiy muammolarga ishoralar qiladi. Ya'ni, Muhammadkarim ismli kishining yolg'iz vafot etishi; vafot etgan kuni dafn marosimida o'g'li Haydarqulning qatnasha olmasligi; Haydarqulning boylar eshigida qarol bo'lib yurishi; Haydarqul savodsiz bo'lganligi sababli, otasining qarzi borligi haqida biror hujjat bor yoki yo'qligini surishtirmaganligi; qamab qo'yishidan qo'rqib mol-mulkni olib qo'yishiga rozilik berganli-gi; Hoshimjonning qarz so'rab kelishi; Mirzarahim va Mo'minjonlarning otasini dafn etish uchun puli yo'qli-

gi; uyidagi yaxshi gilamni qarz evaziga boyg berishi; mehnatkash halol yigitlarning o'g'rilarga aylanib ketishi asarning va davrning ijtimoiy-siyosiy muammosi hi-soblanadi.

Hamzaning "O'ch" asari yangi davr adabiy ja-moatchiligi va teatri uchun ham juda dolzarb. Chunki bugungi hayotimizda ham o'z haq-huquqini bilmay-digan, uni o'qib-o'rganmaydigan insonlar uchrab turadi. Ularning bilmas, tushunmasligidan foydalanganlar ham uchraydi.

Xullas, Hamza va uning dramatik asarlari o'zbek professional teatrining maydonga kelishiga asos bo'lgan. "O'zbek dramaturglari orasida Hamzaga ye-tadigani bo'lmagan, hozir ham yo'q. Albatta, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor kabi adiblarning drama-turgiyasini ham e'tirof etamiz. Lekin baribir, ular ham Hamzaga yetolmaydi. Biz hali-hanuz Hamza asar-larini munosib darajada sahnalashtira olmaganmiz. U so'zning qadrini bilgan holda pyesalarini yozgan. Hamzani oxirigacha tushunib yetadigan rejissura hali shakllanmagan bizda"<sup>3</sup>, – deydi O'zbekiston xalq artisti, atoqli rejissor Bahodir Yo'ldoshev.

Darhaqiqat, bugun teatr sahnalariga "O'ch" pyesasi ham olib chiqilsa, xayrli ishlardan bo'lardi.

<sup>1</sup> Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. 5 jildlik. 3-jild. – Toshkent, 1989. 7-bet.

<sup>2</sup> Usha manba. 7–8-betlar.

<sup>3</sup> Usha manba. 13–14-betlar.

**Ruxiya SHAYMANOVA,**  
*Surxondaryo viloyati Bandixon tumanidagi  
 11-umumta'lim maktabining oliy toifali  
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

## SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "OT EGASI" HIKOYASINING TILI VA USLUBI

Adabiy ta'limda badiiy asar tili va uslubini o'rga-nish muhim hisoblanadi. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari badiiy asarda qo'llangan tasviriy vositalar, iboralar, asar leksikasini puxta bilishi lozim. Yozuvchi hayotni xarakterlar va manzaralar vositasida aks ettirar ekan, jonli xalq tili boyliklaridan ham, adabiy til me'yorlaridan ham keng foydalanadi. Shu bilan bir qatorda adabiy tilning o'sishiga o'z hissasini qo'shadi. Yozuvchi asarning mazmunini yoritish, obrazlarning xarakterini ochib berish, voqea mohiyatini kitobxonga yetkazish uchun so'z va iboralardan munosibini tan-laydi. Umumxalq tilidan o'rinli va unumli foydalanadi. Asarda qo'llangan har bir so'z, ibora, xalqona ruhda yozilsa, keng kitobxon ommasiga tushunarli va o'qi-mishli bo'ladi. Eng yaxshi yozuvchilar xalq tilini chuqur o'rganish asosida asarlarining tili serma'no va jozibali bo'lishiga erishadilar. Shunday yozuvchilarimizdan biri o'zbek adabiyotida o'ziga xos yo'nalish, uslub yarata olgan Shukur Xolmirzayevdir.

Adib asarlarida tabiat manzaralari tasviri o'ziga xos o'rin tutadi. Umuman, peyzaj adabiy asarda muayyan g'oyaviy-kompozitsion vazifani bajaradi. Peyzaj yor-damida yozuvchilar xarakterlarni harakatda, doimiy o'zgarishda ko'rsatadilar. Badiiy asarda peyzajning qo'llanish yo'llari xilma-xil bo'lib, ular yozuvchi uslub-i va asar janri bilan belgilanadi. Tabiat manzarasini tas-virlashda turli xildagi maqsad kuzatiladi. U goh voqea sodir bo'lgan joyni bildiradi, goh qahramonlar tabiatini ochishga yordam beradi. Shukur Xolmirzayevning "Otning egasi" asari boshlanishida tabiat manzara-si qahramon kayfiyatini ochishga yordam berganini ko'ramiz: "...qorabayirni minib toqqa ketadi. Cho'ponlar ovulida sang'ib, marhum otasining jang qilgan yerlari-ni ko'radi, zumrad qorli cho'qqilar ostidan o'tib, yashil o'tloqlarda tunaydi va o'zi sezmagani holda ko'ngli ko'tarilib, dardi pasayib, qishloqqa qaytadi. Shundan

keyin darsdan bo'sh kunlarida qorabayirda sayr qilish unga odat bo'lib qoladi".

Har bir odamning tili, so'zlash tarzi uning qanday turmush kechirganligi, madaniyati, ongi, ruhiyati haqida ma'lum tasavvur beradi. Shunga ko'ra badiiy asarlardagi qahramonlarning nutqlari ham turli-tuman, o'ziga xos bo'lib, ular xarakterining mohiyatini anglashda muayyan vazifani o'taydi.

Hikoyada "Otni bersam, kunim qattiq bo'ladi, Egamberdi. Otamdan yodgorlik. Er yigitning oti bo'lishi kerak, der edilar. Shu ot ...mening og'ir kunimga yaradi", jumlasidan orqali yozuvchi Inodning to'g'riso'z, qat'iyatli, ishonuvchan, tabiatan sodda, kitobiy so'zlaridan yiroq inson ekanligini ko'rsatib bergan. Shu o'rinda biz kamdan kam uchraydigan bu ism ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Inod arabchadan olingan bo'lib, "cho'rtkesar", "qat'iyatli", "qaysar" ma'nolarini ifodalaydi. Asarni o'qigach, uning ismi jismiga monandligini ilg'ab olamiz. Bizningcha, otdan voz kechishdek fojiali holatda ham Inodning cho'rtkesarligi o'z so'zini aytgan. Hikoya davomida Inod Egamberdiga ikki marotaba bir xil savol beradi: "Shundaymi?"

"Egamberdi suzmaga bulab olgan nonni og'ziga solib, duduqlanganicha bidillay ketdi:

– Bilaman, bilaman, jo'rajon. Sizlarga ot suv bilan havoday zarur! Lekin iloj qancha... Lekin menga bermasang, boshqasi kelib olib ketadi...

Inod boshini quyi solib, ancha vaqt jim o'tirdi. Nihoyat:

– Shundaymi? – dedi".

Yana bir o'rinda:

"Egamberdi yana manglayini ushladi, qo'ylarni o'ziniki qilganidan keyin ham yana ot xumoriga tushib ketishini his etdi va:

– Yo'q, end, jo'rajon! – dedi. – Shu sigiringni olganimdan beri ko'nglim qora. Xohlasang borib podachidan qaytib ol.

– Shundaymi?"

Bu so'z Inodning tilidan emas, balki qalbidan savoldan ko'ra javobdek, to'g'rirog'i qat'iy qarordek yangrab chiqadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyada qahramonlar nutqida shevaga xos so'zlarni o'rinni qo'llash orqali ularning tabiatini yanada yorqinroq aks ettiradi.

Yozuvchi shevaga xos so'zlardan foydalanish orqali qahramonlar nutqini individuallashtiradi, aniqlashtiradi. Jumladan, "bo'lipti" (bo'libdi), "kepti" (kelibdi), "yo'ng'ichqa" (beda), "sholcha" (gilam), "chalob" (ayron), "chakki" (suzma), "tulum (idish), "kepsiz" (kelibsiz), "bulab" (botirib), "azalgi" (avvalgi), "kulliklab" (bog'lab) kabi Surxondaryo shevasiga xos so'zlarni uchramiz.

Bundan tashqari, yozuvchi ushbu hikoya matnida varvarizm, evfimizm, sinonim so'zlar, iboralardan ham unumli foydalanadi.

Varvarizm – boshqa tillardan kirib kelgan so'z va iboralar. Varvarizm tasvirlanayotgan davr ruhini namoyon etishda ifodalanadi. "Ot egasi" hikoyasida Egamberdi va Inodning nutqini individuallashtirishda "milisa", "rayon", "partiya komiteti", "sovxoz", "organ", "pogon" kabi chet so'zlar o'rinni ishlatilgan. Hikoyada varvarizmlar zarur paytda turmush hodisalarini aks ettirishda o'sha davr ruhiyatini jonlantirishga, qahramonlar tilini o'ziga xoslashtirishga xizmat qilgan.

Hikoyada evfimizmlar ham asar badiiyligini oshirgan, takrorning oldini olgan. Evfimizm biror so'zni aytish noqulay bo'lgan vaziyatlarda o'sha so'z yoki so'z birikmasini qo'llash demakdir. Bunga misol qilib, "qishloq chetida bosmachilar bilan urushda halok bo'lgan otasining qabri do'ppayib turar...", "...bola-chaqasining allaqachon sob bo'lganini ko'radi", "Ot badani sovidi", "o'lgan desam ham ishonishmadi" jumllarini keltirishimiz mumkin.

Yozuvchi o'z asarida tilning tasviriyligiga hamda maxsus leksik vositalarni qo'llash yo'li bilan asarning obrazlilikiga erishgan. Asar tilida o'rni bilan ishlatilgan so'z va iboralar, xarakter va manzaralarni ifodalay oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, badiiy asar tilini tahlil qilish o'quvchilarning badiiy asar bilan yaqinligini kuchaytiradi, ularning qalbida badiiy so'zga, adabiyotga bo'lgan mehrni oshiradi.

**Oysha RAJABOVA,**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi  
"Tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi

## XORIJIY TILNI O'QITISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Yevropa Kengashining "Chet tilni egallashning umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi hujjati (CEFR)ni o'rganish, raqamli texnologiyalarni keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi "Tillar" kafedrasida professor-o'qituvchilari qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlash lozim. Shunday ekan, xorijiy til bo'yicha og'zaki nutqni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishda:

- ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;
- raqamli texnologiyalar bo'yicha mashg'ulotlar olib borish;

– videoroliklar va ashulalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar keng rivojlangan bir paytda og'zaki nutqni rivojlantirish, yozma nutqni qanday qilib og'zaki nutqqa aylantirish, asl og'zaki nutq materiallari, fonetik va lingvistik fenomenlarni belgilab olish va hozirgi zamon xorijiy til og'zaki nutqidagi fenomenlar "xarita" sini yaratish bo'yicha metodik ko'rsatmalarni Internet saytlaridan olish mumkin. Mashg'ulotlarda veb-saytlarni to'g'ri ochish, izlanayotgan hujjatni to'g'ri tanlash muhim hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari va reklama tilida og'zaki nutqqa xos va jargon so'zlar uchrab turadi. Bunday holatlar mashg'ulotlar davomida muhokama etilib tartibga solinadi. Ushbu mavzuni yoritishda reklama, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar ustida ishlash metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chet tilni o'rgatishda qo'shiqlardan foydalanish, she'riyat kechalari kabi turli tadbirlar uyushtirish ham yaxshi samara beradi.

"Besh tashabbus" loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar O'zbekistonning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o'qitish markazlarini ochish lozimligi ta'kidlanmoqda. Bu ham ta'lim texnologiyalarining rivojlanishiga, xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga katta yordam beradi.

Harbiy-texnik kitoblar, qisqartma so'zlar, harbiy hujjatlar, harbiy buyruqlarni maromiga yetkazib tarjima qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli harbiylarning tarjima mahoratini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida badiiy adabiyotlardan, harbiy jurnal va gazetalaridan matnlarni o'qib tarjima qilish ko'nikmalari ustida ish olib boriladi.

Og'zaki tarjima ham harbiylar faoliyatida katta rol o'ynaydi. Og'zaki tarjima nutq faoliyatining eshitish va gapirish turlarini o'z ichiga oladi. Eshitib to'g'ridan to'g'ri tarjima qilishda bir til muhitidan ikkinchi til muhitiga o'tish va barchasini xotira orqali tinglovchiga to'g'ri yetkazib berish lozim bo'ladi. Chet el teleko'rsatuvlarini ko'rish, radioeshittirishlarini tinglash tarjimaning bu turini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda:

- til o'rgatishda og'zaki nutqqa katta e'tibor qaratish;
- axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni targ'ib qilish;
- chet tilda gazeta va jurnallarni, badiiy asarlardan parchalarni o'qishni ommalashtirish;
- rasm, qisqa metrajli ovozsiz filmlarni ko'rganda o'z fikrini ayta olishga o'rgatish, ya'ni an'anaviy o'qitish metodlaridan biroq cheklanib, noan'anaviy metodlardan keng foydalanishni targ'ib qilish til o'rgatishda samarali natijalar berishi tabiiy.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qarori.

2. Миньяр-Белоручев Р.К. Учебник военного перевода. – Москва, 1984.

**Gulhayo SAMANDAROVA,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich magistranti*

## OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA TALAFFUZ MASHQI VA UNING TURLARI

Maxsus maktablarda ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligida og'zaki va yozma nutq kamchiliklari uchraydi. Ayniqsa, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yordamchi maktab o'quvchilarida tovush-harfarni qoldirib ketish (olma – oma), almash-tirish (kitob – kitor) yoki bo'g'in, so'zlarni almashtirish, chalkashtirib aytish (bola – pola, sabzi – tabzi) kabi holatlar kuzatiladi. Bunday holatlarni bartaraf etish jarayonida bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarni olib borish eng muhim vazifa hisoblanadi. Logoped-o'qituvchi korreksion-pedagogik ta'limning maxsus tashkil etilgan jarayoni yordamida bolalar va o'quvchilarning nutqiy

faoliyatini tuzatish, korreksiyalash asosida ularning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

Nutq a'zolarining asosiy harakatchanligini aniqlash, to'g'ri talaffuz malakalarini mustahkamlash maqsadida bunday nuqsonli bolalarga nutq mashqlari majmuasi tavsiya etiladi. Artikulatsion mashqlar uchun topshiriqlarni to'g'ri tanlash va uni nutq a'zolarida shakllantirish yaxshi samara beradi. Harakat ko'nikmalarini mustahkamlash, yanada mukammal bajarish maqsadida artikulatsion mashqlarni har kuni 4–5 marta o'tkazish tavsiya etiladi. Uni 3–4 daqiqa mobaynida ertalabki badantariya, tushlik, kechki ovqatdan oldin o'tkazish mumkin. Bolalarga 2–3 tadan ortiq mashq tavsiya etil-

maydi. Mazkur mashqlarni kichik guruhlar bilan yoki yakka holda soddadan murakkabga qarab, izchillik bilan o'tkazish talab etiladi. Har bir mashq ketma-ketlikda olib boriladi.

Birinchi kunda nutq a'zolari, ya'ni til, lablar zo'riqishi mumkin. Asta-sekinlik bilan bu zo'riqish yo'qolib, harakatlar erkin va muvofiqlasha boradi. Harakatsiz mashqlarda nutq a'zolarini ma'lum holatda 6–10 soniya davomida saqlab turish talab qilinadi, harakatli mashqlar esa harakatni 6–8 marta bir me'yorda takrorlashni hamda ularning bir holatdan ikkinchi holatga tekis o'tishini talab etadi.

Oilada tarbiyaning erta boshlanishi bola nutqining to'g'ri rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola 4 yoshida hamma tovushlarni bir-biridan farqlay bilishi va ularni to'g'ri talaffuz etishi kerak. Mana shu yoshda tovushlar talaffuzining shakllanish davri tugaydi. 5–6 yoshli bola to'liq gap tuzish, rasimga qarab hikoya qilish, gapirib berish, she'r, topishmoqlarni yoddan aytib berish, ko'rgan narsalarini uzoq vaqt xotirasida saqlab qolish qobiliyatiga ega bo'ladi. 6 yoshli bolada nutqiy kamchiliklar deyarli kuzatilmaydi. Nutqning me'yorda rivojlanayotganini bolaning og'zaki nutqini eshitish orqali aniqlash mumkin. 6–7 yoshgacha bo'lgan davrda ayrim ota-onalar bola nutqini rivojlantirish bosqichlariga befarq qaraydilar. Ko'pincha bola bir narsani aytmoqchi bo'lib, ovoz chiqarsa, uning harakatidan nima demoqchiligini bilishga, uni gapirtirmasdan bajarishga harakat qiladilar yoki yosh bolalar og'ziga so'rg'ich berib, ovutib, xalaqit bermasligini istaydilar. Buning natijasida bolaning nutq a'zolari noto'g'ri rivojlanib boradi.

Shunday holatning oldini olish uchun ota-ona bolaning tovush, so'zlarni qanday talaffuz qilayotganiga ahamiyat berib borishi kerak. Bordi-yu, bola nutqida yoki talaffuzida murakkab nuqsonlar mavjud bo'lsa, unda darhol mutaxassislarga murojaat qilib, ularning maslahatlariga ko'ra ish tutish lozim. Buning uchun bola nutqini ilk yoshdan boshlab to'g'ri tarbiyalash, rivojlanish bosqichlariga jiddiy e'tibor berish talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan har xil mavzuda ko'proq suhbatlar o'tkazish, og'zaki nutqini rivojlantirish, so'z boyligini oshirib borish tavsiya etiladi. Bola nutqida uchraydigan kamchiliklar, asosan, maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydi. Bunda birgina yoki bir necha tovushni noto'g'ri talaffuz etish, so'zni buzib aytish, ayrim tovushlarni ayta olmaslik kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Bola nutqidagi kamchiliklar maktabga borganida, ayniqsa, sezilarli bo'ladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar: tili chuchuk, duduqlanuvchi yoki nutqi to'liq rivojlanmay qolgan bo'lib, o'z o'rtoqlari bilan o'ynash, boshqalarga aralashishga ancha qiynaladi, bu esa uning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolaning eshitish qobiliyatini tekshirish va rivojlantirishga oid turli xil mashqlar, o'yinlar o'tkazish tavsiya etiladi. Nutq buzilishining ko'p uchraydigan murakkab ko'rinishlaridan biri tutilib gapirishdir. Bu nutqda ayrim bo'g'in va tovushlarning qayta-qayta takrorlanishi yoki to'xtab qolish natijasida sodir bo'ladi. Ko'pchilik hollarda tutilib gapirish bog'cha yoshidagi bolalarda uchraydi. Tutilib gapirish oiladagi kelishmovchiliklar, qo'rqitish, jazolash natijasida ham yuzaga keladi. Duduqlanish



maktab yoshigacha to'g'rilanmasa, bola o'z kamchiligini sezib, o'z fikrini aniq tushuntira olmayotganidan ezilib, noxush holatlarga duchor bo'ladi. Shu sababli ota-onalar farzandlarining duduqlanishini sezganlaridan keyin tezda uni bartaraf etish choralarini ko'rishlari kerak. Bolada o'z-o'ziga ishonch, hamma narsa o'ziga bog'liqligi hissini tarbiyalash kerak. Shoshmasdan gapirishni o'rgatish, bir nafas chiqarganda ikki sonli raqamlarni, ko'p sonli sanoq sonlarni sanashni mashq qildirish kerak.

Yoddan she'r o'qish ravon nutq ko'nikmalarini hosil qilishga ijobiy ta'sir qiladi. She'riy nutq mashqidan keyin savol-javob mashqlari o'tkaziladi. Buning uchun dastlab savollar oddiy so'zlardan, bola uchun ma'lum bo'lgan mavzu asosida tuzilib, asta-sekin murakkablashib boradi. Matnlar o'qitiladi, ko'rgan rasmlari asosida so'zlab berishga o'rgatiladi. Tutilib gapiruvchilar uchun eng qiyini – so'zlashuv nutqi. Bola o'ziga osonroq bo'lishi uchun qiynalayotgan so'z o'rniga boshqasini ishlatishga urinadi. Bunga yo'l qo'ymaslik kerak. Aks holda gapiruvchi to'g'ri nutq o'rganish o'rniga o'zlari o'rgangan nutq doirasiga tushib qoladi. Shuning uchun mashg'ulotlar avtobusda, do'konda, bozorda, mehmonda, maktabda, bog'chada va shunga o'xshash sharoitlarni keltirgan holda o'tkaziladi. Tutilib gapirishdan to'g'ri, me'yordagi nutqqa o'tish jarayoni asta-sekinlik bilan boradi.

Duduqlikni guruhda ishlash orqali davolash samarali natijalar beradi. Negaki, bu holat kuzatilgan odamlar yolg'iz qolganlarida yoki shifokor oldida umuman duduqlanmasliklari mumkin. Hamma muammo ular omma yonida gapirmoqchi bo'lganida ro'y beradi. Aynan shuning uchun ular guruh bo'lib shug'ullansalar, davolanish ancha samarali kechadi.

Alohida davo chorasi sifatida qisqa she'rlar yodlash mumkin. Qofiyali, jo'n to'rtliklar nutqni boyitadi va o'ziga ishonchini orttiradi. Natijada odam unli tovushlarni ortiq cho'zmaydi, undoshlar uchranganida esa "qoqilmaydi".

Duduqlikda sinxron suzish eng ko'p yordam beradigan sport turi hisoblanadi. Bemorlarning 95 foizi sportning aynan shu turi bilan shug'ullanish orqali bu noxush holatdan juda tez vaqt ichida xalos bo'lishadi. Bunday suzish turi bilan haftasiga 2–3 marta bir soat davomida muntazam shug'ullanilganda 1,5–2 oydan keyin bolaning nutqi ravonlashganligini sezish mumkin.

Xullas, oiladagi qulay sharoit, to'g'ri kun tartibi bola o'sishi, rivojlanishi va o'z ona tilini o'zlashtirishining asosiy omilidir.

## NOTIQLIK SAN'ATINING TADRIJIY RIVOJLANISHI

Ma'lumki, xalqimiz azal-azaldan so'zga chechan, badiiy didi baland insonlarni qadrlab, e'zozlab kelgan. Buni birgina xalq orasida baxshilarning obro'-e'tibori misolida ham ko'rish mumkin. Quvvai hofizasi, do'mbira chalishdagi mahoratidan tashqari so'zga chechan, san'atkorona nutqi baland bo'lgan baxshilar ayniqsa, el-u yurtida qadr topgan, ularga, o'zlarining ta'biri bilan aytganda, davralarning to'rida e'zoz hurmat ko'rsatilgan. Kezi kelganda aytish lozim, ko'p asrluk o'zbek xalq og'zaki ijodiyotining katta qismini tashkil etadigan dostonlarning tildan-tilga o'tib, boyib yashab kelishida ham baxshilarning notiqligi, fikrini ravon ifoda eta olishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Aslini olganda notiqlik san'ati hayotning barcha jabhalarida katta ahamiyat kasb etadi. Deylik, harbiy yurishlar oldidan qo'mondonning ta'sirchan nutqi askarlar ruhiyatini ko'tarib, g'alabani ta'minlashga xizmat qilgan.

Tarixiy manbalarga e'tibor beradigan bo'lsak, bizning diyorumizda qadimda so'z aytuvchi notiqni voiz, uning nutqini va'z, deb ataganlar. Voizlik jamoat oldida nutq so'zlash, ilmiy-siyosiy ma'ruza, bahs-munozara, targ'ibot va tashviqotning asosiy vositasi sifatida keng ijtimoiy mavqega ega bo'lgan san'at sifatida rivojlana olgan. E'tiborli jihati shundaki, bu jarayonda notiqlik nutq madaniyati bilan uyg'un holda o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. «Yaxshi so'z – jon ozig'i», «Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin», «O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir», «Har neni yemak – hayvonning ishi, har neni demak – nodonning ishi» kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi [1].

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, bugungi O'zbekiston hududi tarixda ilm-fan, madaniyat va san'atning qadimiy beshigi bo'lib kelgan. Ayniqsa, Sharq uyg'onish davrida din, ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san'at ravnaq topib, bu yuksalishlar jarayonida yetuk voizlarning ta'siri kuchli bo'lgan. Xususan, hazrat Alisher Navoiy o'zining «Mahbub ul-qulub» nomli falsafiy asarining 24-faslini voizlik san'atiga bag'ishladi. «Nasihah ahli va voizlar zikrida» deb nomlangan ushbu faslda Navoiy ushbu san'atga, va'zga, voizga yuksak baho berib, shunday qimmatli fikrlarni bildiradi: «Voiz Haq so'zni targ'ib qilishi, Payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval, uning o'zi Haq va payg'ambar yo'lga kirishi, so'ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq – musofirni adashtirib biyobonga tashlamoq va uni sahroda yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chorlashi — uyquchi kishining odamlarni be-

dorlikka da'vat etishiga o'xshash narsadir»[2]. Bundan ko'rinadiki, voiz quruq so'zamollik bilan hech narsaga erisha olmaydi, birovlarni o'ziga ergashtira olishi uchun avvalo, uning dili va tili bir bo'lmog'i lozim bo'ladi.

Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davrining notiqlik san'ati va madaniyatiga, nutq odobiga juda katta hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlarning asarlarida ham o'sha davr tili bilan birga nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan.

Ulug' ajdodlarimizdan notiqlik san'ati bo'yicha bizga yetib kelgan qimmatli manbalardan biri bu Kaykovusning «Qobusnoma» asari hisoblanadi. Ushbu asarning butun bir bobini suxandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish masalasiga bag'ishlangani, ayniqsa, e'tiborlidir. Kaykovus yettinchi bobda nutqning go'zal ma'noli bo'lishi, nutqda so'zni noo'rin ishlatmay, o'z o'rnida ishlatish masalalarini yoritadi, to'g'ri so'zlashga, yolg'on so'zlamaslikka, nutqni xalqqa ma'qul qilishga undaydi.

Alloma faqat nutq so'zlashni emas, balki boshqalarning so'zi va nutqidan ibrat olishni ta'kidlar ekan, shunday yo'l bilan ham yaxshi notiq bo'lish mumkinligini uqtiradi: «Ey farzand, toki qila olsang so'z eshitmakdin qochmag'ilki, kishi so'z eshitmak bila suxango'ylik (notiqlik) hosil qilur». E'tiborlisi shundaki, bu shunchaki bildirilgan fikr emas, balki Kaykovus hayotiy voqeelikdagi dalillar bilan isbotlashga harakat qiladi. Mana, e'tibor qiling: «Bir o'g'lon onadin tug'olsa, unga yerning ostidan bir joy qilib, sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, u o'g'lon hech kishining so'zin eshitmasa, ulug' bo'lg'onda u lol (soqov) bo'lur. Yillar o'tib so'z eshitsa, o'rgansa, u suxango'y bo'lg'ay» [3].

Odarning tab'i so'z, taomning ta'mi tuz, suvning ta'mi muz bilan ekan. So'zdan kimning qanday foydalinishi uning qalb-u qiyofatiga daxldor. So'z orqali insonlar qalbiga yo'l olinarkan, demak, so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olish ham ziddiyatlarga chek qo'yadi. [4].

Shu o'rinda yana bir ulug' ajdodlarimizdan biri bo'lgan Najmiddin Kubroning «Shubhasiz so'z qalbdadir, agar o'z fikringizning shohi bo'lolmasangiz, atrof-dagilarning quliga aylanasiz» degan fikrlari notiqlikning ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Tarbiya sohasida Kaykovusni ko'proq donishmandlar so'zi qiziqtiradi, shuning uchun u suxandon bo'lishda donishmandlar so'zini tinglashni tavsiya qiladi. Ayniqsa, u yolg'on va behuda so'zlashni qattiq qoralaydi: «Ey farzand, demak yolg'on va behuda so'z aytmag'il, behuda so'z aytmoq devonalikning bir qismidir», – deydi. [5]



Aytish lozim, Kaykovusning bu qimmatli fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini aslo yo'qotgani yo'q, balki oshib bormoqda. Ahamiyatlisi, zamonaviy ilmda ham buning o'ziga xos ifodasini ko'rish mumkin. Masalan, nutq madaniyati nazariyasida adabiy til milliy tilning oliy shakli, deb e'tirof etiladi. Badiiy adabiyot tili o'zining eng yaxshi namunalari bilan xalqning madaniyat sohasidagi yutuqlari va an'alarini mustahkamlaydi va boyitadi.

Notiqlik san'ati mohiyatan olib qaralsa, ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Bunda adabiy til qoidalari me'yorlariga amal qilish ham katta o'rin tutadi. Taniqli suxandon va olim Rahimboy Jumaniyozovning aytishicha, "...afsuski, keyingi paytlarda muloqot va muomala jarayonida so'zni istifoda etishda adabiy til qoidalari va me'yorlariga rioya etavermaslik holatlari uchrayapti. Bu esa savodxonligimizga putur yetkazibgina qolmasdan, balki ma'naviyatimizga tanazzuliga zamin hozirlashi mumkin"[6].

Ommaviy axborot vositalarida qo'llanadigan nutq ifoda tarzi jihatidan muayyan tafovutlarga ega. Telenutq, radionutq va matbuot nutq qo'llanilishiga ko'ra farqlanadi. Ulardagi badiiy nutq esa o'rniga qarab muvaffaqiyatli ifoda etilishi mumkin.

Notiqlik san'atining, qolaversa, nutq madaniyatining rivojlanishida adabiyot, san'at, radio qatorida televideniening alohida o'ri bor, qachonki unda adabiy til me'yori qoidalarga amal qilinsa va o'z kasbining ust-

alari tomonidan ko'rsatuvlar olib borilsa. Zero, televidenie tashkil etilgan vaqtdan boshlab o'z funksiyasiga ko'ra, bir tomondan o'zini badiiy qadriyatlarning yaratuvchisi, homiysi va tarqatuvchisi, boshqa tomondan esa san'at va uning iste'molchisi o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida ko'rsatib, madaniy hamjamiyat bilan faol muloqotga kirishdi. Taniqli kinorejissyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Bahodir Ahmedov shunday fikrlarni bildirganda haq edi: "XX asrda ilmiy-texnikaviy inqilob farzandi sifatida jamiyat hayotining qatlamlarini qamrab olgan televidenie qisqagina vaqt ichida xalqning ma'rifatli bo'lishida,

axborot bilan ta'minlanishida eng muhim vositalardan biriga aylandi"[7].

Darhaqiqat, shunday. Dunyo tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda telekanallarning borgan sari ko'payib va ixtisoslashib borayotganini ko'rish mumkin. O'zbekistonda ham keyingi yillarda bu jarayon anchayin tez kechmoqda. Ixtisoslashgan, xususiy, raqamli va Internet telekanallar ko'payib bormoqda. 2012 yil 30-iyulda ikkita yangi raqamli kanal – "Madaniyat va ma'rifat" hamda "Dunyo bo'ylab" telekanallari tashkil etildi. Shundan so'ng 2013–2014-yillarda "Bolajon", "Kinoteatr", "Mahalla", "Navo", "Diyor", "Oilaviy", 2017-yilda "O'zbekiston 24", 2018-yilda "O'zbekiston tarixi" kabi bir qator ixtisoslashgan raqamli telekanallar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu bilan aholining barcha qatlamlari uchun rang-barang teledasturlar tayyorlash imkoniyati yanada kengaydi. Xususan, "Oilaviy" telekanalida oilaviy qadriyatlarga, "Dunyo bo'ylab" telekanalida olam va koinot sinoatiga, "Mahalla" telekanalida mahalla an'alariga, "Kinoteatr" telekanalida kinofilmlar namoyishiga, "Bolajon" telekanalida bolalarga mo'ljallangan dasturlarga e'tibor qaratildi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida "Uzreport TV", "MY5", "Milliy TV", "Futbol TV", "Sevimli" kabi xususiy va "Hidoyat sari" singari ilmiy-ma'rifiy onlayn (virtual) telekanallar tarmog'i ham tashkil etildi hamda rivojlantirishni boshladi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu onlayn telekanalning faoliyat boshlashi ham ulug' ajdodlarimizning boy merosidan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni bahramand etishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

- [1] Madvaliev A, Solijonov Y. Nutq madaniyati. qomus.info
- [2] Navoiy A. Mahbub ul-qulub. T.: Yangi asr avlodi. 2019. 135-bet.
- [3] Kaykovus. Qobusnoma. T.: O'qituvchi. 1986. 47-bet.
- [4]. Jumaniyozov R. Badiiy so'zning quvvati. notiq.uz
- [5] Kaykovus. Qobusnoma. T.: O'qituvchi. 1986. 46-bet.
- [6] Jumaniyozov R. Badiiy so'zning quvvati. notiq.uz
- [7] Ahmedov B. O'zbek televideniye kinoinqilobining rivojlanish tarixi. –T.: Akademiya, 2007. 8-bet.
- [8] Ahmedov T. O'zbekistonda televideniye rivojlanish jarayoni va uning aholi ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'ri. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori dis. avtoreferati. – T., 2019. 9-bet.
- [9] MTRK tizimida "Hidoyat sari" ilmiy-ma'rifiy onlayn telekanali tashkil etildi. - t.me/aoka\_uz